

87.717
0-24



MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV
MAHMUDXO'JA BEHBUDIY
ABDURAUUF FITRAT
ABDULLA AVLONIY
ABDULLA QODIRIY
ABDULHAMID CHO'L PON

ODOB- AXLOQ KITOBI




YOSH
KITOBXON

87.717
0-24



Jadid adabiyoti
namoyandalari

Odob-axloq kitobi



Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

931509

YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT

UO'K: 173.5

KBK: 87.7

O – 95

Odob-axloq kitobi / Jadid adabiyoti namoyandalari: M.Behbudiy va boshq. T.: Yangi asr avlodi, 2019. – 192 b.

ISBN 978-9943-27-487-7

O'tgan asr boshlarida yangi tuzum maktablarining tashkil etilishi nafaqat davr farzandlarining, balki millat bolalarining ma'naviyatida tub burilishi yasadi, desak xato bo'lmaydi. Zamon ma'rifatparvarlari o'quvchilar uchun qator darsliklar yaratishdi, risolalar chop etishdi, gazeta va jurnallar ochishdi.

Bugungi o'quvchilar aynan o'sha maqolalarni, asarlarni, kitoblarni qayta-qayta o'qishi lozim, chunki ustozlarimizni, borihgki ustozlarimizning ustozlarini ma'rifatga chorlagan, ilmga oshno qilgan, ziyoli qilgan asarlar bugungi davr uchun ham qadri, ham zarur.

Mazkur kitobda XX asr boshlaridagi adabiyot – ilm va chin insoniylikka chorlovchi asarlar jamlandi.

UO'K: 173.5

KBK: 87.7

ISBN 978-9943-27-487-7

© M.Behbudiy va boshq, «Odob-axloq kitobi». «Yangi asr avlodi», 2019.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY (1875–1919)

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yili Samarqandda tug‘ilgan. Behbudiy haj safarida bo‘lgan chog‘ida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqqan (1899–1900). Sayohat davomida yangi maktab (usuli jadid) ochish fikri mustahkamlanib bordi. Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog‘ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi.



Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903–1904), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo‘lga qo‘yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. «Risolayi asbo-bi savod» («Savod chiqarish kitobi», 1904), «Risolayi jug‘rofiyai umroniyi» («Aholi geografiyasiga kirish», 1905), «Muntahabi jug‘rofiyayi umumiy» («Qisqacha umumiy geografiya», 1906), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar xati», 1908), «Amaliyoti islom» (1908), «Tarixi islom» (1909) kabi kitoblar chop ettiradi.

Behbudiy 1911-yilda «Padarkush» dramasini yoza-di. Bu birinchi o‘zbek dramasi edi. 3 parda 4 manzarali bu asar mazmunan sodda bo‘lib, o‘qimagan, johil va nodon bolaning o‘z otasini o‘ldirgani haqida edi. Behbudiy bu asar janrini «milliy fojia» deb atagan. Abdulla Qodiriy «Baxtsiz kuyov» dramasini shuning ta‘sirida yozgani ma‘lum. «Padarkush» ham janr, ham mazmu-

niga ko'ra yangi o'zbek adabiyotini boshlab bergan asar bo'ldi. Drama Toshkentda 1914-yil 27-fevralda Avloniy tomonidan qayta sahnalashtiriladi.

Behbudiy matbuotimiz tarixida maqolanavis sifatida alohida mavqega ega. Uning hozircha aniqlangan maqolalarining soni 300 ga yetadi. 1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda o'lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyi ish boshladi. 27-noyabrga o'tar kechasi «Turkiston muxtoriyati» e'lon qilindi. Uning g'oyaviy asoschilaridan biri 1919-yilning erta bahorida mamlakatdan chiqib ketayotganida Shahrizabzda Inqilobiy favqulodda komissiya ayg'oqchilari ko'magida Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo'lga olinadi, hamrohlari Muhammadqul va Mardonqul bilan birgalikda Qarshida zindonga tashlanadi va qatl qilinadi.

YOSHLARGA BAG'ISHLANGAN MAQOLALAR

YOSHLARG'A MUROJAAT

Bizni Turkiston va Buxoroda bir sinf muhtaram yoshlar mavjuddurki, hukumat mahkamalarinda tijoratxona, bonka va korxonalar'ga kotib, tarjimon, mol-furush va dallollik yoyinki nasyachinlik ila mashg'uldurlar va bu sinf ahlining adadi bugun Buxoro va Turkistonda minglarchadur. Ana yoshlarga' murojaatdan murod shu sinf ahliidan bo'lgan hamvatanlarimizg'a bir necha kalima arz qilmoqdur. Lutfan so'zimizni tinglasalar, deb iltimos qilamiz. Va kamoli ehtirom ila ul janoblarga' bayon qilarmizki, sizlardan aksaringiz savqi qadar va yoyinki savqi tabiat ila bir nav'i bo'lub, ruscha biroz o'qub-yozmoqg'a va yoinki faqat so'ylamoqg'a qodir bo'lubsiz va bu ozgina zamoniyl bilgu sababidan vazifa olib, engillik va biroz rifohiyat ila umr o'tkarursizki, Tangrim ziyoda etsun!

Va sizlarni ozgina ilmi zamoniyl bilganingiz, albatta, naf kelturdi va alhamdulillah dini mubing'a ham yaxshi mu'taqidsiz va bu ilmiyl zamoniyl e'tiqodingizni buzmedi. Zotan islomiyat shunday bir dini matn va qobili taraqqiydurki, na qadar ilmi zamoniyl ko'b o'qusa, insonni yana dini islomg'a shuncha aqidasi mustahkam bo'lur. Chunonchi, ilmi zamoniyl ko'b o'qug'on Ovrupo ulamolarini(ng) eng nomdor va davlatliklaridan musulmon bo'lub turgonlari jaridaxonlarg'a ma'lumdur. Bas, sabab bo'ldiki, ilmi zamoniyl islomiyatg'a zarar qilmoq nari tursun foyda etar, endi matlabg'a kelayluk.

Muhtaram birodarlar! Siz xizmat qilaturgon doiralarda sizdan katta va sizdan oz ishlaydurgon va siz-

larg'a ish buyuraturg'on kishilar borki, sizdan besh, hatto, yigirma daf'a ziyoda vazifa olur. (Ba'zi bonka va tijoraxonalarda oyinda besh yuz so'm, hatto ming so'm olaturgon kishilar bor va alarni tijorat maktabig'a o'qugoni besh-olti yilginadur.) Muning sababi nadur? Sizning qo'l ostingizda sizdan ko'p ishlaydurgon va qattig' xizmat qilaturgon va yuk ko'tara turgon musulmon va yo o'ruslar borki, sizdan ham oz vazifa olur. Muning sababi nadur? Albatta, munga javob berursizki, bizni ustimizdan qaraydurgonlarni(ng) «ilmi zamoniysi bizdan ziyoda va mehnatkashlarni ilmi bizga ham emas. Mana sabab shudur. Biz ham dermizki, javobingiz durust. Bas, ma'lum bo'ldiki, hozirgi zamon ishlarig'a xoh tijorat va hukumat va san'atxonalarga bo'lsun, kirib vazifa olmoqg'a va ish qilmoqg'a ilmi zamoniyy degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan. Bas, siz muhtaramlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa, din va millatg'a xizmat etsa. (Din va millatg'a xizmat ilm va oqcha ila bo'lur.) Shu ilmi zamoniyni tahsil qilmoq uchun harakat qilmog'ingiz lozimdur. Hamvatanlarimiz mulkini sotib to'y qilganidek siz-da, hatto, lozim bo'lganda mulkingizni sotsangizda o'g'lingizni zamoncha o'qumoqig'a sa'y qilsangiz. To'yga isrof qilinaturgon oqchalarni o'qumoq yo'lig'a sarf qilsangiz! Zamoncha o'qutmoq tariqasidan boshqa maqolada arz qilinur.

«Oyna» jurnali, 1914-yil, 21-son,
390–391-betlar.

MUHTARAM YOSHLARG'A MUROJAAT

Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tavassul va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo'lgan makotibi ibtidoiyya ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot g'ayratlu yoshlarning harakoti maorifparvaronalari soyasida vujudga keldi. Shuning uchun har bir milliy havoyijimizdan bo'lgan mushkul ishlarda yolg'iz yoshlarimizni marja' va umidgoh tutib, alardan yordam so'raymiz (mollari yoki so'zlari ila millat foidasig'a yordamlari tekkan ba'zi ulamou ag'niyomiz ham yoshlar qatoridadurlar).

Muhtaram birodarlar! Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondurki, makotib – taraqqiyning boshlang'ichi, madaniyat va saodatning darvozasidur. Har millat eng avval, makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'payturmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoe va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko'rolmas. «Muborizayi hayot» maydonida mutlaqo mag'lub bo'lur, oyoqlar ostida ezilur, diniy, iqtisodiy ishlarda o'zgalarning asiri bo'lub, bora-bora milliyat va diyonatini ham ho'ldan berur. Ana ushbu yo'llar ila oxiri mahv va nobud bo'lub ketar.

Binoan alayh, yer yuzidagi barcha millatlar o'z bolalarini ibtidoiy tarbiyasig'a va maktablarning har jihat-

dan intizom va akmoligʻa ahamiyat berub bolalarini milliy va diniy ruhda mukammal suratda yetushdurarlar. Aning uchundurki, oʻzga millatlar diniy va milliy hissiyotgʻa molik boʻlub, har ishda diyonat va milliyatni muqaddam tutarlar. Va luzumi kelganda bu yoʻlda mol-u jonlarini fido etmoqgʻa hozir turarlar. Mana, hozirgi urushlar va iqtisodiy tortishlar diyonat va milliyat hissiyoti natijasidir.

Eidi, bizni Turkistonda munday hissiyotlar qayda? Modomiki, biz turkistoniylar ilm-u maorifdan haqqincha istifoda etmaymiz. Fazoyili insoniyadan sanalgan shaylar qanday hosil boʻlur? Chin insoniyat nimadan iborat ekanligini qaydan bilurmiz?

Bizlarda bir fazilat bor boʻlsa, ul ham faqat taasuboti johilonadan iboratur. Demak, bizlar hozirgi iymon-la diyonatimizni yolgʻuz taasub soyasida saqlab turubmiz. Lekin ushbu tamaddun asrida ilmsiz quruq taasub ila ham yashab boʻlmas. Chunki zamonamiz shunday zoʻrki, ozgina fursatda churuk taasubotimizni asosidan qoʻparub tashlaydur.

Shuning uchun zamonaning muhlik asbobigʻa qarshu muqovamat etadurgon bir narsa bor boʻlsa, ul-da maorifdur.

Tahsili maorifni ibtidoiy qismi muntazam maktablar boʻlgan uchun endi biz Turkiston musulmonlarigʻa ibtidoiy maktablarni koʻpayturmoq lozimdur. Tabiiy, maktab muallimsiz koʻpaymas. Hozirda esa Turkistonda muallim oz boʻlub, muallimlarga ehtiyojimiz shadiddur. Chunki bu kunlarda yangi maktab havaskoroni kundan-kun ziyodalashmoqdaturki, muallimlar

mavjud bo'lgan taqdirda har yil Turkistonda yuzlarcha maktab ochmoq mumkindur.

Endi ushbu mushkul hollarni nazari e'tiborga olub, Turkiston yoshlari muallim yetushdurmoqning chorasini topmoqlari lozimdur. Agar bukungi yoshlarimiz ushbu muhim vazifa va xizmatni ifo etmaga qasd eta boshlasalar, muallim yetushdurmoqni chorasi ham topilsa kerak. Chunonchi, Turkistonda muallim chiqormak uchun dorilmuallimin bo'lmasa ham, har shaharda usuli ta'limdan xabardor bir-ikki nafar muallim, albatta, bordur. Ana, muallimlikka tolib kishilarni alarning huzurig'a yuborub, 3-4 oy zarfida usuli ta'limdan xabardor qildurmoq mumkindur. Agar boyafarz, ushbu xizmatni muallimlarimiz iltizom qilmasalar, ul holda muallimlikka havaskor yoshlarni biroz zahmatlik bo'lsa ham, to'g'ridan-to'g'ri Toshkanda Munavvar-qori janoblarining maktabig'a yubormoq kerakdurki, mushorun alayhning munday toliblarni maalmamnuniyat qabul etmoqlarig'a amindurmiz. Ishta, muhtaram qarindoshlar, millatimizning tilagi va eng zo'r ehtiyoji ushbu shaylar ediki, nazari oliylarigiza arzu taqdim etduk. Endi g'ayrat sizlardan, tavfiq Ollodandur.

«Oyna» jurnali, 1914-yil, 41-son, 970-972-betlar.

ASARLARIDAN NAMUNALAR

IKKI EMAS, TO'RT TIL LOZIM¹

Biz turkistoniylarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylashur. Forsiy bo'lsa, madrasa va udabo tilidur. Bukung'acha Turkistonni har tarafindagi eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasr kitoblari ta'lim berilib kelgandur.

Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrislarni taqriru tarjimalari forschadur. Bu qoida, ya'ni dars kitobi – arabiy, muallim – turkiy, taqrir-u tarjimani forsiyiligi xila ajibdur.

Turkistonda qadimdan beri bu uch til joriydur. Chunonchi, eski yorliqlardan ma'lum bo'lurki, Turkistonda eski amir va xonlarni amri farmoyish va muborak nomalari doimo turkiy, yana ayni zamonda dorulqazou adabiyot tahrirlari forsiy yozilar ekan. Bu qoidalar zotan yaxshidur. Ammo bora-bora yoinki kela-kela usuli ta'lim va kitobatg'a ehmol paydo bo'lub, hozir bir darajag'a kelibdurki, ahli savod yoinki ahli ilmni yuzdan to'qson to'qquzi bu uch tilda mukammal tahriri adabiyg'a molik yo'qdur. Ya'ni usuli ta'lim va tadriski isloh etmak kerak. O'tayluk.

Turkistonning Samarqand va Farg'ona viloyatlarinda forscha so'ylayturgan bir necha shahar va qishloqlar bordur. Buxoro hukumatining tili forsiydur.

Fors shoir-u udabosi asarlari qiyomatg'acha lazzati ketmayturgan xazinayi ma'naviydurki, mundan foydalanmoq uchun ovrupoyilar milyardlar sarf etarlar.

¹ Maqola qisqartirilgan holda nashrga tayyorlandi (*muhar.*).

Bizg'a saodatdurki, turkiy va forsiyni tahsil-siz bilurmiz. Har turkni forsiy va har forsn-i turkiy bilmog'i lozimdur.

Forsiy bilgan kishi Firdavsiy, Bedil, Sa'diy, «Masnaviy»dan qanday lazzat olsa, turkiy bilganlar Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylardan, yana Tolsto'y, Jul Vern va ulamoyi zamoniy asarini turkiy tarjimasidan lazzat shunday oladur.

Farang va rus donishmandlarining asarlaridan foydalanmoq turkiy yo rusiy va farangiy bilmak ila mumkin bo'lur, na uchunki bugun usmonli, Kafkaz va Qazon turklari zamona ulamosi asarini turkiyg'a tarjima qilib, ko'paytirgandurlar, ya'ni turkiy bilgan kishi zamonni bilur. Turk tilig'a har bir yangi va naf'lik kitoblar barcha tilda tarjima bo'lgandur. Arab madaniyati yunoniy Suqrot, Buqrot, Falotunlardan foydalanganidek, zamoni hozira madaniyati Tolsto'y, Jul Vern, Kepler, Kopernik, Nyutonlardan foydalanur. Maqsaddan uzoq tushdik.

Bizg'a lozimki, o'z nafyimiz uchun ruscha bilayluk, hukumat maktablarida o'quylik. Davlat mansablarig'a kirayluk. Vatanimizg'a va o'z dinimizg'a xizmat etayluk. Musulmon bo'lub turib taraqqiy qilayluk. Bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto, dini islom va millatga xizmat ilmsiz bo'lmaydur. Masalan, bugungi «podsholik duma»g'a o'z din va millatimiz nafyig'a so'zlamoq bizlar uchun mumkin bo'lur. Ammo anda borib so'ylaguvchi kishi bizg'a yo'q. Anda borib nafyi bir o'n sana o'qumoq kerak, zamondan, qonundan xabardor bo'lmoq kerakdur.

Xulosa, bugun bizlarga to'rt tilga tahrir va taqirir etguvchilar kerak, ya'ni arabiy, rusiy, turkiy va forsiy.

Arabiy til din uchun na daraja lozim bo'lsa, rusiy ham tiriklik va dunyo uchun lozimdur.

«Oyna» jurnali, 1913 yil, 1-son, 12–14-betlar.

EHTIYOJI MILLAT

«Boshqa millatlarga qaralsa ko‘rilurki, muntazam maktablari bor va avval maktabda diniy ilm ustida dunyoviy ilm va fanlar ham o‘qilur. Chunki dunyoda turmak uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo‘lur.

50 sana muqaddamgi zamonda, biz turkistonlilar yakka va tanho yashab, boshqalar ila muomala va munosabatimiz yo‘q edi. Endi zamon o‘zgarib, boshqa millatlar ila maxlut bo‘lduk, shari‘at va o‘z urfimiz ustiga qonun va Ovrupo odatiga itoat qilmoqqa majburmiz. Ammo qonun va Ovrupo odatlarini bilmaganimiz uchun boyimiz bo‘lsun, qozi va milliy hukamomiz va aholimiz bo‘lsun ko‘b tashvish va zarar ko‘rar. Zamoni sobiqda faqat shari‘at bilmoq kifoya etardi. Endi qonun va zakunni bilmoq ham lozimdur.

Shari‘at ilmi madrasalarga, qonun ilmi Rusiya dorilfununlariga o‘qilur.

Dorilfununga kirmoq uchun, avvalo, o‘n sana gimnaziyaga o‘qumoq kerak. So‘ngra to‘rt sana dorilfunun o‘qub andan huquqshunos, yurist, ta‘bir joiz bo‘lsa, zamona faqihi bo‘lib chiqar.

Sud mahkamalarinda, davlat doiralarinda kirib, har huquqshunos o‘z muvakkili va o‘z millati va uz toyifasi va o‘z Vatani va o‘z davlatining nafyiga so‘ylashur, mudofaa qilur.

Masalan, davlat dumasinda biz Turkiston musulmonlaridan shunday huquqshunos vakil bo‘lsa, bizni

din va millatimiz nafyiga harakat qilur. Ammo shunday odam bizda yo'q.

Davlat dumasi nari tursin, sudga va rasmiy mahkamalarga kirib, bizni mudofaa qiladurgon kishimiz yo'q. Boshimiz og'risa duxturga boramiz, ammo dardimizni aytmoqga til yo'q. O'zimizdan duxtur yo'q.

Ikkimiz bir-birimiz ila nizo qilamiz. Ketamiz zakunchiga, so'ylamoqga til yo'q. Oradagi odamlar yana bizga firib berar, pul berarmiz, yugurarmiz, yana ishlar barbod, oxiri yo'q.

Imorat qilmoqchi bo'lsak, plon-loyihasi lozimki, injinerga muhtoj bo'larmiz. Ammo biz hanuz «muhandis» ismini bilmaymiz.

Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa ko'rib tijorat etmoq lozim. Ilm tijorat bila turgan buxgalterlik hisobi yuritadurgon boylarimizga kerak, ul ham o'zimizdan bir nafar topilmaydur.

Hammollikdan bu ishlar yaxshi bo'lsa kerak. Bir necha boyvachchani bilarmanki, eng qattiq xizmatlarga giriftor. Sababi nadur – ilmsizlik, xolbuki alarni «to'yi»ga atosi 5 ming so'm sarf etib edi.

Turkiston mevasi, donasi, toshi, tufrog'i, eski nimarsalari Ovrupo bozoriga ketar. Muni Ovrupo dallollari kelib oz bahoga olib ketar, mehnatni biz qilurmiz, foydani ular ko'rar. O'z nimarsamizni Ovrupo bozoriga eltib, yaxshi bahoga sotadurgon bizda bir odam yo'q. Azbaski, Ovrupo ila savdo qiladurgon kishini (o'zi) avval un sana zamona ilmi o'qumog'i lozim.

Bizda shoxi, adras, beqasam, alocha... boflklar bor. Agarda bir nafar texnik va muhandisimiz bo'lsa bu dastgohlarni isloh etar, aholi obod bo'lur. Valloh, yaqin vaqtda «doka» bofillarimizdek zoye bo'lib ketar. Chunki Ovrupo yangi asbob ila mundin yaxshi qilib chiqorur.

30 sana muqaddam Samarqandni Yomini mahal-lasinda 300 alochabof ishchi bor edi. Al-on 30 nafar yoʻq 10 sana soʻngra tamoman mahv boʻlur.

Xulosa, maktabimiz, dukonimiz, korxonamiz, mad-rasamiz va har nimarsamizni zamoncha islohi lozim-dur. Valloh, har nimarsa qoʻldan ketar, bizda muzdur-likdan boshqa hech ish qolmas. Bir uskuna, doʻkon va saroyini ishlatmogʻa ham ilmi zamoniyy va zamona shumligini bilmoq lozim.

Valloh, bizdan dunyo ilmini yaxshi bilaturgonlarga mulk va asbobimiz oʻtar va oʻtub turubdur.

Qisqa qilaylik, boshqa millatlarni boylari faqira va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soladurlar, faqir va yetimlarni oʻqumogʻi uchun vaqf «istipendi-ya»lar tayin qilur. Boshqa millat miliunerlari maktabi ila istipendiyasi-la, idora qilaturgon gazet va majalla-si-la, bino qilgan dorulujizin (ayollar universiteti), bar-po qilgan jamiyati xayriyasi-la faxr qiladur.

Biznikilar juft oti-la, arobasi-la, toʻyi ila va... la faxr etar. Hatto, oʻz oʻgʻillarini oʻqutmaydurgon boylar bordur.

Bu ketishni oxiri yamondur, oʻqumoq, oʻqutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi za-moniyy meros qolsun.

Butun Turkistondan oʻn boy yilinda ming soʻmdan bersa, 25 bola uchun Toshkanda idiniy va zamoniyy bir «pansiun» layli va nagori 5 mukammal maktab bino boʻlub, har yil hukumat maktabinda 50 bola tayyor-laydur. Oʻn yilda bulardin... 200 muhandis, doʻxtur, huquqshunos, muallim, texnik, zamona tojiri, valloh... chiqar va bizni zamon odamlari qatorida qoʻyarlar va davlat ishiga kirarlar. Ruslar ila bizni hasan imtizojla-rimizga xizmat qiladurlar.

Al-on millatimiz boylardan shuni kuz tutar, xaloyiqni barbod etaturgon to'ylarni emas. Oh, bu so'zlarni tushunaturgon boylar bizda yetushganmi?

«Samarqand» gazetasi, 1913-yil 12-iyul

MILLATLAR QANDAY TARAQQIY ETARLAR?

Millatlar taraqqiyiga bir necha sabablar bo'lub, tub sababi ulamo ila ag'niyoning hamiyyat va g'ayratlaridur. Taraqqiy qilg'on va yo endi taraqqiy qilguvchi millatlar ahvoliga diqqat qilinsa, mazkur ikki sinf muhtaramni o'z millatlariga so'z va oqcha ila xizmat etganlari favran zohir bo'lur.

Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o'z millatining oyandasi (kelajagi) uchun yo'l ko'rsatur, mashvarat berur, millat axloqining islohi uchun masjidlarda pand va nasihat berur, maktab va madrasalarda dunyo va oxiratda kerak ilm va fan, ta'lim berarlar, kitob va gazet ila ummatni muslihi (islohi) uchun bahs va muqolamalar kilurlar.

Taraqqiy qilguvchi millatlarning ulamosi zamondin boxabar bo'lib, o'z millatining «masolixa zamoniyya»si uchun sa'y etar, millatni peshraftig'a oqcha ila, g'ayrat ila iona qilmoqni millat boylariga taklif etar, tashviq va taxris etar.

Xulosa, har millatni ulamosi, ahli qalami millat uchun so'ylar, yozar va xavoiji milliia va zamoniyani o'z millat mansubasiga bildirarlar. Zamona ag'niyolari o'z millatlarini zamoniycha kerakligi yo'linda oqcha sarf etarlar, masalan, yangi usulda zamonaviy maktablar bino etib, zamoniycha odam tayyorlamoq uchun

harakat etarlar. Hukumatni o'rta va oliy maktablari-ga o'qiydurgon o'z millat bolalariga ionat etarlar. Va bechora hamjinslarini diniy va dunyoviy maktablariga berub, o'z xarajatlari ila o'qutadurlar.

Rus, armani, yahudiy va boshqa Rusiyadagi vatan-doshlarimizni boylari doimo o'z millatlari uchun katta xayr va ehsonlar qiladurlar, inchunin, Qafqoz, Qirim, Qozondaki musulmon birodarlarimizni boylari, ula-mosi va ahli qalami, sohibi fikri o'z birodarlarira mol, oqcha, qalam va ilm ila ko'b iona qiladurlar.

Ammo bizni Turkistonda bu ishlardin so'ylamoqqa hanuz navbat kelgan yo'q. Har kim o'z nafyi va o'z shaxsiy ishi ila sargardon, umumiy yoyinki diniy va milliy ishlarni oyandasi uchun, millatni zamona odam-laridek taraqqiy etmog'i uchun, xaloyiqni isloh axloqi uchun g'am tortuvchi va harakat etguvchi yo'qdir.

Bir karra diqqat qilib, mahalla-ko'y va qishloq xalqlariga qaralsun. Avomlik, beilmlik naqadar ko'pay-gan. Biz musulmonmiz. Musulmonlikg'a ilm lozim, amal lozim. O'qumoq kerak, nima uchun boshqa mil-latlarda yuza bir nafar besavod yo'q ekan, biza yuza bir nafar savodlik yo'q?

Boshqa millatning yosh bolalari maktabda, lekin biz-niki hammollikda va gadoylikda. Boshqa millat ulamo-siga tobe ekan, bizni ulamo bil'aks avomga tobedur? Buning oxiri xarobdur. Yigirma, o'ttiz sana so'ngra yana yomonroq bo'lur, musulmonlik, ilm va odob ila qoim. Millat axloqi, fazl va hunar ila boqiy qolur.

Bugun islohi maktab-madrasa, ya'ni islohi millat-ga qo'shish qilinmasa rabi asr so'ngra diyonat bar-bod bo'lur va aning javobi mas'uliyati bugungilarg'a qolur, bu mas'uliyatdin qutulmoq uchun millatni diniy ilm va dunyoviy ilm-fanlar o'qumoq uchun targ'ib qil-

moq kerakdur. Diniy ilm va fanlarning o'zni maktab va madrasadur.

Dunyoviy fanlarni o'zni hukumat maktablaridur, ikkisiga o'qumoq uchun oqcha lozimki, ul oqcha boylarni kissayi hamiyatidan chiqsa kerak. Har zamon uchun asbobi isloh va taraqqiyi ionat boshqarur. Millatg'a ionat etmoq uchun, islohi maktab va mudarris uchun, rusiy maktablariga bola tayyorlamoq uchun, dehqon va san'atkorlarni rivoj bermoq uchun «hamiyati xayriya», «nashri maorif», qiroatxonalar, fundlar, kurujuklar, jaridalar, majallalar, nashriyotlar... kerakdur. Millatlar taraqqiyisi shul ila bo'zur va bu ishlarga oqcha kerakdur, oqcha boylarda va afrodda!

*Maro ba tajriba ma'lum shud daro har kor,
Ki qadri mard ba ilm ast qadri ilm ba mol.*

Ma'nosi:

Menga tajribadan ma'lum bo'ldiki, odamda qanchalik ilm bo'lsa ham ilmning qadri moldadur.

«Samarqand» gazetasi, 1913-yil 30-iyul

TANQID - SARALAMOQDUR

Majalla va jaridalarning katta bir xosiyati tanqid, ya'ni saralamoqdur. Sarroflar aqchani, tujjorlar matoni saralaganidek, muharrirlar ham umumiy hol va maishatga taalluq nimarsalarni saralaydurki, boshqa so'z ila «tanqid» atalur. Masalan, yangi maktab va muallimlari va anda o'qulaturgon kitoblarni ma'nan taftish etib, andagi nuqsonlarni bayon etmoq tanqidur. Taarruz (hujum) va dushmanlik emas.

931509

Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

Agarda shaxsiyatga toʻqunmasa. Ammo bir muallim yo mudarris va muharrirni ishidan, shaxsiyatidan xaloyiqgʻa zarar kelsa, andan ham bahs va tanqid yozmoq shaxsiy boʻlmaydur.

Tanqid yangi yozilgan kitob, jarida va majallalarga-da joriy va nofeʻdur. Masalan, bir muharrir va yo muallimni sahvini va oʻz xizmatiga beparvoligini va lozim qoida va tartiblarga amal qilmay, ommaga zarar kelturgʻonini tanqid etmoq boisi isloh boʻlur. Bizni Turkistonda yangi maktablar xeyle bordur. Yangi risola xeyle bosilib turubdur. Jaridalarga maqola va shiorlar oʻqulub turubdur. Ammo hanuz tanqid davriga yetushganimiz yoʻq. Ittifoqo, tanqid shaklinda bir nima marse yozilsa, bizlarga qattiq tegar.

Yozganlarimizni buzuqligi va fikrimizni xatoligi, ishimizni noqisligini biror kishi koʻrsatsa, achchigʻimiz kelur. Va ul odamni dushman koʻrub, shaxsidan nafrat va fikriga norozilik bayon etarmizki, bul bizni yangidan ishga boshlaganimizdan, boshqa til ila noqisligimizdandur.

Biz eskilarni ayblaymizki, alarga islohdan soʻzlasak, chiday olmaydurlar. Ammo oʻzimizning maktab, risola, tahrir va maslakimizni bir kishi tanqid etdimi, chiday olmaymiz, diqqat ila munaqqid soʻzini tinglamaymiz. Munaqqid bizni toʻgʻrimizga ming soʻz ila bayoni muddao etar ekan, biz oni ichindan oʻn soʻzini nomaʻqul topib, yuziga urarmiz. Va yoyinki vajhsiz oning soʻzini raddu oʻziga eʻtiroz etarmiz. Agarda ul desaki, man sizga bir ming kalima nasihat yo tanqid soʻyladim, durust, oʻn kalimasi sizga bejo ekanki, qaytib oldim, 990 kalimasiga na dersiz?

Na javob berarmiz! Tanqidni koʻtarolmaganimizga toʻgʻrisi, hanuz tanqidga loyiq boʻlmaganimizni misoli.

Kafkazli sayyoh Muhammad Sayid afandi Turkiston maktablari to'g'risinda «Oila va mo'tabaran iqbol» jariasiga tanqid yozib ediki, aning javobi yalg'uz quruq bir e'tiroz (prutest) bo'ldi. Ammo oning yozg'anig'a javob tushmas. Ikkinchi, «Adab va tarbiyat» unvoni ila yana sayyoh mazkur «Oyna»ning 27-28-29-30 raqamlarinda maktab to'g'risinda voqe'i dalillari ila ba'zi nimsalar yozdiki, mo'tabar «Sadoyi Turkiston» rafiqimiz 11-adadinda Muhammad Sayid afandi maqolalarini xilofi adab va tarbiya deb, oni yozilg'onig'a sohibi maqola va idoraga izhori norizolik aytib, mazkur maqolalarni «ahamiyatsiz» der. Hamda «muallimlarning xotirin qoldiruv» bo'larmish. «Oyna» kamoli ehtirom ila «Sadoyi Turkiston» rafiqimizga arz etarki, mazkur maqolalar boshdan oxirgacha ahamiyatsizmi? Agarda ahamiyatligi bo'lsa, iltifotga olmaganlariga taassuf etarmiz. Va maqola ichidan ikki-uch xati mizojga nomuvofiq tushgan uchun afularini tilaymiz. Takroran, aytarmiz: biz hanuz tanqidga layoqat paydo etganimiz yo'q. Yana qadima kasallarimizdan – «norizo», «xotiri qolmasunu...» illatlari hanuz ketgan yo'q.

Muhammad Sayid afandi ta'birincha, munday ke-tabersa, «qiyomatdan ming yil so'ngra-da, Turkistonga taraqqiy yo'q». Agarda, «xotir qolmasun» qoidasi maslak tutulsa, matbuotdan qalam tortmoq kerak. Chunki haqiqiy matbuot hech kimni xotiriga qaramas. «Xotir qolmasun» kasali biz musulmonlarni barbod etdi.

Umumiy hollardan bahs qilindimi? Mutlaq har bir masalaga bir necha kishini xotiri qolur. Islohi madoris va dorulqazo desangiz, ulamoni xotiri qolur. Islohi rasm bazm desangiz, avomni xotiri qolur. Islohi savome (ibodat qiladigan) desangiz so'fi, shayxu esh-onlarni xotiri qolur. Islohi foydaxo'rlik va tijorat desan-

giz, boylarni xotiri qolur. Endi islohi makotibi jadida deyilganda, muallimlarni xotiri qolsa, bas muharrirlar uchun sukutdan boshqa ish qolmaydur.

Shuni-da aytmoq kerakki, Muhammad Sayid afandidan yoyinki idoradan birgina «ba'zi» kalimasi ma-at-taassuf qolibdurki, bu ba'zi vajhdan ba'zi muallim afandilardan idora afu istar.

Boqi: Muhtaram «Sadoyi Turkiston»ga salom.

«Oyna» jurnali, 1914-yil, 32-son

BIZNI KEMIRGUVCHI ILLATLAR

...To'y va ta'ziyag'a sarf qilinaturgon oqchalari-mizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, an-qarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimizda obro'y va rivoj topar...

Bizni kemirguvchi illatlar deganda, zaxm-u maraz-nimi gumon etarsiz? Yoyinki, sil, (o'pka sili) va maxav-liknimi dersiz? Yo'q, andan ham yamonroq va andan ham jonxarosh (jon azobi), bevoya, xonavayron va g'arib etguvchi bir dard, biz – turkistoniylarni shahri va qishloqi yoyinki yarim madaniy, yarim vahshiy sinf-larimizg'acha istilo etib, butun tirikligimizg'a sorilgan va bizni inqirozg'a va tahlikag'a va jahannamg'a yu-malaturg'on to'y, azo ismindagi ikki qattol dushmanni derman.

Atomizdan mehribon Tangrimiz jalla va a'lo Qur'oni Karimda «Lo talaqqu bi yadikum ala tahlikkatih», ya'ni o'z qo'llaringiz ila o'zingizni tahlikaga otman-giz, der. Biz bo'lsa, badbaxtona va Xudoning amrig'a bo'yun qo'ymasdan kofirona bir suratda to'y va azo degan, yo'q bo'lusimizg'a sabab bo'lgan odatlarga

bor-u yo'qimizni sarf va isrof etarmiz. Yilda ikki oy navro'zi kofiri uchun sayr etarmiz. Bir oy muqaddam Samarqandni Panjakent qasabasidagi navro'z sayrig'a mushak-fishang otishdan uchgina kishi o'lub, o'ndan ziyoda kishi majruh bo'ldi. Ko'pkari va uloq chopmoqlik odati ma'lunonsig'a har viloyatdan har sana yuzlar ila kishi oxiratg'a ko'char, na qadar kishi majruh va ma'yub bo'lar. Ko'p kishilar sayr va ko'pkari shumligi ila ishdan va ziroat vaqtidan qolur. Uyig'a yo'q, ho'kkuzi va sog'ar siyiri yo'q ekan, bir necha yuz so'mg'a ot olib va har kuni anga hindek parastish etib, har kun bir so'm sarf etar, na uchun? To'y va sayrg'a ko'pkari chopmoq uchun. O'n-yigirma chaqirimg'a to'y bo'ldimi, har kim ishini, dehqonchiligini qo'yub, o'tlanib ko'pkariga ketar. Dehqon uchun oltundan aziz vaqt favt bo'ldi-ketdi. Eski birgina kun so'ngra yig'ilgan uchun yog'inga qolib, ba'zi xirmonlar chirib ketar.

Ma'lum bir shaharda yahudiylar ba'zan o'luklarini oqshom elitib ko'marlar. Na uchun? Kunduzi ishdan qolarlar. Biz bo'lsa, o'luk va to'y uchun haftalar, hatto, oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shoreyi a'zam, payg'ambari akram sallolohi alayhi vasallam hazratlari o'lganni tez ko'mub va ko'mgandan so'ngra tez tarqalib, ishg'a ketmoqg'a va o'lukxona xalqini uch kundan ziyoda ta'ziya tutmasg'a, qaro kiymasg'a, kir, falokat bo'lmasg'a amr etarlar. Ey xalq! Ey musulmonlar! Biz na uchun Xudo va rasulni so'zig'a va o'zimizni na'fimizg'a amal qilmaymiz? Biz devonami? Biz taklifdan tashqarimi (taklif – bu yerda, insoniy burch, vazif ma'nosida), Xudo uchun so'ylangiz. Biz nima?

Shariat kitoblaridan «Faroiz, ya'ni Xudoni buyrug'i degan kitoblarg'a: «O'lukni molidan avvalan o'lukg'a kerakli muvofiq sunnat va isrofsiz kafan qilib, dafn

qilmoqg'a sarf qilinsun, so'ngra qarzi berilur. So'ngra ortgan mollarni – varasasig'a muvofiqi shariat Taqsim qilinib berilur», – deyilgan ekan, biz bil'aks kafandan so'ngra qarzga bermay va hatto, sag'ir va benavo xotunlarni merosini yirtish, azoyi, sadaqa, xayrot, bilmayman, nimalar ujrasi deb, qarzdan vorisidan ilgari taqsim qilib olarmiz. Besh-olti ma'raka va xudoyi, 8–10 juma oqshomi deb butun mahalla va qishloq xalqig'a palov berarmiz. Ba'zi bir bechora sag'ir va mushtipar ayollar merosdan va haqlaridan noqis olurlar. Ba'zi qarzxohlarni haqqi xudoyi va xayrot, noxudoyi va sharrot sababi ila kuyub ketar. Bechora o'lukni zimmasi qarzdan qutulolmay qolur. Xudo uchun aytingiz, bu xayrotmi, bu xudoyimi? Besh-olti kun so'ngra bu xudoyi va xayrotlar uchun varasani haqqi bo'lgan mol va yerlar sotulur. Berilgan dangga adras, a'zoyi va g'anilarni olgan yirtish va sadaqalari uchun berilur. Endi bechora varisa darbadar, ham otadai, ham vatandan ayrildi-ketdi. Bir o'rtahol, bir bechora faqir o'lar. Oning g'ani yaqini o'lukni egasi bo'lub, varisa molini «obro'y» etarman, deb isrof va barbod etar. Natijada bechora varisa darbadar. Ey, uying obod, obro'y qilg'uvchi! O'lgan ul, sanga nima? San, g'ani, o'z o'lukingg'a obro' qilgoning bas emasmi?

Astag'furillo, subhonollo. Bizni qilaturgon aqlsizligimizni qaysi millat qilur? Nikoh, xatna, bu ikki balo shundog' qattiq bir illatki, o'lmaguncha qutulub bo'lmaydur. Shaharlarda o'rtahol, ya'ni o'turarg'a xona va bog'i bor bir kishi nikoh uchun ikki ming so'm sarf etar va o'g'ul xatnasi uchun hech bo'lmaganda ming so'm. Har bir benavo kishi bu mavridlarga 200 so'mdan 1000 so'mgacha sarf etar. Boy va zo'raki boylar esa besh ming, o'n minglab sarf etar.

Oxiri nima bo'lur? Nima bo'lur deysiz? Ota-bobosidan qolgan mulk va vatanini o'z ixtiyori ilan zo'raki boyni o'zi o'lgandan so'ngra bir yahudiy yo bir armani ajnabiyg'a sotib, to'y va ta'ziya qarzini berar. O'zi sotmaganda sudg'a sotilur. Mana, yuqoridagi sarlavhada «Bizni kemirguvchi illatlar» degan odatlarimiz, shu to'y va ta'ziya ismindagi devonaligimizdan iboratdur.

Bir do'konchi, bir gulkor, bir faqirhol, bir kosib uchun bu to'y va ta'ziyalar o'lumdan qatig'durki, muning uchun bechora har kun o'lur. Har kun o'lgon ilada qutulmas. O'zidan so'ngra ahl-u ayolig'a bu yo'qsullik va bu musibatni meros qo'yar. Xo'b, yaxshi, o'z molini to'y va ta'ziyag'a isrof etsun, barbod etsun, ko'zi chiqsun. Hay, bonka oqchasini, birov pulini na uchun barbod etar. Bu devonalikni u tarafi emasmi? Bu hol ila 20–30 sana o'tsa, yer va havlilar ajnabiy-larg'a o'tub, aksar xalqimiz gadoylik darajasig'a inur. Ellik sana muqaddam yer sotilsa, bir musulmon olardi, endi boshqalar olur. Mana, endi biz shu hol ilan yana yigirma–o'ttuz yil o'tkarsak, xalqimizni yarmidan ziyodasi vatansiz, yersiz darbadar bo'laturgoni ma'lum va oshkordur. Bir havlida, bir ro'zg'orda, masalan, ikki o'g'ul, ikki qiz bor. Ato o'lsa, ani moli to'rt bo'lunur. Alarni har birig'a nikoh va xatna va o'lum mavridlari muqarrardur. O'zlarini zamoncha ilmi va hunari yo'qki, konturg'a, mahkamag'a, bonkag'a kirib vazifa olsa. Endi loiloj attorlik va yo baqqollik va u bo'lmasa, muzdurlik va mardikorlik qilishi lozim kelib, bu ishlar-dan faqat alarni qorni to'yadur. Ortdurmoqqa yo'q. Muning ustig'a to'y va ta'ziya degan dahshatlik balolar kelgandan so'ngra bu aziz oila va ro'zg'org'a yonib kul bo'lmoqdan boshqa iloj yo'qdur. Ellik sana muqaddam bir qarish yer bir pul ekan, endi bir oltun va kelarg'a

yer oltung'a ham topilmaydur. Qirim va Qafkoz musulmonlarida bizlardek yer qadrini bilmaslar ekan. Endi Qirimda bir tanob (600 sajin) yer o'n ming so'mdan o'ttuz ming so'mg'achadur.

Biz bir tanob yerimizni 200 so'm sotib to'y qilmoqchi bo'lsak, «yerni xo'b pulg'a urdum» deb majnunona shodlanurmiz. Insonni bu qadar ahmoqligi ajibdur. Bizg'a lozimki, to'y va ta'zivalarni kichik qilib va holi-mizcha harakatda bo'lub, kelar zamonamizni o'ylayluk. Valloh, xor-u zor-u munqariz bo'lmoq ertag'a of-tobni chiqishidek muqarrardur.

Samarqandda bir mahalla borki, aksar xalqi faqr-u zaruratdan, to'g'risi, aql noqisligidan havlilarini pulg'a qiziqib yahudiylarg'a sotgan uchun mahallag'a oz musulmon qoldi. Mahalla maktabi yo'q bo'ldi. Masjidida yaqinda yo'qolur. Mana, bizni aqlsizligimizni oxiri va isroflarimizni xotimasi dinimizg'a futur kelmoqig'a sabab bo'lur. Din uchun, masjid va maktab uchun aqcha, sarvat, davlat, somon kerakdur. To'y va ta'zi-yag'a sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo'lig'a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o'zimiz-da, dinimizda obro'y va rivoj topar. Yo'q, hozirgi holimizg'a davom etsak, din va dunyog'a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo'lmaydur.

«Oyna» jurnali, 1915-yil, 13-son

«Padarkush»dan bir monolog

...Ilm va tarbiyasiz bolalarni(ng) oqibati shuldir. Agarda bularni otasi o'qutsa edi, bu jinoyat va padarkushlik alardan sodir bo'lmas va bular ichkilikni bo'yla ichmasdi, xun beg'ayri haqqin qilmas edi. Umri bori-cha Sibir va bandg'a va qiyomatg'a jahannamg'a qolmas edi. Agarda bular ichkilik ichmasa edi, dunyo va oxiratda ilalabad azob va mehnatda qolmas edi.


Oh, haqiqatda boyni o'ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyg'a giriftor qilgan beilmlikdur.

Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqr-u zarurat va xorliklar hamma-si ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidur. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo'lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o'qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxkliklar oramizda doimo hukm-farmo bo'lsa kerak. Bu ishlar-ni yo'q bo'lmog'iga o'qumoq va o'qutmoqdan boshqa iloj yo'qdur.

Ollohu taolo boshqalarga hamisha ibrat va sizlarga sabr bergay...

(Tashriflar: umumiy 19, bugungi 1)

ABDURAUUF FITRAT (1886–1938)



Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1886-yil Buxoroda ziyoli oilasida tug'ildi. 1909–1913-yillarda esa adib Turkiyada, Istanbul dorilfununida tahsil oladi. U yerda zamondoshlari bilan birgalikda «Buxoro ta'limi (umumiy) maorif jamiyati» ni tuzadi.

Fitrat 1919-20-yillarda Afg'oniston hukumatining Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimon, «Turon», «Buxoroyi sharif», «Oyina» kabi ko'pgina gazeta va jumallarni tashkil etishda bosh-qosh bo'ldi, Turkistonda til, adabiyot, san'at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug'ullangan «Chig'atoy gurungi» tashkilotiga rahbarlik qildi, Buxoro xalq Respublikasining bir qator rahbar lavozimlarida ishladi. Buxoro amiriga berilgan ultimatum ham uning qalami bilan yozildi.

1923–1924-yillarda Fitrat ma'lum muddat Sankt-Peterburgda, so'ngra Moskvada yashadi. Unga o'zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo'lib professor ilmiy unvoni berildi. Adib ilk aspirantlarga rahbarlik qildi, Buxoroda musiqa maktabi ochdi. O'smirlik yillari u Mijmar («cho'g'don») taxallusi bilan, so'ngra Fitrat («tug'ma iste'dod») taxallusi bilan ijod qildi.

Fitratning «Muxtasar islom tarixi» (1915), «Ro'zalar», «Shaytonning tangriga isyoni» (1924), «Qiyomat» kabi asarlari diniy mavzuda yozilgan. Qomusiy bilim va badiiy iste'dod egasi bo'lgan Fitrat 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan.

NAJOT YO'LI

(Asardan parcha)

Ahvolimiz bayonida

Hayotning (yakkama-yakka) kurash maydonida va jahon xalqlari orasida islom olamining farsax-farsax¹ orqada qolganligini bayon qilishga ehtiyoj yo'qdir. Biz turkistonlilar esa boshqa islomiy jamiyatlarga nisbatan dunyoyi jahon parishonlikka tushib, yo'limizdan adashganmiz. Ajabo, bu parishonlikning sababi nedir?

Turkistonlilarning aksariyati bu savolga javob berishda ikki toifaga bo'linadilar.

Millat va vatanlari uchun qayg'urgan bir toifa bu parishonlikni ilmsizlik va tanballik oqibati deb biladi.

Haqiqatan ham, tushkunlik va xarobligimizning sabablaridan biri ilmsizlik va harakatsizliqdir.

Lekin bularning ham asl sababi, ana o'sha tushkunligimizning asosiy sababidir. Ajabo, bu sabab nima ekan?

Hozir o'zimizning (shu kungi) holimizni tadqiq qil-sak. Bir vaqtlar mamlakatimiz madaniyat quyoshining mabdayi, ma'rifat daryosining manbayi sifatida tanil-gan edi. Forobiylar, Buxoriylar, Abu Ali ibn Sinolar, Ulug'beklar mamlakatimizni jahon sahnasiga chiqar-gan edilar. Bizning mamlakatimiz minglab mashhur olimlarni chor-atrofga yetkazib berib, qo'shnilarining ham sharafini ovoza qilib, dunyoga taratgan edi.

¹ Farsax – uzunlik o'lchov birligi, 1 farsax taxminan 7 km ga teng.

Alloh bergan ne'matlarning eng buyugi AQLdir, shu aql odamlarni maxluqlar orasida mukarram va musharraf qilgandır.

Xudovandi taborak va taolo bizga aqlni haqni botildan, manfaatni zarardan ajrata olish uchun, nimayiki haq va foydali bo'lsa, ixtiyor etib, nima-yiki zarar va botil bo'lsa, tark etish uchun bergan. Bas, sen aql-u donishning rahnamoligida foydaga erishsang, u foydani (aql bergan) Allohdan ko'r. Zero, foyda aql mahsuli bo'lib, uni Alloh senga baxshida etgandır. Agar aqlga xilof yo'lga yurib zarar ko'rsang, u zararni o'zingdan ko'r. Zero, sen Alloh rahnamo qilgan aqlga muxolif bo'lding va shundan zarar topding.

MUQADDIMA

HAYOT VA HAYOT G'OYASI

Koinotning hayotdan iboratligiga hech shubha yo'qdir. Hayot bo'lmasa, boshqa biror narsa ham bo'lmaydi. O'zi koinotning asl binosi ham hayotdir. Shuning uchun ham biz risolamizning birinchi bahsini hayot mavzusiga bag'ishladik.

Hayot nima?

Asrimiz hukamolari ham aytadilarki, koinot hayotdan iborat. Hech bir narsa yo'qki, unda hayotdan bir asari bo'lmasa. Aslida his va harakati bor narsani «tirik» deydilar. Lekin bu hayot maxluqiy hayot deb ataladi. Inson ham aksar maxluqlar bilan shu ma'noda bir xil, farq qilmaydi. Lekin biz inson hayoti va aksar maxluqlarning o'rtasida katta farq borligini mushohada qilar ekanmiz, quyidagi fikrlarga kelamiz.

Agarda hozirgi o'tayotgan hayotimiz ustidan mushohada qilsak, javob ham oson bo'lar edi.

Lekin hayot ma'naviy bir sohadir, uni ko'rib va kuzatib bo'lmaydi.

Shuning uchun bu farqlar sababini insoniyat tarixi va o'tmishidan qidiramiz. Bashariyat olami ibtidosidan boshlab hozirgi shaklda edimi? Ya'ni bani Odam hozirgidek shaharlar, qal'alar, madrasalar, shuncha ilm-u san'at va saltanatlari bilan olamga kelganmikan? Hech qachon! Bechora ibtidoiy odam kuchsiz, zaif bir maxluq edi. Ba'zan sovuqdan titrasa, ba'zan quyosh nurida

qovrilib, yashin va chaqmoqdan, yomgʻir va qordan, zulmat va vahshiy maxluqlar hamlalaridan kecha-yu kunduz qoʻrqib joni halqumiga kelar edi. Buning ustiga soatma-soat ochlik va chanqoqlikdan qiynalar edi. Issiq-sovuqdan muhofaza qiladigan bir chodiri yo chaylasi, qorongʻuda yorituvchi bir chirogʻ, vahshiylar hujumidan muhofaza etadigan quroli ham yoʻq edi. Xulosa shuki, odam xalq boʻlishining ibtidosida zaif va miskin jondorlardan biri edi. Boshqa maxluqlar kuchli changal va tishlari yordamida manfaatlarini taʼmin etib, zararlarini daf qilardilar. Odam esa shunga ham qodir emas edi.

Alloh insonga eng buyuk va eng qimmat qurolni bergan. Inson shu orqali olamni magʻlub qilib shikastlashi mumkin.

Bu qurol nimadan iborat? U AQLdir. Odamzod chorasizligidan tang qolib, aqlini ishlatishga majbur boʻldi, uning soyasida asta-sekin manfaatlarini qoʻlga kiritib, koʻrgan zararlarini daf qildi: uy qurdi, tabiat ofatlaridan qutuldi. Qurol yasab darrandalar hujumidan ozod boʻldi. Faqat shular bilan chegaralanmay, bora-bora yashin-u momaqaldiroq, suv va olovdan najot topib, ularni olimona panjasi bilan tasxir¹ etdi. Agar biz bashariyatning avvalgi oʻjiz davri bilan bugungi kuch-qudratini solishtirsak, bu farqning ulkanligidan larzaga tushamiz va insoniyat olamining oʻzgarishini inkor etish mahol boʻladi.

Insoniyat olamidagi bu oʻzgarishlar taraqqiyotmi-di yo tanazzul? Yaʼni insoniyat oldinga harakat qilib-dimi yoki orqaga? Albatta, oldinga harakat qilgan

¹ Tasxir – boʻysundirmoq.

va hozirgi kungacha biror joyda tavaqquf¹ qilmagan. Masalan, ancha-yillar oldin otasharoba (poezd)ni biz naqliyotning oxirgi vositasi deb o'ylar edik. Biroz o'tmasdan inson ilmining kuchi bilan tayyorani ixtiro qildi va o'ylagan aqidamizni inkor etdi. Bas, ma'lum bo'ladiki, bani Odam ibtidodan to hozirgi kungacha taraqqiy qilib kelgan va taraqqiy qiladi ham. Shunday qilib, odamda hayot g'oyasi bor ekan, ya'ni hazrati Xoliqi hakim insonlar uchun bir baland martabani va bir a'lo manzilni ko'rsatgan ekan, inson ham unga qarab harakat qiladi, taraqqiy etadi.

Ajabo, bu hayot g'oyasi, ya'ni bu a'lo manzil nima ekan? Bu savol javobini shu muqaddimadan bilsa bo'ladi. Bu muddaoni bilish uchun tasdiq nazarimizni yana bashariyat tarixiga tashlaymiz. Lekin bu daf'a boshqacha usulda muhokama qilamiz.

Mamlakatimizda ikki guruh baxtsiz odamlar borki, harakatlari tanqid va tanbehga sazovordir. Birinchi guruh hayotlarining maqsadlari deb, yeb-ichishni biladilar, ular bir luqma taom va yotadigan joy uchun insoniy vazifalarini eslaridan chiqaradilar, biron-bir ish haqida o'ylamaydilar ham. Kechasi erta uchun qorinlarining g'amida, kunduzi esa yotish to'shaklari g'amida bo'ladilar. Xulosa qilib aytganda, ular bu dunyo osoyishtaligini o'ylab, boshqa narsa bilan ishlari yo'qdir.

Masalani bir misol bilan sharhlayman.

Falon bir dehqonning ikki tanob yeri bor. Yaxshi hosil olishni u juda xohlaydi. Agarda bu kishi bahordan ho'kizlari, qo'sh, omoch, urug' va boshqa asboblarini ekishga tayyor qilmay, falon bir masjidning burchagida yotib, «Ey Xudo, shu yerimdan ellik tanob bug'doy hosil bergin», – desa ham bu duo qabul bo'lmaydi,

¹ Tavaqquf – kechiktirmay, to'xtab qolmasdan, zudlik bilan.

ya'ni yeridan o'zidan-o'zi bug'doy ko'karib chiqmaydi. Lekin ekin asbob-anjomlarini tayyor qilib, yerni yaxshi haydab, urug'ni eksa ham, siz o'ylamangki, dehqonning ishi shu bilan tamom bo'ldi, endi u, albatta, yaxshi hosil yetishtirib oladi, deb. Bunday bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, sel kelib mazkur yerni buzishi yoki chigirtka kelib ko'kargan bug'doyini yeb ketishi ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun dehqon samodan keladigan balo va ofatlarning oldini olish uchun duo qiladi.

Yana bir misol keltiraman.

Falon yosh yigit katta olim bo'lishni orzu qiladi, iste'dodli, qobiliyati ham kamoliga yetgan. Agarda shu yigit madrasaga bormasa, pul sarflab kitob olmasa, mehnat qilmasa, mudarrislardan dars olmasa, balki falon mozorning bir chekkasida chin dilidan nola chekib, Xudo dargohidan ilm talab qilsa ham duosi qabul bo'lmaydi, o'limigacha u johil va nodon bo'lib qoladi. Ammo kitob olib, madrasaga borib dars o'qisa ham uni katta olim bo'lishiga hali ishonmang. Mumkinki, u kasal bo'lib yoki nafs havaslariga uchib, ilm olish yo'lidan toyib ketib, oxirigacha johil qolsa. Agar bu yigit g'aybdan keladigan ofatlarni bartaraf qilish uchun duo qilsa, duosi ijobat bo'lishi mumkin.

VAZOYIFI NAFSIYA

Vazoyifi nafsia – bu insonni muhofaza etish va taraqqiy topishi uchun bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardir, ya'ni inson o'z nafsini (chunki bu odamiylik zaruriyatidir) kamol toptirish darajasiga yetkazishi lozim.

Nafs kamoli bu odamning ham o'ziga va ham o'z hamjinslariga foyda va naf keltirishidir. Agarda nafs solih amallarga ulfat va yaqin bo'lsa-yu, yomon (qabih)

ishlardan nafratlansa, shunda nafs kamolining martabasi hosil bo'lg'ay.

Nafsoniy quvvat uchga bo'linadi: 1. Aqliy quvvat. 2. Shahvoniy quvvat. 3. G'azab quvvati. Aql quvvatini isloh etishda shunday hikmat borki, uning foydasi haqni botildan, qabohatni ezgulikdan, manfaatni zarardan farq eta bilishdir. Shahvoniy quvvatni isloh etish natijasida iffatta erishiladi. Iffatning samarasi salomatlik, aqlning o'tkirligi, qad-qomatning ko'rkamligi, yaxshi amallar va yomonliklardan chekinishda ko'rinadi. G'azab quvvatini isloh etish shijoat olib keladi. Shijoatning foydasi insoniy sharafni himoya etishda, millat izzati va nafs muhofizatida ko'rinadi. Agar inson ana shu uch quvvatni yaxshilab isloh etsa, yana bir fazilatga sohib bo'ladi. U esa adolatdir. Shularni e'tiborga olib axloq olimlari nafs fazilatini to'rtga bo'lganlar: 1. Hikmat. 2. Iffat. 3. Shijoat. 4. Adolat.

Bularni joy-joylarida mufassal arz qilamiz. Avval hikmat va uning foydasi haqida so'zlaymiz. Hikmat fazilati aql quvvatining islohi natijasida bo'ladi va aql quvvatining islohi ilm o'rganish bilan mumkindir. Shuning uchun quyida biz aql va ilm haqida mufassal bahs qilamiz, toki hikmatning qay darajada ahamiyatliligi o'z-o'zidan ma'lum va namoyon bo'lsin.

AQL

Yuqorida batafsil bayon qilganimizdek, odamzod maxluqlardan jisman kichik va kuch jihatidan zaif qilib yaratilgan bo'lsa ham, ammo hazrati Xoliqi hakim insonni ulardan ulug' va quvvatli qilib yaratgan.

Chunki insonga hayot maydonining yagona quroli bo'lgan AQLni bergan. Odamlar dastavval darranda-

lar hujumi, issiq-sovuq, ochlik va chanqoqlikdan hamisha qoʻrqib, azob chekib iztirobda yashardilar. Borib-borib aql yoʻlboshchiligida hammadan ustun va gʻolib chiqdilar.

Ammo aql oʻzi qanaqa boʻladi? Aql ikki xil boʻladi: 1. Aqli fitriy. 2. Aqli kasbiy.

Aqli fitriy – bu Allohning inson tabiatiga avvaldan bergan aqlidir, yaʼni har bir fard (individ) avvaldan haqiqatni bilishi mumkin.

Ammo aqli kasbiy ilm olish va tajriba orttirish jarayonida hosil boʻladi, yaʼni odam oʻzining fitriy-tabiiy aqlini ilm qoidalari va tajribalar asosida kengaytirib, ziynat bersa, aqli kasbiy hosil boʻladi.

Masalan, bir emizikli goʻdakka eʼtibor bersak. Bu goʻdak yangi tugʻilgan paytida ham yozish isteʼdodiga egadir, lekin amalda yozolmaydi. Borib-borib u ulgʻayadi, saʼy-harakat qiladi, fitriy isteʼdodi kuchini harakatga keltirib yaxshi kotib boʻladi. Aqli fitriy va aqli kasbiy masalalari ana shulardan iborat. Har kim fit-ratan haqiqatni bilishga qodir boʻladi, lekin bilim bilan tugʻilmaydi. Agar jahd-u harakat qilib va ilm oʻrganib tajriba hosil qilsa, aqli kasbiy sohibi boʻlishi mumkin.

Natija: har bir kishi solih amallarga mashgʻul boʻlishi lozim. Solih amallar esa axloqiy fazilatlarni tarbiyalash bilan boʻladi. Axloq fazilatlari toʻrt asos: hikmat, iffat, shijoat, adolatdan iborat. Hikmat aqliy quvvatning islohi natijasidir...

Har kim ilm talabida yoʻlga chiqsa, Xudovand unga jannatga yoʻl ochadi. Yoki: «Ehsonlarning eng maqbuli musulmon kishining ilm olishi va musulmon birodariga ilm oʻrgatishidir», – deyдилar Nabiy alayhissalom.

Ammo: «Ilmning turlari koʻp, biz qaysi biri bilan mashgʻul boʻlishimiz joyiz?» – deb aytishingiz mumkin.

Javob beraman: haqiqatda ilm turlari ko'p, ba'zilaridan naf ham yo'q. Biroq maqsadimiz ikki dunyo saodati ekan, bu dunyo va oxiratda foyda keltiradigan ilmlarni talab qilishimiz, bu dunyo va oxiratda foydasi bo'lmagan ishlarni tark etishimiz lozim. Zero, «Allohdan foydali ilm talab qilib, nafi bo'lmagan ilmdan omon qolish uchun Allohdan madad so'rang», – deyiladi hadisda.

TARIX ILMI

Tarix ilmi o'tgan qavmlarning umumiy ahvolini bizlarga ibrat va dasturulamal qilib naql va muhokama etadi.

Bu ilm, avvalo, ikki qismdan iborat: 1. Muqaddas tarix. 2. Madaniyat tarixi.

Muqaddas tarix – anbiyolar ahvoli va hazrati Payg'ambarimiz siyratlarini bizga tushuntiradi. Jamiyat tarixi esa uch qismga bo'linadi: 1. Ilm va adabiyot tarixi. 2. Tabiiy tarix. 3. Siyosiy tarix.

Ilm va adabiyot tarixi olimlar va shoirlar toifalarini, ilmlarning turlari, darajalarini va o'rganish usullarini tekshiradi. Tabiiy tarix maxluqotlarning iste'dod-u qobiliyati va jonzotlarning xosiyatlari haqida ma'lumot beradi.

Siyosiy tarix ikki qismdir: 1. Umumiy tarix. 2. Xususiy-mahalliy tarix.

Umumiy tarix olamning yaratilish vaqtidan hozirgacha dunyoda paydo bo'lib yo'q bo'lgan davlatlar, xalq-u millatlar, ularning hayot kechirishlari, tuzumlari, yo'qolib ketish sabablari haqida fikr yuritadi. Xususiy tarix bir davlat yoki xalq tarixining paydo bo'lib, inqirozga uchrash sabablarini o'rganadi. Tarix juda qadimiy bir ilmdir. Yunonlilar eng birinchi bo'lib tarix yozgan qavmlardan hisoblanadi. Islom zuhur

topib taraqqiy etgandan soʻng ulamolarimiz bu ilmda ham ancha saʼy-harakat koʻrsatib kitoblar yozganlar. Ahli islomlarning tarix ilmida ham mahoratlari yuksak boʻlgan, ular foydali va qimmatbaho, tarixga oid asarlarni yozib qoldirganlar. «Tarixi Abulfido», «Tarixi Ibn Xaldun», «Tarixi Tabariy» shular jumlasidanidir. Shu uchta muazzam kitob ham arab tilidadir. Bu asarlarni farangliklar (ovroʻpaliklar) oʻz tillariga tarjima qilganlar. Qaysi millat yashashni (ravnaq-u taraqqiyotni) istasa, tarixini bilishi lozim boʻladi. Zero, tarix bir koʻzguga oʻxshaydi, har bir qavm oʻzining ahvoli va ijtimoiy hayot qoidalarini unda koʻrib, yaxshini yomon-dan farq qiladigan boʻladi. Ravshanroq tushuntirsak, yaʼni qaysi millat yuksalish fikrida boʻlsa, oʻtgan qavmlar tarixiga murojaat qiladi, ularni halokatga yetkazgan sabablarni bilib, ularni tark etib, biron-bir millatning rivoji va taraqqiyotiga sabab boʻlgan qonunlar boʻlsa, ularni qabul qiladi.

JOʻGʻROFIYA

Joʻgʻrofiya – yer yuzi va undagi aholining ahvolidi oʻrganadi. Bu ilm ham juda qadimdir. Alloma Abu Ishoq Ixtariy 340-yili olam boʻylab sayohat etib, joʻgʻrofiya ilmiga oid «Kitob ul-aqolim» («Iqlimlar haqida kitob») nomli asar yozdi. Farang olimlari qadimiy joʻgʻrofiyaga oid bu asarni eng moʻtabar hisoblab, oʻz tillariga oʻgʻirganlar. Ibn Havqal al-Maʼsuliyy 28 yil sayohat qilib 350-yili «Almasolik va al-mamolik» («Yoʻllar va mamlakatlar») nomli xususiy joʻgʻrofiyaga oid, yaʼni Arabiston qitʼasi haqida bahs yurituvchi asarini yozdi. Allomai sharif Idrisiy 493-yili tavallud topib, 576-yili vafot etgan, joʻgʻrofiya ilmining buyuk namoyandalaridan sanaladi.

Rum, Misr, Andalus, Marokash, Faronsa va Ingilitar (Britaniya)ga sayohat qilib Sajiliyo (Sistiliya)ga kelib, shu yerning podshohiga kumushdan yer kurrasini yasab bergan va jo'g'rofiyaga oid «Nushatul-mushtoq fi axboril-oyoq» nomli asar ham yozgan.

Endi jo'g'rofiya fani bizga kerakmi-yo'qmi degan savolga kelsak, shuni aytishim lozimki, birinchidan, bir mulk tijoratini rivojlantirish uchun bu ilmni o'rganishimiz zarur. Ikkinchidan, shu narsa ma'lumki, odamlar taraqqiyotga moyil bo'ladilar. Fitrat-u aqlari taqozosi bilan ikki dunyo saodatiga noil bo'lish uchun harakat qiladilar. Shuning uchun ham odamlar aksar xalqlarning tarixi, ishlari va ijtimoiy qoidalarini bilib, o'zlariga ibrat ko'zgusi qilib oladilar, millatlarning tanazzul va yo'q bo'lishiga olib kelgan sabablardan hazar qilib, qaysi qavm maydonga kelib taraqqiy etgan bo'lsa, igu qavmning rivojlanish vositalarini bilib olib, uning yo'lini tanlaydilar.

ABDULLA AVLONIY (1878 - 1934)



Mashhur o‘zbek ma’rifatparvari, shoiri va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyulda Toshkentda hunarmand oilasida tug‘ilgan. Eski maktabda savod chiqardi, madrasada tahsil oldi.

Abdulla Avloniy she’rlari 15 yoshidan boshlab matbuotda ko‘rina boshladi. Jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo‘lgan Avloniy 1904-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida jadid maktabini, 1909-yilda «Jamiyati xayriya» uyushmasini tashkil etadi. 1905–1917-yillarda matbuotdagi qizg‘in faoliyati, ko‘plab publitsistik maqolalari bilan «bir yoqdan milliy islohot uchun mafkura hozirlag‘on, ikkinchi yoqdan el orasiga o‘zgarish tuxmini sochg‘on» ham Abdulla Avloniy bo‘ldi.

Avloniy o‘zi nashr etgan «Shuhrat» (1907) nomli gazetasi faoliyatini shunday baholagan edi.

Uning «Birinchi muallim» («Muallimi avval», 1909), «Ikkinchi muallim» («Muallimi soniy», 1912) nomli darsliklari, «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913), «Gulistoni maktab» (1917), «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» (1909–1916, 6 qism) kabi qo‘llanmalari maktablarda o‘qitilgan.

Abdulla Avloniyning Hijron, Nobil, Indamas, Shuhrat, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegiboy degan taxalluslari bo‘lgai.

U 1934-yil 24-avgustda Toshkentda vafot etgan.

TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ

Men bu asari nochizonimni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobar ulug' adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylariga taqdim qildim.

*Har kun o'luram shomg'acha men g'amga giriftor,
Har shab yonaram otasha parvona kabi zor.
Hech kimsa emas bu meni ahvolima voqif,
Men xastayam-u millatim o'lmish nega bemor.*

AXLOQ

Insonlarni yaxshilikgʻa chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur.

Axloq ilmini oʻqub, bilub amal qilgan kishilar oʻzining kim ekanin, janobi Haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmak uchun yurganin bilur. Bir kishi oʻzidan xabardor boʻlmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qad-rini, qimmatini bilmas. Oʻz aybini bilub, iqror qilub tuzatmakgʻa saʼy va koʻshish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur. Rasuli akram nabiy-u muhtaram afandimiz: «Mezon tarozusiga qoʻyiladurgan amallar-ning ichida yaxshi xulqdan ogʻirroqi yoʻqdur. Moʻmin banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzlari roʻza tutub ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar», – demishlar.

*Soʻylasang soʻyla yaxshi soʻzlardan,
Yoʻqsa jim turmoqing erur yaxshi.
Oʻylasang yaxshi fikrlar oʻyla,
Yoʻqsa gung boʻlmoqing erur yaxshi.
Ishlasang ishla yaxshi ishlarni,
Yoʻqsa bekorligʻing erur yaxshi.*

Abdulla Avloniyning «Hiron, Nabil, Inkiya-Shuhrat, Surayyo, Shapalqi, Chel, Ab, Chirpoy» dastgʻan taxalluslari boʻlgʻan.

U 1934-yil 24-avgustda Toshkentda vafot etgan.

XULQ

Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yo yomon bo'ladur.

Jasadning surati hammaga ma'lum bir narsadurki, har vaqt ko'zga ko'rinib turadur.

Ammo nafsning surati ko'zga ko'rinmaydurgan, aql ila o'lchanadurgan bir narsadurki, buni xulq deb atalur.

Agar bir kishi yoshligida nafsi buzulub tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, «Allohu akbar», bunday kishilardan yaxshilik kutmak yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmak kabidur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz ishonmangiz», – demishlar.

Xulqi yomon yuz, ko'zlidin na sud

Yuz, ko'zli xulqni qilmas kashud.

Xulq mariziga davo istasang,

Marg davosin berilur qistasang.

Xulqi yomonning keturar ko'p zarar,

Xulqing o'zi boshingga kaltak urar.

Xulqi fano bo'lsa degil alhazar,

Xor-u zalillikda qolur darbadar.

YAXSHI XULQ, YOMON XULQ

Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga boʻlmishlar.

Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikgʻa tavsif boʻlub «yaxshi xulq», agar tarbiyatsiz oʻsub, yomon ishlaydurgan boʻlub ketsa, yomonliqgʻa tavsif boʻlub «yomon xulq» deb atalur.

Janobi Haq insonlarning asl xilqatda isteʼdod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradurgan qilub yaratmishdur. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkurmak tarbiya ila boʻladur. «Qush uyasinda koʻrganin qiladur». Inson javhari qobildur. Agar yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanub, goʻzal xulqlarga odatlanub katta boʻlsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson boʻlub chiqar. Agar tarbiyatsiz, axloqi buzulub oʻssa, Allohdan qoʻrqmaydurgan, shariatga amal qilmaydurgan, nasihatni qulogʻiga olmaydurgan, har xil buzuq ishlarni qiladurgan, nodon, johil bir rasvoyi olam boʻlub qolur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: «Imoni komil boʻlgan kishilar yaxshi xulqli boʻlurlar, sizning eng yaxshilaringiz xotunlariga yaxshilik qilganlaringizdur», – demishlar.

*Xudoning rahmat-u fayzi hama insonga yaksardur,
Va lekin tarbiyat birla yetushmak sharti akbardur.
Tugʻub tashlov-la boʻlmas bola, boʻlgʻay balo sizga,
Vujudi tarbiyat topsa, boʻlur ul rahnamo sizga.*

*Temirchining bolasi tarbiyat topsa, bo'lur olim,
Buzulsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa, bo'lg'usi zolim.
Yomonlarga qo'shuldi Nuhning o'g'li, o'ldi beimon,
Yurudi Kahf iti xublar-la bo'ldi oti inson.*

TARBIYA

Tarbiya – «Pedagogika», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur.

Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xusda biroz so'z so'ylaymiz.

Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur.

Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur.

Zeroki, «Hassinu axloqi ko'm» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg'a amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadur.

Axloqimizning binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur, ba'zilar «tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgarmas», – demishlar.

*Yomon xo' tuzalmaydi darmon ila,
Ipak o'lmas ip, rangi alvon ila.*

*Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,
Boʻlur yaxshi payvand, parvo bilan.
Bilur har kishi aslini rangidan,
Va yokim ulangandagi zangidan.*

Lekin bu soʻz toʻgʻri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa, albatta, taʼsiri boʻladur. Oramizda masal borki, «sut ila kirgan, jon ila chiqar», mana bu soʻz toʻgʻridur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Beshikdan to mozorga borguncha ilm oʻrgan», – demishlar. Bu hadisi sharifning maʼnosi bizlarga dalildur. Hukamolardan biri: «Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bogʻlidir», – demish.

Shariati islomiyada oʻz bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn, oʻz millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur.

Paygʻambarimiz: «Bolalaringizni yetti yoshida namozga oʻrgatingiz. Agar oʻn yoshida oʻqimasa uringiz», – demishlar.

*Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat,
Balki oxirida erur dorulamoni tarbiyat.
Tarbiyat hamroh etadur hur ila ruzvonlara,
Gar desam boʻlmas xato jannat makoni tarbiyat.
Ey, Otalar! Jonlaringizdan suchuk farzandingiz,
Gʻayrat aylang oʻtmasun vaqt-zamoni tarbiyat.
Moyayi zilli xumodur tarbiyatning soyasi,
Bizda anqo tuxmidek yoʻq oshyoni tarbiyat.*

TARBIYANING ZAMONI

Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan.

«Tarbiyani kimlar qilur, qayda qilinur?» – degan savol keladur. Bu savolga, «Birinchi uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi, maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur», – deb javob bersak, bir kishi deyrki, «Qaysi onalarni aytursiz, bilimsiz, boshi paqmoq, qo'li to'qmoq onalarni? O'zlarida yo'q tarbiyani qaydan olib berurlar», – der. Mana, bu so'z kishining yuragini ezar, bag'rini yondurur. Otasiga nima dersiz, desak, «Qaysi ota? To'ychi, uloqchi, bazmchi, do'mbirachi, karnaychi, surnaychi, ilm qadrini bilmagan, ilm uchun bir pulni ko'zlari qiy-magan, zamondan xabarsiz otalarni aytursizmi? Avval o'zlarini o'qitmak, tarbiya qilmak lozimdur», – der.

Mana bu so'zni eshitgach, umid qo'llari qo'ltuq'ga urilur.

Xayr, bo'lmasa muallimchi desak, «Qaysi muallim? Maqsadi pul, maslagi shuhrat, yuqori maktablarda o'qumagan, «usuli ta'lim» ko'rmagan muallimlarni aytursizmi? Avval o'zlari «dorilmuallimin»larda o'qimaklari, so'ngra dars bermaklari lozimdur», – der. Mana bu so'z insonni hayrat daryosiga g'arq qilur.

Mudarrislarga na dersiz desak, «Qaysi mudarris? Matlablari osh, maqsadlari chopon, darslari beimtihon, isloh yaqinidan yurmagan mudarrislarni aytursizmi? Bular o'z vazifalarini bilub, nafslaridan kechub, zamonga muvofiq ravishda darslarini isloh qilub, imtihon birla o'qutmaklari lozimdur», – der.

Mana bu soʻz har kimni «Alisloh» demakga majbur qilur. Boʻlmasa hukumat-chi, desak, «Xayr, hukumat hammaning otasidur. Oʻz fuqarosining bolalarini tarbiya qilmak lozim. Lekin oʻzimiz ish bilmagan, yalqov, uyda onamiz tarbiyasi, otadan pul tarbiyasi, muallimdan axloq tarbiyasi, mudarrisdan funun tarbiyasi koʻrmaganimizdan, hukumat maktablaridan ham oʻz hissalarimizni ololmaymiz», – der. Mana bu soʻz bizlarni tarbiyadan mahrum, huquqning na ekanin bilmaganligʻimizni bildirur.

**Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot
– yo mamot, yo najot – yo halokat, yo
saodat – yo falokat masalasidur.**

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindadur, hasabi axloqindadur», – demishlar.

*Agar bir qushning yosh bolasin olib,
Boʻlur tarbiyat birla yoʻlga solib.
Onasin olib asragʻon birla rom,
Qilmas kishi saʻy qilsa mudom.
Kerak tarbiyat yoshlikdan demak,
Ulugʻ boʻlsa lozim kelur gʻam yemak.
Egur bemashaqqat kishi navdani,
Toʻgʻunchi egur kuydirib kavdani.*

BADAN TARBIYASI

Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur.

Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar.

Maishatimizni rohatda bo'lmog'i jasadimizning sog'lom bo'lmog'iga bog'lidir. Biz sihatimizni saqlamak ila amr o'linganmiz, shuning uchun vujudimizi hifzi-sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila churitmadan saqlanmakligimiz lozimdur. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikisi bir choponning o'ng ila terisi kapidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib astarini yuvub ovora bo'lmoq kapidurki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdur. Shuning uchun ota-onalar bolalari kasal bo'lgan zamon beparvolik qilmay, tezlik ila tabib yoki do'xturga boqizmak kerak.

Imom Shofeyi hazratlari: «Ilm ikki xildur: biri badan ilmi, ikkinchi din ilmi», – demishlar. Bunga qaraganda eng avval hifzi sihat qoidalarini bilmak, salomatlikga ters bo'lgan narsalardan saqlanmak ila bo'ladur. Ichkulik, ko'knor, nasha, afyun, taryok, chilim, nos, popirus kabi badanning salomatlikig'a zararli, og'ulik, ba'zisi harom, ba'zisi makruh, ba'zisi isrof bo'lgan

narsalardan qochmak, saqlanmak shariat, aql, hikmat yuzasidan lozimdur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Har narsa koʻp ichganda mast qiladurgan boʻlsa, man sizni aning ozginasidan ham nahy qilaman», – demishlar.

*Salomatlikni saqlou lozim ishdur.
 Gunahdin saqla jisming yoz-u qishdur.
 Kasal boʻlsang, boʻlur dunyo qorongʻu,
 Maishat talx oʻlub hasrat chekishdur.
 Harom-u shubhadan pok et oʻzingni,
 Bu dunyo aysh-u ishratdan kechishdur.
 Hama ishratchi hijronlikda ketdi,
 Bu olamda bir ish ishlab ketishdur.
 Turkiy guliston yoxud axloq kitobi.*

FIKR TARBIYASI

Fikr tarbiyasi eng kerakli, koʻp zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, gʻayratli boʻlishiga sabab boʻladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga soʻng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bogʻlidir.

Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor boʻlsa ham, ikkisi bir-biridan oyilmaydurgan, birining vujudi birig boylangan jon ila tan kapidur. Masalan: joy solinmagan yaxshi bir uyning ichida oʻtirmak mumkin oʻl-

madig'i kabi, ichiga har xil yangi ashyolar to'ldurub ziynatlangan eski imorat ham o'lturushga yaramaydur. Basharti o'ltursa, insonlar: «Eski uyga yangi zoldivor», «Kir ko'ylakka jun jiyak», «Mis qozonga loy tuvoq» deb hajv, kulgi qilurlar.

*Fikr agar yaxshi tarbiyat topsa,
Xanjar, olmosdan bo'lur o'tkur.
Fikrning oyinasi olursa zang,
Ruhi ravshan zamir o'lur benur.*

AXLOQ TARBIYASI

Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidir.

Biz avvalgi darsda tarbiya ila dars orasida farq bor, deduk, chunki dars oluvchi – biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchi demakdur. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlariga omil bo'lub shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila chaqushturub o'rgatmamlari lozimdur. Bu ravishi ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilib, mulloyi boamal bo'lurlar. Rasuli akram nabiiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Eng yomon kishilar ilmiga amal qilmaydurgan kishilar», – demishlar. Agar tarbiya qiluvchi muallim o'zi olim bo'lub amalsiz bo'lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo'r ta'siri bo'ladur. «Domlaning o'zi falon joyda falon ishni qildi. Ammo bizlarga qilmanglar, haromdur, deb va'z etadur», deb fikr va xayollariga bo'yla shak va shubha tushub qoladur.

*Minbar uzra jilva aylab va'z etarlar qilma deb,
O'zlarin xilvatda ko'rsang oni qilmoqda emish.
Ichma suv derlar biza oltun-kumush asbobda,
Bilsamiz maqsudlari qo'ltuqg'a urmoqda emish.*

YAXSHI XULQLAR

Yaxshi xulq: bir qismi o'z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo'lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazo-fat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur.

Mana bu yozdig'imiz yaxshi xulqlar aql va sharyi sharifga muvofiq. Alloh taolo ham bandalar qoshida maqbul va mo'tabardur. Emdi bu yaxshi xulqlarni qo'lga olmak uchun ota-ona, muallim ustodlarimiz hazratlarining hikmatli nasihatlarini jon qulog'i birla tinglab, doim xotirda tutmoq, axloqi yaxshi kishilar birla ulfat bo'lmak, axloqi buzuq yomon kishilardan qochmak lozimdur.

Bizim shariati islomiyada «axloqi hasana» – yaxshi xulqlar ila xulqlanmak, har narsaga ibrat ko'z ila boqub, xulqini tuzatmak vojibdur. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam: «Islomiyatda buzuqlik yo'qdur, buzuqlikni ustiga oluv ham yo'qdur. Islomiyatda eng mu'tabar kishilar yaxshi xulq egalardur», – demishlar.

*Yaxshi birla yursa, har kim maqsudi hosil bo'lar,
Yursa nodonlar ila, bir kun borib qotil bo'lar.
Kattalar qilgan nasihatni kichiklar olmasa,
Oqibat xulqi buzuvq bir beadab johil bo'lar.*

FATONAT

**Fatonat aql egasi bo'luv demakdir.
Aql insonlarning piri komili, murshidi
yagonasidur.**

Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir. Inson aqli ila din va e'tiqodini mahkam qilur, shariat hukmlariga bo'yunsunar. Aqlsiz jinni kishilar bularga bo'yun qo'ymas, shariatdan tashqari ishlarni ham qilur.

Janobi Haq insonni hayvonlardan so'z va aql ila ayirmishdur. Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidan keladurgan zulm va jabrlarni shox, tish, tumshuq, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson janobi Haq tarafidan berilmish aql va idroki soyasida o'ziga keladurgan zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilub, bo'ynidan boylab, iplarining uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidur.

Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najotidur. Ilm o'rganmak, olim bo'lmak uchun maktabga kir-mak, muallimdan ta'lim olmak lozim. Aqlsiz kishilar na maktabga kirar va na muallimni bilar. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Ey insonlar! Aqlingizga tavoze qilingiz. Siz janobi Haq buyurgan va qaytargan narsalarni aqlingiz ila bilursiz», – demishlar.

Hukamolardan biri: «Agar aqlingni qo'li nafsingni jilovini ushlasa, sani yomon yo'llarga kirmoqdan saqlar. Har narsa ko'p bo'lsa, bahosi arzon bo'lar, aql

esa ilm va tajriba soyasida qancha ko'paysa, shuncha qimmatbaho bo'lur», – demish.

*Aqldek zebo sifatni ko'rdi Haq, insonga eb,
Oqil insonlar bilan berdi jahon-olamga zeb.
Aql nuri birla to'ldi dunyoga ilm-u hunar,
Aqlsiz inson qachon bilg'usidur naf-u zarar?
Aqlsizlar bilmagaylar din nadur, dunyo nadur?
Bo'lmasa aqli bilurmi farz ila sunnat nadur?*

DIYONAT

**Diyonat Alloh huzurina yaqin qiladur-
gan muqaddas e'tiqoddurki, olamda
mundan suyukli narsa yo'qdur.**

Din va e'tiqodi salomat bo'lmagan kishilar haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmas, munday kishilardan na o'ziga va na boshqa kishilarga, va na millatga tariqcha foyda yo'qdur. Din janobi Haq tarafidan bandalari uchun qurilmish to'g'ri yo'ldurki, banda dunyo va oxiratda bu yo'l ila sohili salomatga chiqar. Din ulamolari diniy kitoblarda Alloh taologa ibodat qilishning yo'l va qoidalarini bayon qilmishlar. Ibodat ikki turli bo'latur: biri tan ibodati, ikkinchisi ruh ibodati. Tan ibodati tahorat, namoz, ro'za, zakot, haj kabi amallardurki, bularning har birini o'z vaqtida shariatga muvofiq ravishda minnat qilmasdan, riyo qilmasdan dilni poklab, niyatni xolis qilub, shavq va zavq ila ado qilmoq lozimdur. Ruh ibodati qalb ila ado qilinadurgan ibodatdurki, e'tiqodni mahkam, dilni pok qilub, Qur'on, Hadis, fiqh kabi diniy kitoblar oqilganda jon qulog'i ila tinglab asarlan-

makdur. Bir kishi tan ibodatini qilub, ruh ibodatini qilmasa, yo ruh ibodatini qilib, tan ibodatini qilmasa o'z vazifasini ado qilmagan bo'latur. Aql din ila, din amal ila, amal taqvo ila kamol topar. Din insonlarning dilidan saxovat, marhamat, shafqat, ulfat, muruvvat eshiklarini ochub, saodat va salomat bo'stoniga olib borur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Allohni ko'z oldingda ko'rub turgandek ibodat qil, zeroki, san oni ko'rmasang ham, albatta, Ul sani ko'radur, nafsingni o'lgan hisob et», – demishlar.

*Pok qilgil diningni, imoningni,
Qul huvar-rahmon omanno bih.
Diningni yoqmasun havas zinhor,
Va qino rabbano azoban-nor.*

ISLOMIYAT

Islomiyat butun insoniyatdur. Insoniyat esa yaxshi xulqdan iboratdur.

Islomiyatni rasuli akram sallollohu alayhi vasallam afandimizning yolg'uz o'zlari butun dunyo yuziga yaxshi xulqlari soyasida tarqatdilar. Sahobalar ham Payg'ambarimizning orqalaridan ergashub, mahkam e'tiqodlari, yaxshi axloqlari, pok qalblari, o'tkir shijoatlari ila yer yuzuni titratdilar. Kundan kun islomiyatning shavkat va quvvati ortdi. Olamga madaniyat, ma'rifat, musovot, adolat urug'lari Arabiston yarim orolidan yoyildi.

Buning sababi sahobalardagi metin e'tiqod, buzulmas ittifoq, sof qalb, yaxshi amal, xolis niyat, tunganmas g'ayrat, go'zal axloq edi. Har narsaning ofati

oʻldigʻi kabi zamonlarning oʻturi ila islomiyatning ittifoqina koʻz tegdi. Musulmonlar orasiga tafriqa tushdi. Hikmat egalari, funun sohiblari islomiyatdan quvlandi. Ilm-u hikmat xazinalari qulflandi. Jaholat, adovat hukm surdi-da, boʻyla oʻldi:

*Afsus ekinzorni selob olibdur,
Dehqonni falokat bosub, uyquda qolibdur.*

Musulmonlarning diliga ittifoq oʻrniga nifoq, adolat oʻrniga zulm, muhabbat oʻrniga adovat, gʻayrat oʻrniga atolat, muruvvat oʻrniga gʻazab, saxovat orniga buxl, tavozu oʻrniga kibr, sadoqat oʻrniga iftiro, shafqat oʻrniga hasad, hilm oʻrniga hamoqat, hurmat oʻrniga xusumat, qanoat orniga tama, sabr oʻrniga gʻurur, iqtisod oʻrniga isrof, afv oʻrniga dahshat, saʼy oʻrniga safohat, gʻayrat oʻrniga xurofot yerlashdi. Mana, shul yomon xulqlari sababidin asri saodatdan buyon islomiyat keyin qarab ketdi. Gʻarib millatning chin xulafosi, ulamosi, hukamosi taxtindan, mansabindan mazhabindan suruldi. Odillar yerina zolimlar, olimlar yerina abu jahllar, bulbullar yerina qargʻalar, qumrilar yerina boyqushlar, bilmam va hokimlar yerina kimlar oʻturdi. Shul sabablara mabni islomiyat dunyosi inqiroz sahrosina yuzlandi. Islom hukumatlarida birin-ketin koʻzidin nihon oʻldi.

*Yetsa navbat oʻlturar boyqush
Sulaymon tomiga,
Oʻrmaguchlar in qoʻyar
Afrosiyob ayvoniga.*

NAZOFAT

Nazofat deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblارimizni pok va toza tutmoqni aytilur.

Poklik zehn va idrokingni keng va o'tkur qilur. Xalq orasida e'tibor va shuhratga sabab bo'lur. Poklik ila har xil kasallardan qutulub, jonimizning qadrini bilgan bo'lurimiz. Pok bo'lmak salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadur. Pok bo'lmagan kishi Alloh ham xalq qoshida sevimsizdur. Yirtiq, eski kiyimlar kiymak ayb emas, yangi kiyimlarni kir qilub, yog'ini chiqarub yurmak zo'r ayb va gunohdur. Chunki bu ish shariatga ters, tarbiyati badanga zid, ajnabiylar ko'ziga islomiyatni chirkin qilib ko'rsatmoq bo'ludur, ham bir yilga yetadurgan kiyimlar olti oyga yetmay, qirqilub tamom bo'ludur. Bu isrof, mol qadrini bilmaslikdur. Ifloslik balosidan poklik davosi ila qutulmoq kerak. Baliqning hayoti suv ila o'ldig'i kabi, insonning salomatligi havoy iladur.

Agar tan pok bo'lub yuvilib turmasa, quloq kir bo'lsa, eshitmagani kabi badan ham o'ziga kerak bo'lgan havoni ichiga ololmas, ichidagi rutubat ham kirdan o'tub chiqub ketolmas, chunki badan elak kabi ko'zlikdur.

Agar ko'zi kir olsa, un turub suv ham o'tmas, shuning uchun tamiz bo'lmagan kishilar qo'rqinch kasallarga tezgina giriftor bo'lurlar. Shodliqlari g'amda, oltundan qadrlı umrlari kasalxonalarda o'tar. Mana shularni rioya qilub, shariatimiz bizga poklikni

farz qilmishdur. Poklik musulmonligʻning ildizidir. Shuning uchun tani, kiyimi, joynomozi pok boʻlmagan kishining ibodati ham durust boʻlmaydur. Rasuli akram nabiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Islom dini pok dindur. Bas, pok boʻlingiz, pok boʻlmagan kishi jannatka kirmas», – demishlar.

*Xalqi olam sevgusidur tozalik, pokni,
Poklik ortturgusidur fahm ila idrokni.
Har kishini koʻksida poklik nishoni boʻlmasa,
Tozalik maydonidan quvgʻaylar ul bebokni.*

SAʼY VA GʼAYRAT

Saʼy va gʻayrat deb ustiga yuklangan ibodat va xizmatlarni harakat birla ado qilmakni aytilur.

Shariat ham aql yuzasidan yalqovlik qilub, ishsiz, bekor yurmak durust emasdur. Zeroki, Qurʻoni Karim bizlarni saʼy qilmoqgʻa amr etmishdur. Dangasalik har vaqt insonni xor, tama balosiga giriftor qilur. Bir ishga mashgʻul boʻlgan kishilar vaqtning oʻtganini bilmas, yalqov kishilar uchun bir soat oʻtkarmak qiyomatdan qiyindur. Gʻayrat vujudimizga quvvati masʼud va baxtiyor boʻlishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz saʼy qilub, oʻz kuchimiz ila maishatimizga kerak boʻlgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj boʻlmay rohat-rohat yashamoq lozimdur. Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bogʻlidur. Harakatlik kishilar tezgina maqsudlariga yeturlar.

Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lub xorlikda qolurlar.

Kishi yosh vaqtida ilm va ma'rifat, hunar va san'atga bo'yin qo'ymasa, taraddud qilmasa, albatta, qora ishchi bo'lub qolur. Shariatga ters, qonunga zid bo'lmagan xizmatlarni qilmas ayb emasdur. Agar bunga ham bo'yin qo'ymay bu ko'mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas deb, dangasalik qilub, ishsiz yursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdur. «Gayratlikdan imon qutulmas» degan masal bor. Bunga qaraganda dunyo va oxiratimiz uchun g'ayratni qo'ldan bermaslik lozimdur. G'ayrat imona, salobati vijdona dalolat etar. Hazrati Umar eshik oldida bekor o'tirgan bir kishini ko'rub: «G'ayratsiz kishilardan Xudo bezor, islomiyat g'ayrat ila rivoj topdi, sandek yalqov kishilardan islomiyat hazar qilur», – demishlar.

Haq buyurdi: «Laysa lilinsoni illo mo sa'y», G'ayrat ila o'tdi olamdan Muhammad Mustafo.

*Biz-da ummatmiz, qilayluk sa'y ila xayr-u saxo,
Qilsalar shoyad shafokat sohibi ro'zi jazo.*

RIYOZAT

Riyozat deb savob ishlarni qilub, gunoh ishlardan saqlanmoqni aytilur. Riyozat adabning koni, ruhning darmonidur.

Insonlarni to'g'ri yo'lga solub, egri yo'ldan qaytarguvchi riyozatdur. Shul sababli riyozat qilguvchilar oqil va fozil bo'lur. Alloh ham xalq qoshida maqbul

va mo'tabardur. Yalqovlik, ko'p uxlamak, yomon odamlar ila yurmak, vaqtni bekor o'tkarmak, aysh-u ishrat qilmak, ko'p oshamak, foydasiz so'zlar so'zlamak, samovarlarda, ko'chalarda aziz umrni bo'sh otkarmak kabi ishlarning hammasi riyozatga zid, umrning egovi, Xudoning g'azabidur. Allohning buyrug'i, Rasulullohning sunnatlari, shariat qil degan ishlarni birin-ketin o'z vaqtida qilmak ibodat ham riyozatdur.

Riyozatni rioya qilgan kishilar hech vaqt shariat yo'lidan ayrilmas, Alloh buyrug'idan chetga chiqmas va bu yo'l ila oxirat azobidan qutulur, rohat va rahmat saroyiga kirar, riyozatni rioya qilmagan kishilar Alloh taoloning rizosini topolmas, xor-zor bo'lub, oxiratda alamlik azobga giriftor bo'lur. Aflotun hakim: «Men riyozatdagi lazzatni hech narsada ko'rmadim, zeroki, vujudimning salomati, ruhimning saodatini riyozatda topdim. Shuning uchun riyozat ayni saodatdur deyaram, chunki fikrning, tilning islohi badanning riyozatiga bog'lidur», – demish.

Ibn Sino hakim: «Tan riyozatidan ko'proq ruh riyozati lozimdur. Mard kishi o'zini riyozat va adab ila ko'rsatsun, inson ila hayvon orasidagi farq yolg'uz maishatda emas, yaxshi axloq kasb qilmoqdadur», – demish.

*Riyozat mevasidur misli bodom,
Yuzi qattig' ichidur ishta in'om.
Kishin maqsudina eltar riyozat,
Riyozatsiz ish o'lg'ay besaranjom.
Agar sabr-u riyozat cheksang, ey jon,
Pishub oldingg'a tushgay mevayi xom.*

SHIJOAT

Shijoat deb botir va yurakli bo‘lmakni aytilur. Shaji kishi hech narsadan qo‘rqmaydurgan botir va yurakli bo‘lur.

Sa'y va g'ayratning ziddi dangasa va yalqovlik o'ldig'i kabi shijoatning ziddi qo'rqoqlikdur. Qo'rqoq savdogar foyda qilmas. Qo'rqoq kishi o'zining soyasidan hurkar, hech bir ish qilishga yuragi bo'lmas. Ko'p kishilar vahima va qo'rqoqlik orqasidan mollaridan, jonlaridan, vatanlaridan ayrilurlar. Shuning uchun har ishda shijoatni qo'ldan bermaslik lozimdur. Shijoat insoniyatning sof oyinasi, iffat, g'ayrat, istiqomat kabi yaxshi xulqlarning nuroniysidur. Shijoatning haqiqati qalbning matonatindan, ruhning salomatindan iboratdur. Hozirgi zamonda botirlik – boylilikda, qaysi davlat va millatning davlati bolsa, shul ustun bo'lmakdadur. Chunki hukumat uchun xalq, xalq uchun hunar, hunar uchun ilm, ilm uchun aqcha lozimdur.

Sarvatli millatlar milliyatlarini yo'qotmas, rohat va saodatda yashar. Bu kunda madaniy millatlar urushlarini tijorat va sanoatga aylاندurdilar va bu soyada bir-birlariga g'alaba va raqobat qila boshladilar. Sehr-gar va jodugarlik ila emas, tijorat va sanoatgarlik ila cholishqon Yovro'pa, Afriqo va Osiyoni o'ziga asir va musaxxar qilmakdadur.

*Bu zamonda fil ila jang aylamak erlik emas,
Er o'shaldurkim tutar ilm-u hunarning yoqasin.
Beshlab, o'nlab so'm topishsa, ilm ila ag'yorlar,
Biz bo'lub hammol, oladurmiz tiyinlab choqasin.
Boshqalar san'at, tijorat-la taraqqiy aylasa,
Bizni el tortar ayog'din o'lgan otning toqasin.*

QANOAT

Qanoat deb janobi Haq tarafidan ihson boʻlgan ahvolga yetishdigʻimiz neʻmat va molga shukr, boshimizga kelgan faqr, musibat, falokatlarga chidab, sabr qilmoqni aytilur.

Qanoat hasad, tama, hirs, xorlik kabi illatlarning davosi, nafsimizning gʻinosidur. Qanoat bir xazina-durki, naqdinasi kundan-kun ortar. Bu xazinaga ega boʻlgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar. Buning ila barobar qanoatsizlikdan paydo boʻladurgan hasad degan jonning eng zoʻr dushmanidan qutulurlar. Chin insonlar kishining molina, mulkina, saodatina, maishatina hasad qilmas, qanoatdan ayrilmas, umrini rohatda oʻtkarur. Inson har bir ishga kuchi yetguncha cholishmoq, janobi Haq taqdiridagi narsasidan nimani bersa, shunga qanoat qilmoq lozimdur. Zeroki, inson oʻz maishatini, nomusini saqlamoq uchun fidoyi jon darajasiga borguncha saʼy qilmoqgʻa buyurilmishdur, lekin bu saʼyning mashruyi har bir ishda qanoatni qoʻldan bermaslikdur. Olamda qanoat kabi dilni poklaydurgan narsa yoʻqdur. Janobi Haqning amriga itoat qanday saodat esa, taqdiriga qanoat ziyoda baxtiyorlikdur.

Hazrati Ali afandimiz: «Dunyoda saʼy-jadali ila maishat oʻtkargan qanoat egasi hech kimgʻa muhtoj boʻlmagan zoʻr boylar kabi rohatda, saodatda yashar», – demishlar.

Aflotun hakim: «Insonning saodati qanoatini qoʻlda tutmakda, sarvat va maishat toʻgʻrisida janobi Haqning taqdiriga rozi boʻlmakdadur», – demishlar.

ILM

**Ilm deb o'qimak, yozmakni yaxshi bil-
mak, har bir kerakli narsalarni o'rgan-
makni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxi-
ratning sharofatidur. Ilm inson uchun
g'oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur.**

Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilur. Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to'g'ri yo'lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas'ud bo'lishimizga sabab bo'lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur. Chunki ilmsiz kishilar ota-onasiga, qarindosh-urug'iga, yor-do'stiga, din va millatiga foyda yetkurmak bir tarafda tursun o'z ustiga lozim bo'lgan ibodat va toatni ham loyiqicha qila olmas.

Ilmning foydasi u qadar ko'pdurki, ta'rif qilg'on birla ado qilmak mumkin emasdur. Bizlarni jaholat qorong'ulig'idan qutqarur, madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug'ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa muhabbat va e'tiqodimizni ortdurur, janobi Haqning azamat va qudratini bildirur. Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidur.

Payg'ambarimiz: «Ilmga amal qilguchilardan bo'lingiz, naql va rivoyat qilguchilardan bo'lmangiz», – demishlar.

*Ilm bir daryo ichi to'lmish dur-u gavhar bilon,
Qiyamat-u qadrin qachon bilg'ay oni johil yilon.*

Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir. Shariatimizda qaysi ilmga muhtoj boʻlsang, shuni bilmak bizga farzdir. Shuning uchun oʻqimak, bilmak zamonlarini qoʻldan bermay, vujudimizning dushmani boʻlgan jaholatdan qutulmakga jonimiz boricha saʼy qilmagimiz lozimdur.

AQSOMI ILM

Ilm diniy va fanniy qismlar ila ikkiga boʻlinur. Diniy kishi boʻlmak uchun ulumi diniya oʻqumak ila barobar hisob, handasa, tarix, hikmat, kimyo, tib, ziroat ilmlari kabi fanniy ilmlarni ham bilmak, chin olim boʻlmak lozimdur.

Chunki bu ilmlarning ikkisi ham dunyo va oxiratimiz, hayot va saodatimiz uchun eng kerakli narsalardur. Oʻtkan zamondagi islom ulamolari har bir ilmga tish-tirnoqlari ila yopishdilar, oʻqidilar, oʻqitdilar, ulum va funun soyasida islomiyat taraqqiy qildi, madaniyat tarqatdi, kitobxonalar, qiroatxonalar, yetimxonalar, kambagʻalxonalar, kasalxonalar ochildi. Hozirgi musulmonlar taassub va jaholatlari ila maqtanulari kabi avvalgi zamon musulmonlari ilm va maʼrifat, kitob va asarlari ila maqtanurlar edi. Alhosil, har bir millatning taraqqiy va taoliysi yoshlarining ilm va maʼrifatiga, hunar va sanʼatiga bogʻlidir.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Ilm oʻqimak har bir moʻmin er-u xotunga farzdir», – demishlar.

Ajabo, Qurʼonimiz, Paygʻambarimiz oʻqingiz, deb amr qilgʻon holda, bizlar na uchun harakat qilmaymiz,

qimirlamaymiz. Boshqa millatlarning o'g'ullari, qizlari kecha demay, kunduz demay, yoz demay, qish demay ilm yo'lida jonlarini fido qilub, quvushub, yugurushub, ko'zlarimizni qamashdirub turgan bir zamonda bizlar hamon uyqudan, g'aflatdan, jaholatdan boshimizni ko'tarmaymiz, ibrat olmaymiz.

Payg'ambarimiz: «Olim bo'l, ilm talab qiluvchi bo'l, yoki ilmni eshituvchi bo'l, hech bo'lmasa shularga muhabbat qiluvchi bo'l, beshinchisi bo'lma, halok bo'lursan», – demadilarmu?

*Topar ilm ila odam og'li kamol,
Yeturmas kamola jamol ila mol.
Kerak o'rtanur ilm uchun shamdek,
Tanumoq Xudoni ilmsiz mahol.
Talabgor o'lur ilma oqil kishi,
Sotar ilm bozori moli halol.
Talab aylamak farzdur bizga ilm,
Bu amr uzradur er-xotun, yosh, chol.*

SABR

Sabr deb boshimizga kelgan balo va qazolarga chidamli bo'lmakni aytilur.

Har bir ishda sabr va sovuqqonlik ila harakat qil-mak lozimdur. Chunki boshimizga keladurg'on balo va qazo, zahmat va mashaqqatlarning barchasi janobi Haqning irodasi ila o'ldig'i uchun bularg'a sabrsizlik qilgan kishilar ajr va savobdin quruq qolurlar. Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi haq so-birlarni suyar.

Qur'oni Karim ichida ko'p yerda sabrni, sobirlarni madh qilmishdur. Shariati islomiyada janobi Haq tara-

fidan kelgan balo va qazogʻa sabr qilmoq farzi ayndur. Inson har bir ishni sabr va matonat ila yurutsa, maqsudiga tinch va rohatda borub yetar. Hamisha saodatda yashar.

*Sekin borgan kishi maqsuda yetgay,
Shoshub besabrlar kaj yoʻlga ketgay.
Agar sabring boʻlsa nafsingga yoʻldosh,
Seni tavfiqi rabboniga eltgay.*

Nafsini sabr ila rom qilgan kishi har ishda oshiqmay, ohista harakat qilur. Nafsini halokatdan, gʻururdan saqlar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, gʻazabni shijoatga, shiddatni hilmga, kattalikni tavozuga, yomonlikni yaxshilikgʻa aylandurmakgʻa quvvati yetar. Shul xususda soʻylanmish bir hadisi sharifning maʼnosi «Ilm imonli kishilarning muhibi, hilm homiysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat volidi, afv axavoni, sabr hokimi vijdonidur», – deyilmish.

Arablar: «Assabru miftohul-farah» – «Sabr shodligʻning kalididur», – deyurlar.

*Sabr ila har mushkul ish zoyil boʻlur,
Sabr edan maqsudina noyil boʻlur.
Har kishida boʻlmasa sabri jamil,
Nafs koʻyina yurub soyil boʻlur.
Sabr qilsang, gʻoʻradan halvo bitar,
Sabrsizlar oʻz oyogʻidan yitar.*

HILM

Hilm deb bo‘lar-bo‘lmas ishga ach-chig‘lanmaydurgan, arslon yurakli, yumshoq tabiatli bo‘lmoqni aytilur.

Hilm insonlarning tab‘idan xusumat, adovat, g‘azab, hiddat kabi yomon xulqlarni yo‘q qiladurgan har kimcha maqbul bir sifatdur. Hilm ilmi axloq yuzasidan insonga eng kerakli narsadur.

Nafsning rohati, qalbning matonati, fikrning salomati, vijdonning halovati halim tabiat bo‘lmoq ila hosil bo‘lur.

Chunki halim kishilar har qancha quvvat va qudrat sohibi bo‘lsa ham, o‘zidan ojiz kishilarga shiddat ila muomala qilmas. Fikri salomat kishilarning qalbi halim, tab‘i karim o‘lur. Zeroki, vujudimizdan paydo bo‘ladirgan af‘ol va harakotimizning manbayi havas va orzudur. Bu havas va orzuga faqat hilm ila g‘olib kelurmiz va bu vasila ila to‘g‘ri yo‘lga kirub, yaxshi xulq sohibi, din va millat xodimlaridan bo‘lurmiz. Dunyoda chin inson bo‘lmak uchun havasning qo‘liga nafsning jilovini bermaydirgan, bo‘lar-bo‘lmas narsalardan ach-chig‘lanmaydurgan, sovuqqonli, yumshoq tabiatli, muloyim so‘zli, halim va sabrli bo‘lmak lozimdur.

*Zotiga, hilmiyati mavsuf qilsa har kishi,
Ikki olamda bo‘lur rohat, halovatda ishi.*

Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: «Al-hilmu sayyidal axloq – Hilm xulqlarning sayyididur», – demishlar.

Suqrot hakim: «Shiddat ila muomala qilgan kishilarga man viqor va halimlik ila muqobila qilurman, chunki hilm shiddatni, xusumatni past qilur. Lekin kishini ojiz va xorlik darajasiga tushuradurgan halimlikdan man bezor», – demish.

Bu soʻzga qaraganda saxovatning ifroti isrof oʻldigʻi kabi oʻrinsiz yerda hilm isteʼmol qilmak insonning viqor va eʼtiborini poymol qilur. Shuning uchun hilm-yat hududidan – chegarasidan chiqmay, gʻazab, hiddat kabi yerlarda hilm isteʼmol qilub, nafsning haroratini past qilmolidur. Lekin tepsa tebranmaydurgan, turt-sa ting etmaydigan boʻlub, gʻayrat, shijoat oʻrinlariga ham muloyimlik ishlatuv halimlik hududidan oshub, boʻshlik, anqovlik dunyosiga chiqmakdur. Bunday halimlikdan qochmak, hazar qilmak kerak.

*Halimlikni qilsang agar ixtiyor,
Boʻlur xalqi olam sanga doʻst-u yor.
Boʻlur mevalik shoxni boshi past,
Halim oʻlgʻusi oqili hushyor.*

INTIZOM

Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini oʻz vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom boʻlmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar.

Janobi Haq yer-u osmonlarni, oy va yulduzlarni, inson va hayvonlarni, qurt va qushlarni shunday bir nizom ila tarbiyat berib yaratmishdurki, aql bilmakdan, qalam yozmakdan, til soʻzlamakdan ojizdur. Dunyoga kelgan paygʻambarlarning har birlari din

va shariatlarini tarbiyat va nizom ila yurutmishlar. Xususan, islom dini mukammal ravishda tartib va nizomni rioya qilmishdur. Va bu soyada ozgina zamonda islom urug'leri butun dunyo yuziga yoyilmishdur. Islom davlatlarining barposi nizom va intizom ila o'ldig'i kadi barbod va inqirozi ham tartib va nizomsizlik ila bo'lmishdur. «Xayr, o'tkan ishga salovat». Alhosil, har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlarini vaqtida nizomdan chiqarmay tartibi ila yurutmag'a bog'lidur. Shogirdlar maktab va madrasalardagi zamonga muvofiq ravishda qurilmish, nizom va tartiblarni rioya qilmaklari lozimdur. Chunki tartib va nizomni rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o'zlari parishon bo'lurlar. Ammo ishlarini tartib uzra yurutgan kishilarning ishlari yerida, o'zlari tinch va rohatda umr o'tkarurlar. Hozirgi zamonda bizning Turkiston boylarining ishlari to'xtab, sinuvlarining birinchi sababi ishlarini axloqsiz, bilimsiz, musrif, yalqov kishilarga topshiruvlari ila barobar o'zlarining zamonga muvofiq tartib va nizomdan xabarsizliklarining yemushidur. Payg'ambarimiz: «Kasblarning ortug'roqi xiyonatsiz, yolg'onsiz qilg'on savdo va tijorat ila bandaning o'z qo'li birlan ishlagan ishidur», – demishlar.

Davlatni koni, manbaya tartib-intizom,

Sarvatni poydori erur iqtisodi tom.

Muhtojlig' yuzini ko'rar deb gumon qilmang,

Tartibi birla yursa, kishining ishi mudom.

MIQYOSI NAFS

Miqyosi nafs deb qiladurgan amallarimizni, ishlarimizni shariat, insoniyat qonuniga muvofiq o'lub, o'lmaydig'ini vijdonimiz ila o'lchab ko'rmakni aytilur.

Nafs o'lchovi haqiqiy bir o'lchovdurki, insonning o'z nafsiga loyiq ko'rmagan muomalani boshqalar haqida ijro etmoqg'a qo'ymas, fikr egalari, insof sohiblari har vaqt nafs o'lchovidan tashqari harakat qilmas. Agarda bir sabab ila shariat hukmidan, insoniyat qonunidan chet ketsa, bu qabohatini nafs o'lchovi ila bilub, ikkinchi martaba qilmasga qasd va niyat qilub, shariat nizomidan, insoniyat chizig'idan chiqmaslikg'a sa'y va g'ayrat qilur.

Alhosil, nafs o'lchovi ta'rifdan tashqari insonlar uchun eng foydali, har kimcha maqbul buyuk bir fazilatdur. Buyuk Iskandar: «Dunyoda eng haqiqiy, to'g'ri o'lchov nafs o'lchovidurki, bu mezonda zarra nuqson yo'qdur», – demish.

Ibn Sino hakim: «Insonning fazl-u kamolining o'lchovi nafsning o'lchovi ila o'lchanur», – demish.

*Dunyoda har narsaning maxsus o'lchovi bo'lar,
Banda af'olini vijdoni ila tortib ko'rar.
Bir ishiga vaznda kelsa og'ir o'z nafsiga,
Ul ishing qandog' bo'laklarga ravo, loyiq ko'rar.*

VIJDON

Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgan hissiyot, ya'ni sezuv – tuy-maqdan iborat ma'naviy quvvatni aytilur.

Biz har vaqt af'ol va harakotimizni yaxshi va yomonlig'ini, foyda va zararlig'ini onjaq vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o'z kamchiliklarini o'lchab bil-mak ila barobar boshqalarning ham af'ol va harako-tini sezur. Agar ishlagan ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur. Biz janobi Haqning amr va nahyini fikr va ruhimizning ma'naviy quvvati o'lan vij-donimiz ila ayira bilurmiz.

Vijdon yaxshi xulqlarning manbayi o'ldig'indan vijdon sohiblari har bir ish-ni beg'araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo'lur.

Ammo vijdonsiz kishilarning ishlarida niyat va amallarida, do'st va oshnoliqlarida yashirin bir g'araz-lari o'ldig'indan har vaqt hasrat va nadomat chekub, vijdon azobig'a giriftor bo'lurlar.

*Har bir insonning haqiqiy foili vijdonidur,
Mevasi yaxshi amaldur, hosili vijdonidur.*

Inson diniy vazifalarining uluvviyatini vijdoni soyasi-da taqdir qila bilur. Chunki, vijdoni salomat kishilar imon va e'tiqodlarini kamolga yetkurmak uchun ja-

nobi Haqning buyruqlarini din va millatg'a foydali ishlarni shod va xurramlik ila ishlar. Alhosil, vijdon har kimning af'ol va harakatini ko'rsatadurgan musaffo bir oyinadurki, bu ko'zguga chin nazar qilg'an kishi o'z ayb va kamchiliklarini tuzatmak harakatida bo'lub, boshqalarning ayb va qusurlarini axtarmoqg'a vaqti bo'lmas. Bizim islomiyatda vijdon axloqining islohi uchun sa'y-harakat qilmak lozim o'ldig'indan shul doirada harakat qilg'on kishilar ikki jahonda aziz va mukarram bo'lurlar.

Arastu hakim: «Ruhimizning ma'naviy quvati o'lan vijdonimiz, fikrimizga quvvat berguvchi bir vositayi idrokiya deyilur. Ya'ni, hissiyotimizning ruhimizga ta'sir ettirg'uvchi bir robitayi ilktiriqiyyasidur», – demish.

Ibn Sino hakim: «Vijdon ruh va fikrimizni tuyg'un qilmakg'a birinchi vositadur», – demish.

*Sof vijdon kabi hech komila mezon o'lmaz,
Kishi o'z aybini bilmak kabi urfon o'lmaz.
Shod-masrur o'lur insof ila vijdonli kishi,
Kimki vijdonsiz esa, to'g'ri, chin inson o'lmaz.*

VATANNI SUYMAK

Vatan. Har bir kishining tug'ulub o'skan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur.

Har kim tug'ulgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo'lub, har vaqt dilining bir go' shasida o'z vatanining muhabbati turar. Biz turkistonlilar o'z vatanimizni jonimizdan ortiq

suydigimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik, issig' cho'llarini, eskimular shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarin tashlab hijrat qilurlar edi.

Bobolarimiz «Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l», – demishlar.

*Men ayblik emas, ey vatanim, tog'larim,
Bevaqt tashlab ketdim, oyo, bog'larim.
Hijron qilodur meni judolig',
Do'ndi g'ama ro'z-u shab-u chog'larim.*

Hammaga ma'lumdurki, eng muqaddas diniy yerimiz o'lan Arabistonga bog'larini, hovlilarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o'z vatanlariga qaytub kelurlar. Buning sababi, ya'ni bularni tortib keturgan quvvat o'z vatanlarining, tuproqlarining mehr-u mahabbatidir.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Hubbul vatani minal imoni – vatanni suymak imondandur», – demishlar.

*Vatan, vatan deya jonim tanimdan o'lsa ravon,
Banga na g'am, qolur avlodima uy-u vatanim.
G'ubora do'nsa g'amim yo'q vujud zeri vahm,
Charoki o'z vatanim hokidur go'r-u kafanim.
Tug'ub o'san yerim ushbu vatan vujudim xok,
O'lursa aslina roje' bo'lurmi man g'amnok?*

HAQQONIYAT

Haqqoniyat deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikni aytilur. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga haqqoniyat yo'li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o'lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarining onasi haqqoniyatdur.

Janobi Haqning shu nomi muborakini muqaddas bilgan kishi hech vaqt haqqoniyatdan ayrilmas, chunki haqqoniyat nuri qaysi dilda jilvagar o'lsa, janobi Haqning tavfiqi rabboniysi shu dilda nash'u namo qilur. Aql egalari, vijdon sohiblari har vaqt ko'rgan, qilgan va bilganlarini, haqiqatni va to'g'risini so'zlar.

Rostlig' haqning rizosini topar,

To'g'ri yo'lda yo'q bo'lurmu hech chopar?

Bizim shariati islomiyada agar bir kishining haqiga bo'hton qilinub, qilmagan ishni qildi deb so'z so'ylansa, bilgan kishi rostini so'zlab, shul kishini oqlamak vojibdur.

Rasuli akram nabiiyi muhataram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Annajotu fissiddiqi – najot rostlikdadur», – demishlar.

Hazrati mavlono Rumi: «Islomiyat ayni haqqoniyatdur. Haqni qabul qiluvchilar huquqi shar'iyani saqlamoqg'a buyurulmishdurlar. Chunki shariat hukmlarining eng asosiy ildizi haqqoniyatdan iboratdur», – demishlar.

*Haqshunoslik o'lmoq sharofatdur jahonda odama,
Haqni izhor aylamak birla ko'ruk ver olama.
Yarashur insona sidq-u to'g'rilik gar ko'rsa girih,
To'g'rining yordamchisidur haq taolo g'am yema.
To'g'rilarning maskani firdavs ayvonidadur,
Egrilar ikki jahonda g'am-alam konidadur.*

NAZARI IBRAT

Nazari ibrat deb har bir narsaga sinchiklab boqub, shundan o'ziga bir hissa ibrat olmoqni aytilur. Xulqlarning eng afzali, insonlar uchun eng keraklisi nazari ibratdur.

Inson nazari ila boqub dunyo kitobindan o'z qadr-hissasini bilub olmak lozimdur. Ma'rifat sohibi bo'lmak uchun ahvoli olamdan xabardor bo'lmak kerak. Shuning uchun aql sohiblari, fatonat egalari o'zlariga foydasi bo'lsa-bo'lmasa sinchiklab qaragan narsalardan bir hissa olmay qo'ymaslar. Hozirgi zamondagi taraqqiy qilgan millatlarning hunar va san'atlarining barchasi ilmi va nazari ibrat soyasida namoyon o'lub, olamni munavvar va musaxxar qilmishlar. Bizim shariati islomiyada har narsani e'tiborga olub, shundan ibrat hosil qilub, axloqini tuzatmak vojibdur.

Hazrati Ali raziyallohu anhu: «Dunyoda eng muntazam dorululum nazari ibratdur. Ibrat ko'zlarining pardasi ochilmagan kishilar dunyo kitobida yozilgan haqiqatni ko'rolmaslar. Koinot kabi mukammal bir sahnayi ibratdan foydalana olmagan kishi hech bir muallimi hikmatdan bahramand bo'lolmas», – demishlar.

Mavloni Rumiy: «Janobi Haqning osori qudratlarini basirat ko'z ila, nazari ibrat ila tamosha qilinsa, ko'p

hikmatlar koʻrilur. Chunki haqiqat ilmining muallimi chashmi ibratdur. Haq chashmi ibrat ila mushohada qilinur», – demishlar.

Bir koʻr hazrati Luqmonning oldilariga kelub, «agar koʻzimni ochsangiz, men sizga qul boʻlurman», – demish. Hakim koʻrni maʼrifat sohibi ekanini bilub, jonim, koʻzingning pardasini ochmoq mumkin, lekin nazari ibratni ochmoq qoʻlimdan kelmaydur», – demishlar. Koʻr: «Yo Luqmon! Sizning shuhratingiz faqat parda ochmoqdan iborat boʻlsa, sizni hakim demay tabib demak lozim ekan», – deb hazrati Luqmonning ibrat koʻzini ochmishdur.

Janobi Haq biz musulmonlarning ham koʻzimizdan gʻaflat pardasini koʻtarub, ibrat koʻzlarimizni ochsa edi...

*Och koʻzlaringni, bas, bu qadar gʻaflat, ey koʻzim,
Umring gʻanimat, och nazari ibrat, ey koʻzim!
Ibrat koʻzingni ochmasang, atrofingga boqub,
Bir-bir ketar qoʻlingdan uchub davlat, ey koʻzim!
Mol oʻlsa borcha hamdam-u yor-u birodaring,
Qochgay urugʻlaring yoʻq esa, sarvat, ey koʻzim!
Hosili zamonda ilm ila davlatda eʼtibor,
Sarmoyayi saodat har millat, ey koʻzim.*

IFFAT

Iffat deb nafsimizni gunoh va buzuq ishlardan saqlamoqni aytilur. Bizlarni gunoh va ma'siyatdan saqlaguvchi, harom-harishdan nafsimizni asraguvchi faqat iffatimizdur.

Axloq sohibi, iffat egasi qalbini, vijdonini poklab, tilini yolg'on, g'iybat, bo'hton, molya'ni kabi yomon so'zlardan saqlar. Chunki insonga iffatidan ko'proq til iffati lozimdir. Boshimizga keladurgan kulfat va zahmatlarning aksari yomon tilimizdan, andozadan ortuq so'ylaganimizdan kelur.

O'ylamay so'ylagan og'rimay o'lar,

Fikr ila soylagan yig'lamay kular.

Iffat erlardan ko'proq xotunlar uchun olmosdan qimmat, injudan qadri ziynat va fazilatdur. Iffatli kishi har vaqt nazari ibrat ila harakat qilur. Kecha va kunduz fikri, zikri vatandoshlariga, qarindoshlariga yaxshilik, xayrixohlikdan iborat bo'lur. So'zida, fe'lida sodiq bo'lub, vijdonga ters, insoniyatga kelishmagan muomaladan hazar qilur.

Hazrati Ali raziallohu anhu: «Iffat xotunlarning eng ziynatli libosi, erlarning sarmoyayi ulviyatidur», – demishlar.

Hazrati Luqmon: «Iffat nomusning eng mahkam suyanchig'idur. Nafsning hujumiga shul quvvat ila muqobala qilinur», – demishlar.

Aflotun hakim: «Iffat xotundan ko'proq erlarga yarashadurgan bir sifatdur. Xotun iffati adab va no-

musini saqlovdur. Erlarning iffati butun insoniyat adablariga shomildur. Iffatsiz inson yalang'och jasad kabidur», – demishlar.

*Zotingga ziynat o'lan iffatni dilda saqlagil,
Shahvat nafsing seni bolg'usidur aqlingg'a qul.
Har kishining dunyoda yirtilsa iffat pardasi,
Nafsi shaytondek ani bir kun solur bo'yniga g'ul.*

HAYO

**Hayo deb ishda, so'zda adabni rioya qil-
makni aytilur. Hayo dilni ravshan qiladur-
gan bir nurdurki, inson har vaqt shul
ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdur.**

Shariat buyurmagan, odamlar suymagan ishlarni ishlamak – g'iybat, hajv, masxara, safsata, so'kuv kabi odamlarning nafsiga, iffatiga tegadurgan adabsiz so'zlarni so'zlamak zo'r hayosizlikdur. Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodur. Shuning uchun har bir harakatimizda, so'zimizda hayoni qo'ldan bermaslik lozimdur. Hayo pardasi ila o'ralmish insonlarning iffat pardasi yirtilmas. Va bu chodir shunday muborakdurki, ancha-muncha sahv-xatolarni berkitub yo'q qilur.

Ibn Sino hakim: «Insonda doim turadurgan husn va latofat hayo ila iffatdur. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidur», – demish.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: «Alhayo minal imoni – Hayo imondandur», «Izo lam tastah faasna' moshi'ta – Hayo qilmaz esang, istagan ishingni ishla», – demishlar.

Muhiddin: «Insonning suratidagi qizillik sekin-sekin ketar, hayo qizilligi aslo ketmas. Yoshlik husnining qizil rangi hayo ila ziynat-latofatga ega bo'lar», – demishlar.

Suqrot hakim: «Xotunlarning eng go'zali hayo va iffat pardasiga o'ralganlaridur», – demish.

*Hayo nomus, imona dalildur,
Hayosiz doimo xor-u zalildur.
Uyalma ma'rifat hosil qiluvdan,
Maorifsiz kishilar murda dildur.*

IDROK VA ZAKO

Idrok va zako deb ochuq fikrli, xushtabiat, ziyrak bo'lmakni aytilur. Idrok va zako yaxshi xulqlarning ravzayi rizvoni, ibrat ko'zlarining nuri rahmoniysidur.

Chunki idrokli kishilarning har bir maqsadi ostida yashirin o'lg'an zamirlarning ma'nolari na yerdan borib chiqishini bilur. Ilm-u ma'rifat sohibi bo'lmak uchun sa'y va g'ayrat kerak o'ldig'i kabi zehn va idrokning ham salomat bo'lmog'i shartdur. Shuning uchun yoshlikdan boshlab zehn va idrokimizni quvvatlandurmak uchun aziz umrimizni o'yin-kulgi, safsata, moloya'ni kabi behuda so'zlar ila o'tkarmay, har xil kitob, g'azita va jurnallarni o'qub, fikrimizni ochmoq, zehnimizni quvvatlandurmak lozimdur. Zehnsiz kishilarning o'lchovsiz so'zlari o'zlarini uyaltirgoni kabi eshituvchini ham zeriktirur.

*Har kishining fikr, idrokin so'zi bildurg'usi,
Pistayi bemag'z agar lab ochsa rasvo bo'lg'usi.*

Idrok sohibi oʻzini fozil va ulugʻ bilub hamjinslariga haqorat koʻz ila boqub: «Bilasanmi? Man qanday boy va obroʻli kishiman», – deb maqtanub, oʻzini katta qilub koʻrsatmas. Ustiga yuklangan diniy, milliy va maishiy vazifalarini har birini oʻz vaqtida ado qilur. Mana, shunday kishilar ikki dunyoda obroʻlik boʻlub oʻlganlaridan soʻng «faloni xoʻb, yaxshi zot edi, Xudo rahmat qilsun, millatga koʻp xizmat qildi, xalqgʻa foyda yetkurdi», deb boshqalar tarafidan maqtalurlar. Hushyor va ziyrak kishilar kuch va quvvatlari bor vaqtida keladurgan zamonlarini tushunib, pul va mollarini oʻrinsiz yerlarga, toʻy va maʼrakalarga haddan ortiqcha isrof qilmaslar, oʻzlarining rohati, bola-chaqalarining saodati uchun kerak boʻladurgan yer va bogʻlarini sotmaslar, zamonaga muvofiq kishi qilmak uchun bolalarini oʻqitmak va tarbiya qilmak toʻgʻrisida aqchalarini aslo qizgʻanmaslar.

*Idrok ila aqling-la ayur yaxshi yomonni,
Behudaga sarf etma shu qimmatli zamonni,
Saʼy et, jadal et, ilm-u fununa harakat qil,
Boq, nayladilar hikmat ila ushbu jahonni.*

HIFZI LISON

Hifzi lison deb har bir millat oʻz ona til va adabiyotini saqlamagini aytilur. Har bir millatning dunyoda borligʻin koʻrsatadurgan oyinayi hayoti til va adbiyotidur.

Milliy tilni yoʻqotmak millatning ruhini yoʻqotmaktur. Hayhot! Biz turkistonlilar milliy tilni saqlamak bir tarafda tursun kundan-kun unutmak va yoʻqotmadadurmiz. Tilni oʻz yerinda ishlatmak va soʻzlamak

lozimdur. Zig'ir yog'i solub moshkichiri kabi qilub, aralash-quralash qilmak tilning ruhini buzadur. «Yohu! Bizga na bo'ldi? Bobolarimiz yo'lidan chiqub ketduk. Yaxshi qo'shningdan olguncha yomon uyingni qidir», – demishlar. Bobolarimizga yetushg'on va yaragan muqaddas til va adabiyot bizga hech kamlik qilmas. O'z uyimizni qidirsak va axtarsak yo'qolganlarini ham toparmiz. «Yo'qolsa yo'qolsun, o'zi boshingga tor edi», – deb Yovrupo qalpog'ini kiyub, kulgi bo'lmak zo'r ayb va uyatdur.

Payg'ambarimiz: «Erlarda jamol lison va tildur», – demishlar.

*Ey ona til, aziz qadrdonim,
Iltifoti ruhim, Rahmonim.
Tug'dig'im kundan aylading ulfat,
O'lguncha ayilma, ey jonim.
Menga ilm-u adab san o'rgatding,
Chin adib, muallim, shonim.
Millatning ruhini ko'targuchisan,
Ey muqaddas karamli sultonim.*

Umumiy milliy tilni saqlamak ila barobar xususiy og'iz orasidagi tilni ham saqlamak lozimdur.

Chunki so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadurgan tarozusidur.

Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan bilurlar. «Quruq so'z quloqqa yoqmas» – demishlar. Agar so'z aql va hikmatga muvofiq bo'lub, o'ziga yoki

eshituvchiga bir foyda chiqadurgan boʻlmasa, asarilari orasida gʻungʻullab yurgan qovoqari kabi quruq gʻoʻngʻullamoq faqat bosh ogʻrigʻidan boshqa bir narsa emasdur. Boshimizga keladurgan qattigʻ kulfatlarning koʻpi yumshoq tilimizdan keladur. Shuning uchun: «Koʻp oʻyla, oz soʻyla», – demishlar.

Tillarning eng yaxshisi soʻzga usta til, soʻzlarning eng yaxshisi bilub, oxirini oʻylab soʻylangan soʻzdur.

Goʻzallik yuzda ermas, ey birodar,
 Soʻzi shirin kishi har kimga yoqar.
 Soʻzing oz boʻlsinu maʼnoli boʻlsun,
 Eshitkanlar qulogʻi durga toʻlsun.
 Soʻzing boʻlsa kumush, jim turmak oltin,
 Misi chiqgʻay soʻzing koʻp boʻlsa bir kun.
 Koʻpaygan soʻzni boʻlgay toʻgʻrisi oz,
 Shakarning koʻpidan ozi boʻlur soz.

IQTISOD

Iqtisod deb pul va mol kabi neʼmatlarning qadrini bilmakni aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar oʻrinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, oʻrni kelganda soʻmni ayammas.

Saxovatning ziddi baxillik oʻldigʻ kabi iqtisodning ziddi isrofdur. Alloh taolo isrof qilguvchilarni suymas. Iqtisodni rioya qilgan kishilar hamma vaqt tinch va rohatda yasharlar. Arilar qish kunida yemak uchun bol yigʻganidek, boshlariga keladurgan qora kunlarni oʻylab, oq pul yigʻurlar. «Toma-toma koʻl boʻlur», – demishlar. Har narsa ozdan koʻpayur.

*Ko'pni ozaytirg'uvchi xotun kishi,
Ozni ko'payturmak erur er ishi.*

Hozirgi zamonda maqsudga yetmak, o'z millatiga xizmat qilmak, xalqg'a maqbul bo'lmak uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliqlari ila o'lchanur. Har yerda boy millatlar og'ir kelub, pallani bosub xo'ja o'lganidek, faqirlari yengil kelub, qul va asir bo'lub, osilib qoladur.

Mol topmakning eng barakatli yo'nlari: hunarchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdur.

Bularning har biriga ham bu zamonimizda bilim lozimdur. Bobolarimizning «Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar» zamonlari o'tub, o'rniga «Bilgan bitar, bilmagan yitar» zamoni keldi.

Amerikalilar bir dona bug'doy ekib, yigirma qadoq bug'doy olurlar, yovrupolilar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga yigirma besh tiyinga soturlar. Ammo biz osiyoliklar, xususan, turkistonliklar, dumba sotub, chandir chaynaymiz: qaymoq berub, sut oshiyimiz, non o'rniga kesak tishlaymiz. So'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lmak uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas sa'y, bitmas g'ayrat lozimdur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «So'ng zamonlarda dinni saqlamak mol ila bo'lur. Iqtisod uzra harakatli kishilar faqir bo'lmas», – demishlar.

Yana «Har narsada o'rta iqtisod yo'lini tutmak lozimdur. Ifrot va tafritdan ihtiroz qilmak kerak, hatto

din amrinda ham bir odam ortuq sufiylik sotsa, oxirinda o'zi mag'lub bo'lur», – demishlar.

*Xalq ichinda mo'tabar bir narsa yo'q davlat kabi,
Bo'lmag'ay davlat jahonda quvvat-u sihat kabi.
Iqtisod, insof ziynatdur vujudi odama,
Yaxshi ne'mat yo'q kishiga sa'y ila g'ayrat kabi.*

VIQOR

Viqor deb kibr va g'ururdan, manmanlikdan o'z nafsini saqlamakni aytilur. Viqor shar va hikmat yuzasidan inson uchun eng kerakli yaxshi xulqlarning biridur.

Viqorsiz odam e'tiborsiz boyga, kibrli kishi illatli faqirga o'xshaydur. Har kimning qadr va e'tibori nafsining viqori ila o'lchanur. Vuqur ishilar kibr va g'ururga aslo yaqin yurmaslar. Chunki g'urur, manmanlik, takabburlik kishini xor, xalq orasida bee'tibor qilur, har qancha ilm va davlat sohibi bo'lsa ham, bir pulcha qadr va qiymati bo'lmas. «Mani bilursanmi? Munday qilurman, unday saxovat qilurman», – deb o'zini-o'zi maqtamoqlik, riyokorlik, zo'r ayb va viqorsizlikdur. Viqorli kishi yomon xulqlardan pok, adolatli, ishida, so'zida to'g'ri, shafqat va marhamatli, o'z dindoshlariga xayrixoh, millat foydasiga tirtishuvchi, sof qalbli, arslon yurakli bo'lur.

Hazrati Ali: «Viqor kishi kibr va g'ururdan pok bo'lur. Viqor odamgarchilikning madori, iftixori, insoniyatning homiyi e'tiboridur. Lekin viqorning haqiqiy darajasiga yetmak uchun ilm va ma'rifat lozimdur», – demishlar.

Afsus bu zamonda biz m e'tibor yo'q,
Yosh-u qarida g'ayrat-u nomus-u or yo'q.
Fisq-u fujur ila giriftor barcha jon,
Ilmi amalda bizda sabot, viqor yo'q.
O'tmoqda umr hoyi havas birla bar havo,
Millat g'amini o'ylag'uvchi hushyor yo'q.

XAVF VA RAJO

Xavf va rajo deb qo'rqmoq va umidvor bo'lmoqni aytilur. Banda har ishda janobi Haqdan qo'rqmoq ila barobar umidini ham uzmaslik lozimdur.

Chunki janobi Haqdan qo'rqg'an inson hech narsadan qo'rqmas. Har vaqt janobi Haqning lutf va marhamatiga umid ko'zlarini tikub turar.

Xavf va rajo shunday bir yaxshi sifatdurki, bu xislatni o'ziga hamroh qilgan kishi eng fozil, hech narsadan qo'rqmaydurgan sher tabiatli, arslon yurakli bo'lur.

Hazrati Ibrohim alayhissalomni Namrud otashka tashlay deb turgan zamonda: «Yo Ibrohim! Siz meni bu haroratli otashimdan qo'rqmaysizmi?» – emish. Hazrat Ibrohim: «Ey zolim! Alloh taolodan qo'rqg'an kishi Namrudning otashidan qo'rqarmi?» – demishlar.

Hech kishidan qo'rqmag'ay tangrisidan qo'rqg'an kishi Otasha yondursalar, bo'lgay umid birla ishi.

Dunyoda umiddan yaxshi narsa yoʻqdur. Hamma insonlar umid orqasida yasharlar. Nourmid shayton-dur, umidsiz kun kechurmak mumkin emasdur. Boy-lar mol umidida, shogirdlar ilm umidida kecha-kunduz tirtishurlar. Agar boylik, olimlik umidi boʻlmasa edi, kecha-kunduz jonlarini fido qilub, koʻzlarining nurlari-ni umid orqasida toʻkmas edilar.

*Umid gar oʻlmasaydi, hech hayota qiymat oʻlmazdi,
Nizom-u, intizom-u tarbiyat ham davlat olmazdi.
Jahon ayvoni boʻyla ziynatoro boʻlmasay ay erdi,
Hukumat, taxt-u, baxt-u saʼy birlan gʻayrat oʻlmazdi.*

ITOAT

Itoat deb boʻyinsunmakni aytilur. Al-loh taoloning amriga boyinsunuv, ibo-dat va itoat qilmak farzi ayndur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh taoloning amriga muxolif boʻlgan holda hech kimning amriga itoat qilmak vojib emasdur», – demishlar.

Ota-ona, ustod, muallim kabi oʻzidan ulugʻ kishilarga boʻyinsunub itoat qil-mak eng yaxshi sifatlardandur.

Bu sifatga ega boʻlmak uchun har vaqt bularning foydali kengash va nasihatlarini tinglab, buyruqlarini mahkam tutmak lozimdur. Chunki onlar dunyoga biz-dan ilgari kelganlar, bizdan koʻproq tajriba hosil qil-ganlar, vatan va millatning holiga oshno boʻlganlar. Tabiblar dardlarga davo hozirlagandek, bular ham tur-

mush va yashamakning ofati bo'lgan faqirlik, yalqovlik, nodonlik kabi vujudimizni churitadurgan marazlarga davo hozirlaganlar. Shuning uchun bizga qilgan xolisona beg'araz nasihatlar hozirda og'ir va achchig' ko'rinsa ham, oxiri rohat va totli bo'lub chiqar.

*Nasihati bo'lsa xoli gar g'arazdan,
Achchig' doru kabi saqlar marazdan.
Biza lozim erur bilmoq, eshitmoq,
Ziyondan boshqa bir shay yo'q g'arazdan.*

HAQSHUNOSLIK

Haqshunoslik deb bir kishining qilgan yaxshiligini unutmashni aytilur. Butun olamdagi insonlar haqshunoslik va do'stlik orqasida yasharlar.

Qars ikki qo'ldan chiqar. Shariatda yaxshilik qilgan kishiga yaxshilik qilmasi vojibdur. Hukamolar yomonlik qilg'on kishiga ham yaxshilik qilmasi lozimdir, derlar.

Hosil, yaxshilikdan zarar ko'rgan, boshi yorilgan kishi yo'qdur. Yaxshilikdan do'stlik, mehribonlik tug'ar, ikki ko'ngil orasida ulfat va muhabbat cho'juqlari yugurishar, quvusharlar. Bu do'stlikni jamol va kamoli haqshunoslikdurki, birovdan ko'rgan yaxshilikni unutmay, shuning barobariga biz ham o'z vazifamizni ado qilmasi lozim ekan, hech bo'lmasa, taqdir qilmasi ila birodarlik va do'stlik hurmatini ado qilmokimiz lozimdur. Chunki, mo'min birodari mo'mindur.

*Dildan dil uzra ochiladur ikki xil yo'li,
Mehra mehr yo'li ochilur, kina kin yo'li.*

Ma'lumdirki, har bir millatning taraqqiy va taoliysi o'z millatiga jon, mol, qalam ila ishlagan kishilarning xizmatlarini taqdir qilub, vazifalar, haykallar, qalamlar ila yod qilub, o'tub ketgan bahodir, olim va shoirlarining ruhlarini shod qilub, ishlovchi kishilarning g'ayrat va jasoratlarini ziyoda qilmakda ekan. Afsus, bizlar taqdir qilmak bir tarafda tursun, tahqir, masxara, hatto takfir qilmak ila qarshu olurmiz.

*Yaxshi ishdur haqni taqdir aylamak har xizmata,
Haqshunos o'lmak haqiqiy bir quvvatdur millata.
Haqshunos o'lmakla mashhur erdilar Payg'ambarim,
To'g'ri yo'lni tashlamak aslo yoqshamas ummata.*

XAYRIXOHLIK

Xayrixohlik deb nima ila bo'lsa bo'lsun bir-birimizga foyda yetkurmakni aytilur. Xayrixohlik birbirimizga qarshu ishlatiladurgan bir vazifayi insoniyadurki, kishi o'z nafsiga loyiq ko'rmagan bir ishni boshqa bir musulmon qarindoshiga munosib ko'rmasdan egri yo'llardan, yomon ishlardan kuch yetganicha qaytarmak va yordam qilmak lozimdur.

Janobi Haq insonlarni birini digarining yordamiga muhtoj qilub yaratmishdur. Shuning uchun yer yuzidagi insonlar zamonaning qurgan nizom va qonuni uzra biri ikkinchisining yordami ila umr o'tkarur. Bir kishi har qancha boy va e'tiborli bo'lsa ham, hech vaqt muhtojlik balosidan qutulolmas.

*Hammolning og'ir bo'lsa yuki, mehnati ortur,
Har kimki ulug' bo'lsa, bo'lur kulfati oson.*

Boy faqirga, faqir boyga, muallim shogirdga, shogird muallimga, ota-ona farzandga, farzand ota-onaga muhtojdur.

Shuning ushun har kim o'z ustiga yuklangan vazifasini to'g'rilik va xayrixohlik ila ado qilmaq lozimdur. Shariatda imonlik kishilarga dunyo rohati va oxirat saodati uchun qo'ldan kelgancha milliy xizmat va yordam qilmaq vojibdur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh taologa imon keturdikdan so'ngra, amallarning afzali bandalar bir-birlariga muhabbat etmakdur», – demishlar.

*Xayrixohlik xolisona bo'lmasa bekordur,
Manfaat yo'q aylagan nazr-u niyozingdan sani,
Bir ko'ngilni shod qilmaq ne'mat, ihson ila,
Yaxshidur har damda ming rak'at namozingdan sani.*

MUNISLIK

Munislik deb har kim o'z tengi, maslakdoshini topub, ulfat bo'lmakni aytilur. Dunyoning lazzati sodiq do'stlar ila suhbat qilmakdan iboratdur.

Ilmi axloq yuzasidan chin do'st va yori sodiq ila ulfat qilmaq lozimdur. Chunki ba'zi kasallarning yuqishi bo'lganga o'xshash nodon va ahmoq kishilarning urf-u odatlari va yomon xulqlarining ta'siri, siroyati

yuqushi muqarrardur. Ba'zi do'st suratida ko'rinmish ikki yuzlama, munofiq, dushmanlar ham ko'p bo'lurlar. Shuning uchun har bir kishiga sinamasdan, bilmasdan do'stlik qilmaq, sir aytmaq zo'r aqlsizlikdur. Chin do'st bo'lgan kishi boshingga kulfat va qayg'u kelgan vaqtlarda san ila barobar qayg'urur. Xotirangdagi qayg'uni bo'lushub olur. Siringni noahil va nodon kishilarga aytmas, aybingni orqangdan so'ylamasdan yuzingga aytur. Shodlik vaqtingda sanla barobar shodlanur. Yolg'on do'st sandan bir foyda umidida yoki o'z boshiga kelgan zararni qaytarmak uchun munofiqona do'stlik qilur. Siringni noahil kishilarga so'zlab, qadr va e'tiboringni poymol qilur. Bunday kishilarga do'st bo'lmakdan do'stsiz yaxshiroqdur.

Yaxshi do'st aybi yor-u do'stini

Ko'zgudek ro'baro'sida so'zlar.

Yomon o'rtoq tarog'cha ming til ila

Orqadan birmalab terib so'zlar.

SADOQAT

Sadoqat deb kishi o'z vazifasini to'g'rilik ila ishlamakni aytilur. Sodiqlik kishi din va millatiga, vatan va davlatiga to'g'rilik ila xizmat qilub, obro' va mukofotlar olur.

Sadoqat gulshani salomat, bo'stoni najotdur. Sadafdan inju, ilondan zahar hosil bo'ldug'i kabi rostlikdan foyda, xiyonatdan zarar hosil bo'lur. Janobi Haq sodiqlarni suyar, yolg'onchilarni suymaz. To'g'rilikdan yo'qolgan kishi yo'q, xiyonatdan yo'qolganlar

cho'qdur. Rostlik ila xiyonat ikkisi jam kelmas. Agar bir kishining diliga to'g'rilik tuxumi ekilsa, har qancha och va suvsiz bo'lsa ham to'g'rilik o'sar. Xiyonat ko'karmas. Axloq yuzasidan to'g'ri faqir yolg'onchi boydan e'tiborlidir. Chunki sodiq kishi ahdig'a vafo qilur. Yolg'onchi esa va'dasida turmay o'zini xijolat, boshqalarni ovora qilur. Sadoqat bir fayzi ma'naviydurki, u fayzdan hissasini olmak har bir kishining muqaddas vazifasidir.

Hazrati imom Husaynga hazrati Ali: «So'zingda to'g'ri bo'l, yolg'onchilar kabi munofiq o'linmassan», – deb nasihat qilmishlar.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «To'g'rilikni ixtiyor qilingiz, garchi halokat kabi ko'rinsa ham, najot to'g'rilikdadir. Har qancha najot kabi ko'rinsa ham, yolg'ondan saqlaninig, zeroki oqibati halokatdur», – demishlar.

*Sidq-u safoyi rostlig' o'lsa qarobating,
Shuldur jahonda rohat, fayz, saodating.
Olamda to'g'rilikcha yo'q odamning ziynati,
Qalbing alifdek o'ldimi, ayni sharofating.*

ADOLAT

Adolat deb boshqalarning mol va nomusini rioya qilmakni aytilur. Adolat yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidir.

Adolat va marhamatli kishilar o'ziga loyiq ko'rman bir ishni o'zgalarga ravo ko'rmas. Kishi adolat va insoniyat vazifasini yolg'uz o'zi buzuq ishlardan

saqlanmak ila ado qilolmas, balki o'zi ila barobar jinsdoshlarining xato va fanoliqlarini tuzatmak va yaxshi yo'lga sa'y qilmak ila ado qila bilur. Adolatni rioya qilgan kishilar hech bir kishiga jabr-u zulmni xohlamas va jonli narsalarga bekorga ozor bermas. Aql va shariatga muvofiq ravishda harakat qilur.

Jabr-u zulm ila boshqalarning dilini ozor qilgan kishilarning yoqalari jazo qo'lidan qutulolmas.

Zero, janobi Haqning adolati zolimlarning jazo va sazosini bermakdadur. Rasuli akram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh rizosini istar esangiz, bolalar-ingiz haqqinda ham adolat qilingiz! Yana, mazlum kishi-ni-duosindan kofir ham bo'lsa saqlaningiz! Chunki mazlumning duosi doimo maqbuldir» – demishlar.

Har bir millatning taraqqiy va taoliysi, davlat va hukumatlarning uzun yashamog'i adolatga bog'lidir. Adolatdan ayrilgan podshohlarning davlatlari yo'q bo'lub, tarix sahifalarida faqat ismlari qolganligi ham-maga bilgulidur.

*Adl o'lsa podshohing, oyog' ostida palos,
Boshingda bo'lgusidur oning toji barqaror.
G'olib bo'lurga chiqsa, agar yengidan qo'li,
Bo'lg'ay nasib gardanig'a hiyladan tumor.*

MUHABBAT

Muhabbat deb bir narsani suymakni aytilur. Dunyodagi insonlar mehr va muhabbat soyasida yasharlar. Har bir ishni muhabbat orqasida ishlarlar. Muhabbatsiz kishi hech bir ishni ishlamaka g'ayrat va jasorat qilolmas, dunyo ne'matidan lazzat ololmas.

Agar bir shogird ilm va muallimni suymasa, ishtaha ila o'qimasa, maqsudiga yetolmas. Yer yuzidagi insonlarni urushma, taloshmalarga qovushdurgan, siynalarini dushman o'qiga nishona qildurgan narsa din va millatlarning, vatan va davlatlarning muhabbatidir. Kishini kecha va kunduz tindurmasdan qul kabi mehnat va mashaqqatlariga ko'krak berub ishlatadurgan narsa vatan va bola-chaqalarning mehr-u muhabbati emasmi?

Qush yaxshi ko'rgan donasiga qiziqub, tuzoqq'a ilinub qolg'oni kabi inson suyukli narsasiga boylanub, asir bo'lub qolmog'i tabiiydur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «O'z nafsing uchun qaysi narsani suyar esang, shul narsani boshqa kishiga ham suy», yana «Ota muhabbatini saqla! Agar san otag'a bo'lg'an muhabbatni uzsang, Alloh taolo sani har turli fayzlardan mahrum qilur», – demishlar.

Muhabbatlik bahorning kuz husuli hech oz o'lmas, Muhabbatsiz kishining ko'ngli qishdur, asli yoz o'lmas. Suyub ilm-u funun tahsil edan uchgay havolarga, Qayu baxti qaro johil qolur, dasti daroz o'lmas.

OLYHIMMAT

Oliyhimmat deb din va millatga foydali ishlarni mol va jon ila ishlamakni aytilur. Himmat shunday bir oliyjanob fazilatdurki, insoniyatning koni, yaxshi xulqlarning posboni demak joizdur.

Himmat sohiblari karim sifatli, rahim tabiatli boʻlur. Oʻz jinsining avlodidan har vaqt yordamini ayamas. Xayr-u saxovatli ishlardan oʻzini tortmas. Pul va moli-ni millat yoʻlida sarf etmakdan qizgʻanmas.

Oliyhimmat kishi soyasi latif, mevasi laziz daraxt kapidurki, bu soyaga yaqin boʻlgan kishilar har vaqt foydalanurlar.

Himmatli inson lutf-u marhamati ila dunyo yu-zida jilvagar oʻlur. Olamni ravshan qilguvchi gunash-ning quvvat va fayziga zarar yetmagani kabi himmat arbobining ham sarf va xarajot ila shaʼn va molina zarracha xalal yetmas. Insonning mohiyati vijdonidan bilinur. Vijdon esa faqat oliyhimmat kishilardan topi-lur. Alhosil, himmat insonning kamoloti, taraqqiy va madaniyatning olotidur. Har ish himmat soyasida yu-zaga chiqar. Oliyhimmat va xolis niyat ila ish ishlagan kishilar tavfiqi rabboniyga rafiq, rahmati rahmoniyga shafiʼ boʻlurlar.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Uluvil himmati minal imoni», – demishlar.

Noʻshiravon: «Inson oliyhimmat vazifasi ila mu-kallafdur, oliyjanob oʻlan bir hakim koʻrgan bemorini

davoyi himmat ila darmonlayur. Jahonning kasbi umroniysi oliyhimmatlar soyasidadur», – demishlar.

*Ibrat ko'zingizni ochingiz, «Yo, ulal-absor»,
Himmat-la tikilmish shu go'zal masjidi dildor.
Jur'at-la muzayyan o'lur olam, yashar inson,
Himmatli quling suygusi har yerda xaridor.*

AFV

Afv deb kechurmakni aytilur. Bir kishi qilgan kamchiliklarini bo'yniga olub, o'kunub, kechurmakni so'rasa, afv qil-mak lozimdur.

Chunki afv yaxshi xulqlarning afzali, insoniyatning akmalidur. Janobi Haq Qur'oni Karimda afvni maqtab madh qilmishdur. Oliyjanob kishilar uzrni qabul qilur. Bir kishi qusur va qabohatini bo'yniga olub uzr aytsa, afv qilur, kechirur.

Kattalik va ulug'likning lazzati birov-dan o'ch olmakda emas, balki afv qil-makdadur.

Masalan, Ahmad Mahmudga bir yomon ish qilub dilini og'ritdi. Mahmud Ahmaddan o'chini oldi. Bas, Ahmad ila Mahmudning orasidagi yomonlikdagi farq na o'ldi. Holbuki, har ikkisi ham bir-biriga yomonlik qildi. Har ikkisi ham g'amlik va parishon bo'ldi. Bir yomonlik ikki bo'ldi. Agarda Ahmadning qabohati-ga Mahmud afv mukofotini bersa, ikkisi ham shod-u masrur o'lur hamda Janobi Haq afv qiluvchilarni su-yar. O'zi ham afv mag'firat qiluvchidir.

Noʻshiravon: «Bir gunohkorni afv qilmakdan qanday lazzat olganimni hech kimga aytmayman», – demish.

*Ulugʻlarning ishi afv aylamakdur,
Kichiklar uzr uchun bel boylamakdur.
Musulmonligʻda yoʻq kin-u adovat,
Dila afv, adolat joylamakdur.
Bizim ishlar hasad, buʻz-u xusumat,
Xududdan chip-chiqub, chet poylamakdur.
Butun afʻolimiz bir-birga zidlik,
Urub-tortub, ogʻizni moylamakdur.*

YOMON XULQLAR

Insonlarni saodati abadiyadan mahrum qiladurgan, janobi Haq qoshida va xalq nazarida mazmum, hayoti jo-vidonimiz uchun masmum boʻlgan axloqi zamimalar: gʻazab, shahvat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, gʻiybat, haqorat, jibonat, hasad, nifoq, tama, zulmdur.

Bu sanagan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning goʻzalligini insof muvozanasi ila oʻlchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak, yomonlarini anglab, hazar qilmak lozimdur. Zeroki, insonning izzati, dunyoning lazzati yaxshi soʻzlarni eshitub va koʻrub hissa olmak, yomon va zararlilarini uqub, bilub oʻzini tiymak, qoʻldan kelguncha xalq va millat foydasiga tirtishmak va bu fano dunyodan yaxshilik otini olub ketmaktadur.

Har narsaning haddan ortuqchasi isrofdur. Lekin yaxshilik va yaxshi sifat qancha ko'p bo'lsa, shuncha mamduh va maqbuldur.

Rasuli akram nabiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Bandalarning yaxshirog'i bandalarga foydali bo'lganidir», – demishlar.

*Yaxshilik bozoridur dorulomon,
Yaxshilik qil, yaxshilik qilmas ziyon.
Maktab, dunyoda kasb et yaxshi xulq,
Farz, vojib, sunnat, istihbobdan ber imtixon.
Qilma makruh, arom, kibr-u g'urur
manmanlig'ing,
Chaqma inson jismini yo mor, yo misli chayon.
Yaxshilik, adl-u saxovatlar sening yoring esa,
G'ibta aylarlar sanga ins-u malak, hur-u jinon.*

G'AZAB

G'azab deb bir kishi ikkinchi ila shiddat va hiddat ila muomala qilishmakan aytilur. G'azab insonga maxsus bir quvvayi murofiadurki, tabiatda mavjud o'lan g'azab tuyg'usi ila boshqalar tarafidan keladurgan zarar va halokatdan o'z nafsini faqat shu soyada saqlar.

Lekin g'azabning jabr va zulm tariqi-la ishlatmaktan nihoyatda ehtiyot bo'lmak lozimdur. Nafsning g'ururidan paydo bo'lgan g'azab insonni alamlik azoblarga giriftor qiladur. Chunki bu shiddat va haroratning ta'siri vujudagi qonni buzub, harakat qildurub, dimog'iga

hujum qilub, aqlni parishon qilurda kishining ixtiyorini qoʻlidan olur va bu soyada oʻzini yoxud boshqa bir kishini hasrat va nadomatga duchor qilur. Gʻazablik kishilar qancha aql va idrok sohibi boʻlsa ham, gʻazab qoni qoʻzgʻalgan zamonida oʻzini toʻxtatolmas, aql va idrokidan ayrilub, bir yomon ishni qilub qoʻyar-da, soʻngʻidan pushaymon boʻlur.

Suqrot hakim: «Gʻazabning avvali junun, oxiri nadomatdur», – demish.

Imom Shofeʼi hazratlari: «Qilich va nayza ila hosil boʻlmagan koʻp ishlar yumshoqlik va muloyimlik ila hosil boʻlur. Gʻazabning zarari egasiga qaytur», – demishlar.

Aflotun: «Hayajon ila paydo boʻlgan bir hol, albatta, pushaymonlik ila tamom boʻlur. Gʻazab gʻazab qilinuvchidan koʻproq gʻazab qiluvchigʻa zarar qilur. Aqlni gʻazabga soluvchi inson nafsini haroratli oʻtga yoqmish oʻlur. Nadomatdan avval matonatni ixtiyor qiluvchilar hech bir tahlika va azobga duchor oʻlmaslar», – demish.

Siyuti: «Gʻazab va shiddat vujud iqlimining dahshatli bir ofatidur. Buning dafʼi va chorasi topilmasa, u iqlimni xarob qilur. Gʻazab bir illati muhlikadurki, yagona davosi sabr va tahammuldan iboratdur. Tadovi etilmagan bir maraz insonning hayotini mahv va barbod etar, hazar qilmak lozimdur», – demish.

Gʻazablik boʻlimgʻil, boʻlgʻil muloyim,

Boʻlursan shod-u xurramlikda doim.

Gʻazab oʻtdur, yoqadur jism-u joning,

Gʻazab barbod etadur xonumoning.

Gʻazablik oʻtni boʻs h suv past qilgʻay,

Gʻazabni jinni yoki mast qilgʻay.

SHAHVAT

Shahvat nafsning taayyishindan, taaddisindan hosil bo'ladurgan bir quvvatdur. Hikmati tabiiyya qonunining ahkomi azaliyasina qaraganda, hissiyoti shahvoniya baqoyi hayotga maxsus bir quvvayi fatriyadur.

Shahvat insonning xazinayi qiymati o'ldig'i uchun surati mashruada sarf qilinsa, vujudning zakoti, balki bani bashar naslining madori hayotidir. Har ishda ifrot va tafrit maqbul bo'lmagani kabi bu xususda ham xasislik ila isrofdan saqlanmak lozimdur. Agar shahvatni g'ayri mashru bir yo'lda suiiste'mol qilinsa, amonatga xiyonat qilgan bo'ladur.

Zero, yemak uchun yaratilgan bir ne'matning qadr va qiymatini bilmasdan, xorlab, o'rinsiz yerlarga tashlamoq, oyoq osti qilmoq zo'r kufroni ne'matdur.

Yaxshi xulqlarning ichida farishtalarning g'ibta qiladurganlari shahvatning mashru' yerlarga sarf qil-makni rioyatdan iboratdur.

Shahvat inson uchun yaratilmish bir salohdurki, agar o'rniga iste'mol qilinsa, vujudimizni har xil taarruzlardan saqlar, o'rinsiz yerlarga sarf bo'lsa, insonning iffatini barbod qilmak ila barobar hayotini xarob qilur.

Bir kishi qo'lidagi asbobiga mag'rur bo'lub, nobob yerga ursa, ul asbobni o'tmas qilg'ani kabi mas'uliyatdan nafsini ham qutqarolmas. Afsus, bizim yoshlarimizning aksarlari shahvat g'alabasi-la nafs amoralari-

na muhtalo bo'lub, zaxm marazlarina giriftor bo'lurlar. Qancha mehnat va mashaqqat ila topkan oltunlarini boquzmak uchun sarf qilub, oltundan qadrlil aziz umrlarini kasalxonalarda isrof qilurlar.

Ulamolardan biri: «Hayot ibodatning asbobi o'ldig'i kabi shahvat ham ubudiyatiya xizmat vazifasini ado qilur. Va bu vazifalar haq ila ado qilinmasa, insoniyat ila hayvoniyat orasida nima farq bo'lur», – demish.

*Agar shahvatka dil bersang, bo'lur qalbing qaro kam-kam,
Ketar nasling o'qi, bel quvvati, ko'zdan ziyo kam-kam.*

*Tamomi ixtiyoring nafsi badni ilgina bersang,
Marazlarga duchor aylar, bo'lur ranging fano kam-kam.*

*Buzuq yo'llarga isrof aylasang, molingni, joningni,
Qo'lingdan din-u dunyo, ish ketar, sharming,*

hayo kam-kam.

AQSOMI JAHOLAT

Jaholat ikki qismdurki, birini «jahli basit», ikkinchisini «jahli murakkab» deyilur. «Jahli basit» maraziga muhtalo bo'lgan kishilar bir narsani bilmasalar ham bilmaganliklarini iqror va e'tirof qilurlar. Shuning uchun buning davosi oson: faqat bilmak va o'rganmak yo'lida jahd-u jadal qilmak ila bo'lur. «Jahli murakkab» maraziga muhtalo bo'lgan kishilar bir narsani bilmas, bilmaganini ham bilmasdan bilaman deb da'vo qilur.

Bizda munday kishilarga «o'zboshimcha» va «o'zim bilarmon» ismini berurlar. Bu dardi bedavoning iloji janobi Haqning lutf va inoyati ila hal o'linmasa, tuzalmog'i mushkil va og'irdur.

JAHOLAT

Jaholat deb o'qimagan, bilimsiz hech narsaga tushunmaydurgan nodonlig'ni aytilur. Jaholat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlarning boshlig'idur.

Maorifdan, funun va madaniyatdan mahrum qolgan xalq jaholat panjalarining orasida xamir kabi ezilgandek, af'oli zamimadan ham o'z nafsining yoqasini bo'shatolmas. Ilm va ma'rifat sohiblari, fazli kamollari soyasida har bir ishni tadqiq va mushohada ila qilurlar. Ammo johillar esa bir narsaning mohiyatini mushohada qilurg'a aql va farosatlari yetmas. Chunki jahil xudbin va zohirparastdan iboratdur. Har bir narsaning haqiqati aql va irfon, ilm va donish sohiblarina maxsus bir maziyyat, johil va nodonlarga zo'r aziyyatdur. Jaholat arbobi qayu yerda bo'lsa bo'lsun, loyiqli e'tibor o'lmoq sharafidan mahrumdur. Moddiy jihatdan qancha boy va sarvatsdor bo'lsa, ma'naviy jihatdan shuncha faqir va zalil hisoblanur. Zeroki, jaholat eng qo'rqinch faqir va muhtojlikdan ziyoda dahshatliroq bir musibatdur. Aql ila ilmning yaxshiligi va fazilati qancha baland bo'lsa, jaholatdan tug'uladurgan yomonliklar balolari shuncha ostin va xorlikdur.

Hazrat Ali: «Arbobi fazl-u kamol johildan qancha izo va jafo cheksa, johil ham aql va irfon sohibidan shuncha mutaassir bo'lur», – demishlar.

*Suymagay fazl egasi johilni,
Johil ahli uluma dushmandur.*

Suqrot hakim: «Dunyoda eng hazar qilinadurg'an il-lat jahldur. Men johilga achinganimdek, ko'rga achin-

mayman, zeroki, johilning oʻz ixtiyori ila qilgan harakoti aʼmoning ixtiyorsiz qilgan harakotidan mening nazarimda xunuk», – demish.

Arablar: «Aljohilu mayyitul-ahyo-nodon kishi tirik oʻluk», – deyurlar.

Bizlar esa «Doʻsti nodondan, dushmani ziyrak yaxshi», – deymiz.

Baʼzi oqil dushmanlar boʻlurki, keturgan zararlarini nodon doʻstlarning foydalaridan natijada yaxshi va foydali boʻlib chiqadur.

Aflotun hakim: «Johilning yaxshi niyati fozilning xusumatidan zararliroqdur. Inson eng yuqishlik bir kasaldan saqlangan kabi jahldan hazar qilmak lozimdur», – demish.

Alhosil, jaholat insoniyat nomina yarashmagan bir sifat oʻldigʻindan bahamahol ilm yoʻlida harakat qilmak, aqli salim sohiblarining hikmatli soʻzlaridan hissalanmak, aziz jonimizdan azizroq (avlodlarimizni) jaholat va nodonlik balolaridan qutqarmak uchun jonimiz boricha, kuchimiz yetkuncha cholishmoqimiz lozim va lobuddur.

*Ey jaholat nori birla yondi jismi pokimiz,
 Ilmsiz qolduk oyogʻ ostida misli xokmiz.
 Oʻsdi ilm-u maʼrifat-la boshqalar arar kabi,
 Tarbiyatsiz mujmail monandi zangi tokmiz.
 Jismin, axloqin tuzatdi noslar, tannoslar,
 Kir chopon, koʻkrak ochuq, yaxtak yaqosi chokmiz.
 Gʻayrilar tashlab jaholat bodasin gʻamdan xalos,
 Biz esa masti jaholat koʻknori, taryokmiz.
 Ayshi-ishrat boʻlsa har qancha qilurmiz bemalol,
 Diniy ishlardan, ibodatdan qochar bebokmiz.
 Dori dunyo ilm ila purnur oʻlan bir vaqtda,*

Jahl vodiysinda yotkandur xotun, erkokmiz.
O'ylamak lozim emasmi, ey Muhammad ummati?
Farz-u sunnatdan chiqub, bizlar qayon ketmokmiz.
Johilon bilgaymi, naf'i, sudini, ey olimon?
Tobakay yaxshi-yomonga yetmagay idrokimiz.
Ilm yaxshimi, jaholatmi, tushunmaymiz hanuz,
Aqlimiz yo'qmi bizim, majnunmi yo tentokmiz?
Ichkuluk «Ummul xabois», dedilar Payg'ambarim,
Kecha-kunduz xo'b icharmiz, johili nopokmiz.
Basdur, ey Hijron, jaholatdan gapurmak shunchalar,
To'g'ri so'z tug'anga yoqmaydur degan o'rnokmiz.

SAFOHAT BALOSI

Safohat deb buzuq va g'ayri mashru yerlarga sarfi umr-u mol qilmakni aytilur. Safohat eng yomon xulqlardan sanalgan bir sifati zamimadurki, kishini duchori ya'su nadomat etmakdan boshqa, shuhrat va e'tiborini yer ila yakson qilur va o'rinsiz yerga sarf qilingan narsaning qiymatini qaytarib olmoq mumkin o'lmadig'i (kabi) safohat dunyosiga isrof qilingan aziz umr va hayotning-da iodasining imkoni yo'qdur.

Inson har holda o'z nafsining idorasini ta'min qilub, baxtiyorona bir maishatga qodir bo'lsa, haqiqatan mas'udiyati insoniyasini yo'lga solgan bo'lur. Safohat yolg'uz bir oilaning emas, butun bir qavmning mol va sarvatini mahv etmakka qodirdur. Hatto nomus va fazilatiga maxsus bo'lgan hurmat va rioyatini ham barbod qilur. Shuning uchun inson ko'rpasiga qarab

oyogʻ uzatmasa, daromadiga qarab xarojat qilmasa, iqtisod yoʻlini rioyat qilmasa, nafsning yoqasini safohat qoʻlidan qutqarolmas. Mol va hayot qadrini bilmagan va koʻrnamalik qilgan boʻladur. Safohat balosiga muhtalo boʻlgan kishilarning boshlariga shunday bir qora kunlar keladurki, «Oh, safohat, ofatijon, baloyi mol ekansan», deb figʻon qilmak foyda bermaydur. Afsuski, manbayi vujudimiz boʻlgan yoxud haqiqiy onamiz boʻlgan vatanimiz, yaʼni tuprogʻimizni ozgina bahoga sotub, puchak pullar olganimizga oʻxshash, osori atiqalarimizning evazina soxta ashyolara mollik oʻldigʻimiz kabi bisotimizda bor ilm va maʼrifatimiz, mol va sarvatimizni havoyi nafsoniyamiz uchun «gardkam» urub, boy berib, koʻzimizga ziynatlik libosga oʻralmish fohisha xotun kabi jilvagar oʻlub koʻringan safohat bozoridan buzuq va fasod ishlarni sotub olurmiz.

Hosili kalom, inson umrindan bir daqiqasini, molindan birgina chaqasini oʻrinsiz va gʻayri mashru yerlardan biriga sarf qilsa, bu dunyoda xor, oxiratda alamlik azobga giriftor boʻlishida shubha yoʻqdur.

*Safohat ofatijondur jahonda,
Safohat bizdadur ushbu zamonda.
Yuqumli bir marazdandur safohat,
Yuqub andin tugʻulur har falokat.
Safohat mahv edar umring, hayoting,
Umid etma safohatdan najoting.
Safohat aylagay molingni toroj,
Boʻlursan oxiri nomarda muhtoj.
Berubdur Haq senga juz ixtiyoriy,
Rizo ermas buzuq koringga bori.
Aziz umringni gʻaflatda kechurma,
Safohat jomini nafsa ichurma.*

Shariat yo'lida qil istiqomat,
Safohat oxiri hasrat, nadomat.
Dushun, joni azizing ehtiyot et,
Musaffo yo'l Payg'ambar ortidan ket.
Safohat o'ylama oromi jondur,
Butun vijdon ila jonga ziyondur.
Faqirlikni pula sotub olursan,
Dushungil, dushmana muhtoj qolursan.
Safohat dushmani nomus, shoning,
Buyuk bir ofati ruhi ravoning.
Qabohatdur, safolatdur safohat,
Na «Hijron»lig' falokatdur safohat.

HAMOQAT

Hamoqat aql va ma'rifatning kamlig'indan hosil bo'ladurgan eng yomon xulqlarning biridur. Hamoqatning ma'niyi lug'aviysi balohatga yaqin o'ldig'indan ba'zi hukamo ahmoqlarni jahli murakkab ashobindandur, demishlar.

Ahmoq kishilarni bir ishda aqliy va naqliy dalillar ila ko'ndurub bo'lmas, hamon o'zum bilarmanliglaridan ayrilmaslar.

Ibn Sino hakim: «Ochuq va moddiy dalil ila isbot qilinmag'an bir narsani inkor qilmak asari hamoqatdur.

Oqil inson bir masalaning har bir jihatini o'ylar, tadqiq va taftish qilur, qat'iy hukm qilmoqda shoshmas, ma'naviy jihatini ham tushunur. Dalilsiz, hujjatsiz bir jumlaning qiyosini rad yo qabul qilmak ahmoqlikdan hisoblanur», – demish.

Ahmoqlik davosini topmak mushkil boʻlgan bir illatdur.

Luqmoni hakim: «Man har bir marazning dafʼini va chorasini topdim, faqat ahmaqlik davosini topolmadim», – demish.

*Har bir kasalning davosi vordur,
Ahmoq kasalining yoʻq davosi.*

Suqrot hakim: «Ahmoq kishi sukut ila ahmoqligʻini yopsa, oʻrtacha oqillardan hisoblanur edi. Lekin ahmoqlik ila sukut ikkisi bir odamda jam kelmas», – demish.

Axloq ulamolari qoshinda hamoqat jaholatdan yomonroqdur.

Zeroki, johilda faqat bir jahl bor. Ammo ahmoqda bir necha sohibi aqlni aldaydurgan yolgʻon-yashigʻ soʻzlar boʻlurki, koʻp kishilarni aldab yoʻldan chiqaradur. Jaholatning davosi ilm oʻldigʻi kabi hamoqatning darmoni aql va fikrdur. Inson oʻz nafsiga jabr yetub boʻlsa ham, nazari diqqat ila ibrat koʻzini ochmak uchun saʼy va gʻayrat qilsa, ahmaqlik balosidan qutulur. Tarbiya, nazariyadan mahrum boʻlgan inson har vaqt falokat va hasrat tuzogʻiga tutilur.

*Dorusi yoʻq dedi hukamolar hamoqating,
Sud-u ziyonni bilmagay ablah qiyofating.
Har kim oʻzini bilmasa, bilgaymi oʻzgani?
Qaygʻusina tushunmagay afrodi millating.
Jahl oʻlsa bir balodur-u hamaq bedavo,
Har ikkisidur ochgʻuvchi olom-u gʻurbating.
Ahmaq bilurmi din ila millatni qadrini?
Ablah bilurmi qiymati mehr-u muhabbating?*

ATOLAT

Atolat deb dangasa va yalqovlikni aytilur. Atolat insonning saodatligining zo'r ofatidur. Tanparvarlikdan paydo bo'ladurgan yomonlik maishat jihatidan naslga ham ta'sir qiladur.

Har xil fayz va kamolotdan mahrum qilub, kishini xor va zalil yashatmak ila barobar umrni safolat chuquriga irg'itadur. Kishi hayoti boricha, kuchi yetkancha cholishmoqg'a mukallafdur. Lekin dunyoda har bir sa'ydan maqsud bo'lgan samara darhol hosil bo'lmaydur. Halvo degan ila og'iz suchimaydur. Shuning uchun sa'y va g'ayrat ashobi har vaqt jiddiy harakatda bo'lub, doimo sa'y mashru'ada sabot va matonatda shavq va zavq ila davom qilurlar. Har bir sa'yning mukofot va natijasini ko'rmak mumkin bo'lsa ham, ul mukofotning zohir bo'lishi, ko'rinishi yetushgan vaqtda ma'lum bo'ladur.

Masalan, bir daraxtning mevasi to'rt-besh yil tarbiya qilgandan so'ng, meva yetishtirgani kabi bir shogirdning maktab va madrasada sakkiz – o'n sana doimiy sa'y qilganidan so'ng, yemish va hosiloti ilmiyasi zohir va mushohida o'lunur. Shunga o'xshash har ishning samarasi bir necha vaqt cholishmoq va sa'y qilmak so'ngidan zohir va huvaydo bo'lur. Alhosil, yalqov va ishsizlikg'a ho'y qilg'an kishilar dunyo va oxiratda moddiy va ma'naviy saodati insoniyadan mahrum va bebahra qolurlar.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Ey, Alloh! Sanga sig'inaman, qayg'u va hasratdan, dovdirab qoluv ham yalqovlikdan, baxillikdan va qo'rqqoqlikdan, qarz og'irligidan

ham odamlarning ustini boʻluvindan (saqlagaysan)», – demishlar.

*Atolat dushmani jondur, yomondur,
Chaqar jismingni bir afoyi yilondur.
Magas quvgʻin yegay yalqovligldan,
Ari mehnat qilur oromi jondur.
Bu dunyoga kishi ishlovga kelgan,
Tuzuk tikmasa kosibgʻa ziyondur.*

XASOSAT

Xasosat deb tama va zillatni boʻyniga yuklab, ortuqcha hirsini dunyoga qoʻymakni aytilur. Hirs va tamaga ifrot darajada yuz tuban ketgan baxil, qancha shaʼn-u sharaf sohibi boʻlsa ham, nafsining yoqasini faqirona bir mazalatlardan va xorliqdan qutqarolmas.

Faqir va muhtojlikdan saqlanmak fikri ila baxil va xasislik yoʻlini tutgan kishilar aql va irfon sohibi sanalmaslar. Zeroki, xasislik soyasida janobi Haqning Razzoq va Xalloqi olam oʻldigʻini yodlaridan chiqarub, zoʻr xatolarga duchor oʻlurlar. Xasis oʻlan inson qancha zillat ila jam qilgan sarvatindan zakot va ushrini ado qilmasdan ojiz, saodati insoniyadan mahrum boʻlub, jazoyi abadiyga mahkum boʻlur.

Ipak qurti pilla ichida oʻralib, hayotini mahv qilur. Qancha mehnat va mashaqqat ila hosil qilgan ipagidan boshqalar foydalanurlar. Shunga oʻxshash xasis inson mol va dunyo jam qilmas ila oʻralub, ovora va sargardon boʻlub, aziz jonini boshqalar uchun fido qi-

lur. Dunyo izzatidan, hayot lazzatidan bebahra ketgani kabi vafot vaqtidagi nadomatidan ham foyda yo'qdur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Bor davlati ila ahl-u ayoliga torlik qilgan kishilar yomon kishilardur», – demishlar.

*Xasislik birla yig'gan mulk-u moling,
Hamachdek to'plagan ashyo, manoling,
Lahad kirsang, qolur vorislaringg'a,
Nechuk kechgay seni ul kunda holing?
Kitobingdan hisobni san berursan,
Halos o'lmak baid ehtimoling.*

RAXOVAT

Raxovat deb tanparvarlik, g'ayratsizlikni aytilur. Umid va sa'yning eng zo'r dushmani raxovatdurki, hissiyoti g'ayrat-parvaronamizni mahv va barbod etar va bir necha ma'yusona fikr va xayollarga duchor va giriftor etar.

Ibn Sino hakim: «Sa'y va harakat ila o'lmak mavti musammodur. Raxovat ila jon bermak ajali qazodur. G'ayratsizlik tirik o'lukdin iboratdur. O'luklarning makoni tiriklar orasida emas, tuprog' orasidadur», – demish.

Luqmon hakim: «Tanparvarlik umid va muvaffaqiyatning quvvatini kesadurgan bir marazdur. Saodati insoniyadan mahrum bo'lub, ma'yusona yashamak raxovat, g'ayratsizlik asaridur», – demish.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Allohga sig'iningiz! Faqirlikdan ham muhtojlikdan, kishiga zulm qilmakdan, o'zingizga zulm qildurmakdan (saqlaning)», – demishlar.

*Kishiga dangasalik sha'n-sarofatmi verar?
Yalqov inson kishiga xayr-u saxovatmi verar?
«Bo'lmaganlarga bo'lishma» – dedilar bobolariz,
Bo'lsa g'ayratsiz agar, millata xizmatmi verar?*

ANONIYYAT

**Anoniyat deb xudbin, mutakkabir,
manmanlikni aytilur. Manmahlik johilo-
na kibr-u g'ururdan paydo bo'ladurgan
eng yomon xulqlarning biridurki, kishi-
ni har yerda ma'yus va mahjub qilur.**

Kerak inson o'zini olamga tanutmasun, kerak bo'lsa olam o'zini tanub olsun. Bu sifat esa yomon xulqlardan hazar qilgan kishilargagina muyassar bo'latur. Kekkayub o'sub ketgan daraxt yaxshi meva qilmagani kabi kibr va manmanlikdan fazilat hosil bo'lmas. Axloqi yaxshi insonlar o'zlaridagi fazl-u kamolot asarini xaloyiqg'a xush xulqlik va tavozu ila ko'rsaturlar. Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Ibodating afzali tavozudur», – deb, bizlarga kibr-u manmanlikni qanday zillat va xorlik o'ldig'ini bayon qilmishlar. Alhosil, kibr va manmanlik balosiga giriftor bo'lg'an kishilar qayu yerda bo'lsa bo'lsun, duchori ajz-u haqorat bo'lurlar.

*Azozil kibr qildi, bo'ldi shayton,
Takabburlik qilurmi oqil inson?
Tavozu pasha qil, aslingni qil yod,
Vujuding xok erur, ey, odami zod!*

ADOVAT

Adovat deb birovga xusumat va dushmanlik qilmakni aytilur. Adovat vijdonni behuzur qiladurgon eng yomon xulqlardan o'ldig'ini inson yaxshi bilsa edi, hech vaqt aziz jonini alamlik azobga giriftor qilmas edi.

Suqrot hakim: «Man dushmanim bo'lg'on bir odamga adovat qilmayman. Zeroki, maning adovatum dushmanimning xusumatini ziyoda qiladur. Man adovatga qarshi do'stlik ila muqobala qilub, xusumatni muvaddatga aylاندurub, dushman kishilarni o'zumga el qilaman», – demish.

Aflotun hakim: «Dildagi adovat temirdagi zangg'a o'xshar. Zang temirni yegani kabi adovat qalbni azobga soladur», – demish.

Hazrati Muhiddin: «Xusumat va adovatdan qutulmoq, birovga jabr va zulm bo'ladurган ish dan ehtiyot bo'lmak, dushman paydo qiladurган harakotdan ihtiroz qilmak ila bo'ladur. Man hech kimg'a adovat qilmoqg'a luzum ko'rmadim. Chunki hozirgacha man hech dushmanga uchramadim», – demish.

Alhosil, yomon xulqlarning yomoni bo'lgan adovat shunday bir yomon sifatdurki, barcha buzuq ishlarni tug'ub, katta bo'lub chiqadurган yeri adovatdur. Adovat esa nafsoniyatdan paydo bo'lur. Nafsoniyat esa farishtalarning ustodi o'lan Azozilga «Shaytonur-radjim» ismini bergan shoyoni ihtiroz bir sifati zamimadur. Adovat ila nafsoniyat ikkisi tarbiyasiz dilga hosil bo'ladurган bir illati jismoniyadurki, buning birinchi iloji vijdon va insof uzra hakimona tadbir va harakotimizga bog'lidir. Hamaga ochuq va oydindurki,

adovat daraxti xusumat mevasini chiqarur. Agar adovatni kesub tashlab oʻrniga muxolasat novdasi ulansa va bu soyada muhabbat va ulfat mevasi nishona qilur.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Alloh taoloni suymagan odam xusumat va da'vosinda qattig'lik qilgan odamdur», – demishlar.

*Adovat balosi bizlarni netdi,
Adovat qilma deb Haq bizga aytti.
Zidlik qilduk, mol va davlatlar ketdi,
Moldan o'tub, oxir jonlarga yetdi.*

NAMIMAT

Namimat deb soʻz yurutmak, chaqimchilikni aytilur. Nammomlik fasodi axloqdan tugʻuladurgan yomon xulqlarning biridur.

Nammomlik nifoq va fasadning asosi oʻldigʻi uchun bu yomon sifatni oʻziga maslak qilgan kishilar xalq nazarida munofiq yod oʻlunurlar. Ikki moʻmin orasida soʻz yurutub, birini biriga dushman qilub, ikki oraga nifoq va adovat otashlarini solub, bir-biridan judo va xonavayron qilmakni dilida zarra qadar imon va insoniyati bor insonlarning vijdonlari aslo qabul qilmasa kerak. Baʼzi adovat va hasadchi kishilar birovning shaʼnida yoʻq soʻzlarni iftiro va boʻhton qilub, ul kishini qadr va obroʻsini toʻkmak va eʼtibordan tushurmak niyatida har kimga soʻzlab yururlar. Munday kishilarni shariatda shahodatlar maqbul emasdur, hamda uydurma soʻzlarining haqiqati bilinub qolub, birovga qazigan chuqurlariga oʻzlari yiqilub, xalq orasida chaqimchilik

ismi ila yod o'lunub, tezgina qadr va e'tibordan tushub qolur. Qalbi pok va vijdoni salomat o'lan inson bu kabi hiyla va tazvirdan tilini tiyar. Chunki munday fasod axloqg'a muhtalo bo'lgan arbobi nifoq faqat xalq qoshida emas, janobi Haq nazarinda ham suyumsizdur.

Nammom va g'iybatchi kishilar daraxt ildiziga tushgan buzog'bosh kabi xalq orasida ittifoq va ulfatning kavokini kemurub, umumiy xalq va millatning yashamog'i uchun lozim bo'lgan muhabbat daraxtini yemururlar.

Birovni yomonlamak, yolg'on so'ylamak, haqiqatni berkitmak, mudohana yo'lig'a ketmak, shar'an harom bo'lgan g'iybatni irtikob qilmak bo'ladur. Shaxsiy g'araz yoxud manfaati shaxsiyasi uchun bir kishidan eshitgan so'zini o'z maqsadiga muvofiq bir necha turli ma'nolar ila buzub so'ylamak zo'r ayb va gunohdur.

Hosili kalom, o'z jinsiga yomonlik qilmak va yomon so'zlar ila yod qilmakni odat qilgan kishilardan qochmak va hazar qilmak lozimdur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «As'hobimdan biri ikkinchisining so'zin keturmasun, zero ki, man sizga sadrim salomat, qalbim rohat o'ldug'im holda uchramakni suyaram», – demishlar.

Hukamolardan biri: «Mol va ashyo o'g'rilardan ko'proq odamlar orasidan do'stlik, ulfat, muhabbatni o'g'irlyadurgan odamlardan saqlanmak lozimdur», – demish.

*Chaqimchilar buzar ulfat hisorin,
Nifoqa o'g'ratur millatni korin.*

Chaqimchi til yomon ajdar tilidan,
 Solur jonga alamlilik zahri morin.
 Yomon til ming tilim bo'lg'oni yaxshi,
 Sochar ummat aro kin-u niqorin.
 Yomon til sohibining dushmanidur,
 Yo'qotgay sha'n-u shaukat e'tiborin.

G'IYBAT

G'iybat deb bir kishining kamchilik va qusurini orqasidan so'ylamakni aytilur. G'iybat so'ylamak harom o'ldig'i kabi eshitmak ham haromdur.

Kishi o'z nafsiga lazzat umidi-la bironi g'iybat qilub, etini chaynamak gunoh ham insoniyat nomina yarashmagan eng yomon axloqi zamimalardan-dur. Inson oshqa gunohlarni nafsining lazzati uchun qiladur. Ammo g'iybat sohibi lazzat o'rniga o'z boshiga yoki bir boshqa kishining boshiga bir balo hozir-laydur. Chunki so'z borub g'iybat qilinmish kishining qulog'iga yetar. G'azab qoni harakatga kirar, g'iy-batchidan o'ch olmak fursatini poylar. Shunday qilub, g'iybat soyasida ikki musulmon orasiga zo'r dushmanlik tushar. Oxiri o'lingacha borub tiralur. Shul tariqa g'iybatdan tug'ulgan adovat cho'zilmoqg'a oid bo'lub, dushmanlik zo'rayub, o'z oralaridagi ususiy janjallar ila aziz umrlarini uzdirub, umumiy xalq foydasi uchun ishlanadurgan milliy ishlardan mahrum bo'lmaklari ila barobar aholining orasidan ittifoqning yo'qoluviga sa-bab bo'lurlar.

Alhosil, qaysi bir millatning orasida birlik ko'tari-lub, nifoq va adovat hukm surgan bo'lsa, ul qavmning

inqiroz dunyosiga yuzlanganlig'i tarix sahifalaridan ma'lumdur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «G'iybatdan saqlaningiz, g'iybat zinodan ham yomonroqdur», – demishlar.

*Agar jurm-u gunah bo'lsun desang oz,
Tilingni saqla g'iybatdan qish-u yoz.
Quloqqa paxta tiq, g'iybat eshitma,
Shikoyatchi kishiga bo'lma damsoz.*

HAQORAT

Haqorat deb bir kishining hafsiga, iffatiga tegadurgan so'zlar ila qadr va e'tiborini tushurmak niyatida yomon muomala qilmakni aytilur.

Ulamolar diniy kitoblarda: «Tashbihi zino gunohi kabiradur, birovni haqorat qilish ulug' gunohlardanur», – demishlar.

Lekin bizlarning oramizda xotun-qizga borushub, bir-birimizni haqorat qilmak odat hukmig'a kirmishdur. Buning sababi axloqsizlik, gunoh va savobni farq qilmog'onimizning samarasidur.

Haqorat tahqir qilingan kishining diliga o'rnashub, shunday yomon jarohtlarni ochurki, fursatni g'animat topub o'ch va intiqom olmaguncha tuzal-maydur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: «Ikki odam bir-birini so'ksa, gunoh boshlovchiga bo'lur. Magar qar-

shi boʻlgan kishi ortuq ketsa, har ikkisi ham gunohda oʻrtoq boʻlurlar. Yana moʻmin qarindoshini soʻkmak fo-siqlik, onlar ila urushmak kufrdur», – demishlar.

Shul xususda Mirzo Bedil:

*Zi harfi no muloyim zahmati dilho mashav Bedil,
Ki har jo jinsi sangi hast, boshad dushmani ayno.*

Tarjimasi:

*Yomon soʻzlar ilan dillarga zahmat bermagil Bedil,
Ne yerda toshni jinsi boʻlsa, boʻlgʻay shishaga
dushman.*

deb insonlarning dilini shishaga, haqorat va yomon soʻzlarni toshga tashbih qilub, yomon soʻz kishining shisha kabi nozuk dilini parcha-parcha qiladur, – demishlar.

Mol va dunyoga magʻrur boʻlub, har kimga haqorat koʻz ila qaragan kishilar tezgina oʻzlari ham xor va haqoratga duchor boʻlurlar. Haqorat va birovni xoʻrlamak soʻz va ish ila oʻldigʻi kabi qalam va yozuv ila ham boʻladur. Baʼzi adab va tarbiyadan mahrum muharrir va shoirlar boʻladurki, dillariga kelgan narsalarni qay-tarmasdan, axloq va adabni rioya qilmasdan, xalqdan ibo qilmasdan, bachcha va juvonlar shaʼniga mu-vashshahmi, yoki bir moʻmin birodarlarining haqida hajv va istehzomi yozub, matbuot va adabiyot dunyosini iflos va mulavvas qilmak ila barobar oʻzlariga ham-suhbat boʻladurgan yoshlarning axloqini buzulmogʻiga sabab va namuna boʻlurlar.

*Ko'p o'turma yomonning suhbatida,
Pok bo'lsang, seni qilur iflos.
Ko'r nechuk oftob ravshandur,
Xira qilsa bulut, ko'rub bo'lmas.*

JIBONAT

Jibonat deb qo'rqoq va yuraksizlikni aytilur. Qo'rqoq kishilar vahm va xayolot asiri bo'lub, bir ishni ishlamakg'a jasorat qilolmaslar. Qo'rqoqlik eng yomon xulqlarning biridur.

Chunki qo'rqoq kishilarning so'z va va'dalariga ishonub bo'lmagani kabi yo'l va safarda ham hamroh bo'lmak xatodur. Zeroki, yuraksiz kishilarda sabr va sabot, jur'at va matonat kabi yaxshi sifatlar bo'lmaydur. Qo'rqoqlikning boshi tarbiyasizlik o'ldig'i kabi oxiri o'lumdur. Birdan bir narsadan qo'rqub, yuragi yorilub, o'lub qolgan qo'rqoqlar ham bo'ladur. Shul xususga biz turkistonlilar hech ahamiyat bermaymiz. Bolalarimizni yaxshi tarbiya qilmaymiz, «ana, ola bo'ji kelvotti» deb qo'rqoq va yuraksiz qilib o'tiramiz. Shuning uchun bizlarning bolalarimiz hech narsaga jasorat qilolmaydurgan, kech bo'lsa uydan eshikka chiqolmaydurgan, hatto o'zining soyasidan qo'rqadurgan yuraksiz bo'lub o'sadur. Bular kishi bo'lganda ham foydali ishlarni ishlovdan mahrum bo'lub, faqir va muhtojlikda qolurlar. Bas, qo'rqoqlik soyasida o'zlariga yeng bo'lmagan yuraksiz kishilardan millatga bo'y bo'lolmasliklari tabiiydir.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallolohu alayhi va-sallam afandimiz: «Dunyolar yig'durub, oh-voh chekdurub qayg'uga soladurgan baxillik kabi yuragi yorilur darajada qo'rqoqlik kabi er kishida bo'lgan sifatlarning

yomoni yoʻqdur. Yana, qoʻrqqoq savdogar har zamon foydadan mahrum boʻlur. Jasoratli, bahodir savdogarlarning doimo rizqi ortar», – demishlar.

HASAD

Hasad deb bir odamga janobi Haq tarafidan berilgan neʼmat va davlatning zavolini tilamakni aytilur. Gʻiybat, boʻhton, suʻizan kabi yomon xulqlar hasaddan tugʻilur. Hasad axloqi zami-malarning eng zararligidur.

Janobi Haq Qurʼoni Karimda «Va min sharri hosiden izo hasad» deb hosidning sharrindan oʻziga sigʻinmoqni amr etmishdur. Hukamolar hasadni otashga oʻxshatmishlar. «Otash oʻzidan oʻzi yonub kul boʻlgani kabi hasudlarning jasaki hasad oʻti ila erub, mahv va barbod boʻlur», – demishlar.

Hasadning yomonligʻining sababi Alloh taologa qarshu eʼtiroz oʻldigʻindandur. Zeroki, hasadning «Oh! Falonchining mol va davlati, izzat va saodati manda boʻlsa, rohat va safoni man sursam edi» zimnindagi xayoloti harisonasi janobi Haqning oʻlchab bergan rizqiga qanoatsizligʻining nishonasidur.

Holbuki, janobi Haq bir neʼmatni birovga abas va bekorga ihson qilmaydur. Buning sir va hikmati oʻzining ilmi azaliysiga maʼlum shaylardandur. Banda hasad qilgani ila yoʻq, yordam qilgani ila bor qilolmaydur.

Alhosil, hasad doimo ya's va hasrat orasida umrguzaronlig' qilur. Qancha mol va dunyoga molik bo'lsa, yana hasadindan farog'at va rohat yuzini ko'rmasdan dunyodan ketar.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhu vasallam afandimiz: «Mo'min g'ibta qilur, munofiq esa hasad qilur», – demishlar.

G'ibta deb bir odamning daraja va molining zavolini orzu qilmay, «Koshki men ham shunday bo'lsam edi», orzusida bo'lmoqni aytilur. G'ibta esa mazmum emas, mamduh bir sifatdur. Inson dunyoda yaxshi ishlarga g'ibta qilib, o'rmak olub, o'zini saodati abadiyaga erishdirur.

Hazrati Ali: «Hasad hosidning adovatindan, kibr va shaqovatindan paydo boladurgan axloqi zamimadur. Shuning uchun hasud doimo azobi ruhoniy ichinda yashar. Bir kishining saodatini ko'rgan zamon hasad otashiga yonar. Hosidga mundan qattiq jazo bo'lurmi?» – demishlar.

Suqrot hakim: «Hasadchi kishi bir on va bir zamon rohat va farog'at yuzini ko'rmas. Dunyoda qancha mehnat va musibat bo'lsa, barchasi ul bechorani o'rab olmishdur», – demish.

Arastu hakim: «Dunyoda hammadan hosidning yuki og'irdur, chunki ul bechora butun dunyodagi shod va masrur odamlarning qayg'ularini o'z ustiga yuklab yuriydur», – demish.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Hasad qiluvchilar, so'z yurutkuvchilar, g'aybdan xabar berguvchilar mandan, man ham onlardan emasman», – demishlar.

Butun bo'lmas hasudning parcha noni,

Kuyar hosidning doim jism-u joni.

*Hasadchi xoh faqir o'lsun va yo boy,
Hasad norila yongay ustuxoni.
Ochar doim kuyub maqsuda hosid,
Chiqar tandan aziz ruhi ravoni.*

KIZB

**Kizb deb yolg'on so'zni aytilur. Yol-
g'onchi kishilarni kazzob deyilur.**

Payg'ambarimiz: «Al kazzobu lo ummati», – yolg'onchi mening ummatimdan emasdur, – demishlar.

Janobi Haq Qur'oni Karimda: «Kizbni imoni yo'q kishilar so'ylarlar», – demishdur.

Oqil va diyonatli kishilarga yolg'on so'zlardan tillarini saqlamak ila barobar, avlodlarini yolg'onga odat qildurmasdan tarbiya qilmaklari eng muqaddas vazifayi insoniyalaridur.

Ba'zi o'g'rilikka odat qilg'an o'g'rilar bo'lur emishki, bironing molini o'g'irlamoqg'a qodir bo'lmasalar, o'z mollarini o'g'irlar emishlar. Shunga o'xshash yoshlikdan yolg'onga xo'y qilgan va yolg'ondan lazat olgan kishilar bironni aldamak gunohligini bilsalar ham «Tarki odat amri mahol» mafhumincha tillarini yolg'ondan tiyolmaslar.

Ba'zi vaqtlarda o'z oilalarini ham vayron va parishon qilmakdan tortinmaslar. Hech bo'lmasa namomlik va mudohana yo'llariga ikki mo'min orasiga nifoq va adovat solub, hatto butun bir oilaning buzulishiga sabab bo'lurlar.

Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Yolg'ondan saqlaningiz, chunki yolg'on imondan yiroqdur», – demishlar.

Payg'ambarimiz faqat uch yerda yolg'onning mubohligini bayon qilub, «Biri muhoraba zamonida, ikkinchi er va xotunni rizo qilmoqda, uchinchi ikki mo'min orasini tuzatmakda yolg'on so'ylov joizdur», – demishlar.

*Agar qilsa kishi yolg'onga odat,
Razolatda yashab chekg'ay nadomat.
Xaloyiq ichra bo'lmas e'tibori,
Tegar boshiga cho'q sangi malomat.
Kiming bo'lsa agar yolg'onchi ismi,
Bu ismi o'zga bo'lmas to qiyomat.
Ishonmas el yolg'onchining so'ziga,
Agar bo'lsa so'zi kashf-u karomat.*

NIFOQ

Nifoq deb kishining oldida bir xil, orqasidan boshqa xil so'zlanadurgan so'zni aytilur. Munday so'zlarni so'zlovchi ikki yuzlama kishilarni munofiq deyilur.

Ba'zi hiylakor, ko'rnamak, yolg'onchi munofiqlar bo'lurki, manfaati shaxsiyalari uchun sizni qurbon qilur. Osh va noningizni yemak uchun oldingizda izhori do'stlik va minnatdorlik qilub, orqangizdan sirru asroringizni dushmanlaringizga eltub, g'iybat va shikoyatingizni qilub, alardan ham o'z nafsiga bir hissa chiqarur. Munday munofiqlar do'stlik va ittifoqning dushmani o'ldig'indan dunyoda izzat, oxiratda rohat yuzini ko'rmaslar.

Har vaqt insonlar orasida to'g'ri so'zlik, oq ko'ngillik yaxshi kishilar o'ldig'i kabi munofiq, ikki yuzlik

kishilarning boʻlishi tabiiydir. Shuning uchun har holda aql va tajriba soyasida ehtiyot uzra harakat qilmak, oq ila qorani, yaxshi ila yomonni, doʻst ila dushmani ayurmak, qalbi pok, xulqi toza, axloqi yaxshi kishilar ila hamnishin boʻlmak, ikki yuzlama, axloqsiz, harom-harishni farq qilmaydurgan munofiqlardan hazar qilmak va jirkanmak lozimdur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Bir odam ikki yuzlik boʻlsa, qiyomat kunida tili oʻtdan boʻlur», yana «Qaysi kishi musulmonlar orasiga judoligʻ solsa, bizdan emasdur», – demishlar.

*Munofiq yod oʻlunsa ismi poking,
Jahon boʻlgay jahim havlnoking.
Hayoting ranjish-u kulfatda barbod,
Tuzalmas to qiyomat bagʻri choking.
Kezarsan darbadar gʻurbat chekib zor,
Belingga yetmagay aslo etoking.*

TAMA

Tama deb birovdan bir narsa umidvor boʻlmakni aytilur. Aʻzo va javorihlari salomat, kuch va quvvatli kishilarga tama qilmak harom, ojiz va notavon, kuchsiz kishilarga mubohdur.

Tama balosiga giriftor boʻlgan kishilarda nomus va hayo degan yaxshi sifatlar boʻlmaydur. Hozirgi zamonda oramizda tama noni bilan qorin toʻygʻuzadurgan kishilarning hisobi yoʻqdur. Agar bularning biridan: «Birodar, saning oyoq-qoʻling butun, taning

sog‘, tama qilmak sanga harom emasmi?» – deb savol qilinsa, «Qanday qilay, ota-bobomning kasbi tilanchilik edi, man ham tama orqasidan ovqat qilurman», – deb tamani kasbga isnod berub, turluk-turluk bahonalar bayon qilur. Shariatda munday kishilarga tama orqasidan kasb qilmaklari mamnudur.

Alhosil, tama noni ila suyagi qotgan, ish va kasbga bo‘yin qo‘ymay, dangasa va yalqovlikka o‘rgan-gan va odat qilgan kishilarning o‘zlaridan yaxshilik umidi o‘lmadig‘i kabi bolalaridan ham yaxshilik kutub bo‘lmaydur.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Kishi qo‘linda bo‘lgan narsaga qiziqma! Tamadan saqlan! Zeroki, tama o‘zi hozir bir faqrdur. Namozingni ado qil! So‘ngindan uzr istarga to‘g‘ri keladurgan ishlardan saqlan», – demishlar.

Bo‘lmagil muhtalo duchor tama,

Aylar insonni xor-u zor tama.

Yo‘q qilub himmat-u qanoatni,

Oladur oldan ixtiyor tama.

Noni minnat uchun egur bo‘yning,

Qiladur ko‘zni intizor tama.

Yuzdan otkay hayo-yu sharmingni,

G‘ayrating kuydurar nori tama

Hirsi dunyo qiladi Qorundek,

Hotam isming yutar mori tama.

ZULM

Zulm deb birovning joniga yoki moli- ga zarar yetkurmakni aytilur.

Janobi Haq butun yer yuzidagi insonlarni huquqda musoviy – barobar qilub yaratmishdur. Mansab va davlatga, kuch va quvvatga magʻrur boʻlub, birovning haqigʻa taarruz va tajovuz qilmak zulmdur. Kattalikning izzati zulm va taaddida emas, shafqat va marhamatdadur. Kichiklikning lazzati nafrat va qarshulikda emas, sadoqat va hurmatdadur.

Shul xususda Shayx Saʼdiy:

*Gʻami zeri doston bexoʻr, zinhor,
Betars az zabardastiye ruzgor.*

Tarjimasi:

*Quvvatsizlar gʻamin yeb yur hamisha,
Quvvatlilardan etgil xavf pesh.*

deb kichiklarni izzat qil, kattalarni hurmat qil, maqolindagi hikmat va ibratlik sheʼri baligʻasini soʻylamishlar.

Dunyoda mazlumning ohidan oʻtkur narsa yoʻqdur. Mazlumning duosi ijobatga yaqindur. Qoʻrqmak va hazar qilmak lozimdur.

Bobolarimiz: «Pichoqni oʻzingga, ogʻrimasa, boshqaga ur», – demishlar.

Bir kishi zulmning yomonligʻini bilmak uchun boshqa bir odam tarafidan oʻz nafsiga qilinsa, chekadur-gan azobini oʻylasa, yomon fanoligi ochiq maʼlum boʻladur.

O'tkan zamonlardagi hukumatlarning barposi adolat ila poydor o'ldig'i kabi, inqiroz va barbodi ham zulm ila poytaxtga yetub va ul zolim hukumatlarning tarix sahifalarida faqat ismlari qolganligi hammaning ma'lumidir.

Rasuli akram nabiiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: «Ey bandalar! Allohdan qo'rqingiz, Allohning ismi ila ont ichamanki, bir mo'min bir mo'minga zulm qilsa, Alloh taolo qiyomat kunida ul odamdan o'ch olur», – demishlar.

*Adolat obi hayot-u sitam erur zulumot,
Bu zulmat ichra kiranlarga yo'q hayot-u najot.
Hazon zamoni kelsa, guliston yo'q o'lgandek,
Na yerda hukm surar zulm, mahv o'lur barakot.
Xarobazora do'nur zulm ila bilod obod,
Yashar u manzili vayronada boyqush, hasharot.
Agarchi shoh-u gado ikkisi olur bir go'r,
Kafandan o'z gag'a yetmas butun kuch-u harakot.
O'zingdan ojiz-u kuchsizlara sitam qilma,
Kimki zolim erur, ko'rmagay ulug' darajot.
Hazar qil ohidan, afg'onidan u mazluming,
Bir oh birla solur boshingga butun arasot.
Xudoni yodida bo'l, bo'lmagil dil ozori,
Aylan Allohingga, «Hijron», talab qilub hojot.*

Kotib: Abdulmannon ibn Abdulmajid (Uyg'ur)

BIR-IKKI SO‘Z

Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg'a g'ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdulillah val minna ikkinchi tab'inada muvaffaq o'ldum. Chunki Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilmish mukammal «Axloq» kitobining yo'qlig'i frodi millatning shunday bir asarga tashna va muhtoj ekanlig'i o'zum muallimlar jumlasidan o'ldig'imdan manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqtlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram Shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir ish bo'lsa ham, ozinga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim. Va shul maqsadga mabni har bir so'zning oxiriga, ikki-uch band she'r ham yozdim va bu yozgan she'rimning orasida ba'zi arabiy, forsiy she'rlarning tarjima va mazmuni ham ko'rilar. Maorifparvar muallim birodarlarim meni bu asari ojizonamni iltifotsiz qoldurmay, bu xizmati nochizonamni ko'zdan kechurub va bundan so'ng ham banim qalamim ila nashr o'linajaq kitoblarni lutfan maydoni ta'lima qo'ymoq ila barobar tabiiy o'lan nuqsonlarini tanbeh va tanqid qilmakda himmati maorifparvaronalarini bandadan darig' tutmasalar edi.

Toshkand, Abdulla Avloniy – taxallus «Hijron».

**«TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ»
asarida uchraydigan soʻzlar lugʻati****A**

- aqsom – qismlar, farmonlar (birligi – qism)
ahkom – hukmlar, farmonlar
abas – foydasiz, oʻrinsiz
adovat – dushmanlik, kek
ajz – kuchsizlik, iqtidorsizlik
amal – 1) ish, harakat; 2) mansab
amora – amr etuvchi, qistovchi, buyuruvchi, hukmron
anoniyyat – manmanlik, gʻurur, xudbinlik
arar – sarv, qaddi qomati kelishgan
arasot – maydonlar, sahnlar (birligi – arsa)
atolat – mutaassiblik, moʻrtlik, boʻshlik
afv – kechirish
afrod – yakkalar, yolgʻizlar (birligi – fard)
afʻi – zaharli
afʻol – harakatlar, qiliqlar (birligi – feʻl)
aʻmo – koʻr, soʻqir
aʻmol – amallar, ishlar (birligi – amal)
axavon – birodarlar, oʻrtoqlar

B

- baid – yiroq, uzoq
baligʻ – nafis, silliq
balohat – ahmoqlik, razillik
barbod – yelga, havoga sovurmoq
basit – sodda, oddiy
bebok – beparvo, hayosiz, bevosh
bori – yaratuvchi, xudo

buxl – baxillik, qizgʻanchilik
buʻz – kiyna, kek, gina, dushmanlik

V

viqor – ogʻiriik, chidam, ulugʻvorlik
vojib – bajarilishi zarur, majburiy
voqif – xabardor; biluvchi
vuqur – chidamlilik, bardoshlilik

G

goʻsha – burchak, xilvat, chekka joy
goʻshanishin – xilvatga kiruvchi, xilvatda oʻtiruvchi

D

darajot – darajalar, martabalar (birliqi – daraja)
daroz – uzun
dast – qoʻl
dafʻ – qaytarish, rad etish
dahr – dunyo, olam
digar – boshqa
diyomat – 1) soflilik, toʻgʻrilik; 2) dindorlik: dor – uy, xona

Z

zabon – til
zabt – qoʻlga olish, egallash
zavol – yoʻq boʻlish, soʻnish, botish
zako – zehnlilik, tez tushina olishlik, ziyoraklik
zalil – xor, faqir, tuban
zalillik – xorlik, haqirlik

zamima – yomon, yomonlashga loyiq, axloqi zami-
ma – yomon xulqlar, yaramas odatlar
zeroki – chunki
zi – tirik, jonli
zidd – qarshi, qarama-qarshi
zillat – past, pastkashlik
ziroat – ekin, ekish, dehqonchilik
zoye – yo‘qolgan, nobud bo‘lgan
zoyil – o‘chmoq, yo‘q bo‘lmoq
zokir – yod qiluvchi, tilga oluvchi
zohir – ko‘rinib turgan, oshkor
zohiran – yuzada, ko‘rinishda, tashqi tomoni
zohirparast – ishga yuzaki qarash, bir narsaning
tashqi tomoniga e‘tibor berish
zulumat – zulmatlar, qorong‘uliklar (birligi – zulmat)

J

javorih – badan a‘zolari: qo‘l, oyoq, ko‘z, quloq kabi
jamol – go‘zallik, husn
jahd – tirishish, astoydil harakat qilish
jahim – jahannam, do‘zah
jahl – bilmaslik, bilimsizlik – nodonlik
jaholat – johillik, nodonlik
jibohat – qo‘rqoqlik, qat‘iyatsizlik
jidd – tirishish, sa‘y, cholishish
jinon – jannatlar (birligi – jannat)
jovidon – abadiy, doimiy, mangu
jurm – gunoh jinoyat

I

iyzo – ozor berish, uyaltirish
imon – ishonch, e‘tiqod

inoyat – mehribonchilik, marhamat
 ins – inson, kishi, odam jinsi
 inqiroz – botish, orqaga ketish, tamom bo‘lish
 ioda – qaytish
 irtiqob – kirishish, biror noo‘rin ishga kirishish
 isloh – tuzatish
 istiqomat – turg‘unlik, sog‘lik, ishga chidamlilik
 istihbob – sevish, ma‘qullash
 istehzo – masxara qilish
 itoat – bo‘ysunish
 ifrot – oshirish, haddan oshish
 iftiro – bo‘hton, tuhmat
 iftixor – faxrlanish, maqtanish
 iffat – poklik, tozalik, nomus, yomonlikdan saqlanish
 ixtiro – yangilik yaratish, o‘ylab chiqarish
 iqtidor – qodir bo‘lish, qudrat
 ihtiroz – saqlanish, ehtiyotlanish

K

kabir – katta, ulug‘, qudratli
 kavnayn – ikki dunyo
 kaj – egri, qiyshiq, qing‘ir
 kazzob – yolg‘onchi
 kalima – so‘z, nutq
 kalom – so‘z, gap, nutq
 kamol – to‘lalik, mukammallik, iste‘dod
 karon – chet, chegara, qirg‘oq
 kas – kishi, shaxs
 kasir – ko‘p, mo‘l
 kasolat – sustlik, bo‘shashganlik
 kashf – ochish, topish
 kizb – yolg‘on

kin – dushmanlik, ko‘rolmaslik
kom – tilak, maqsad
kor – ish, mehnat
ko‘shish – harakat, sa‘y, tirishish

L

lafz – og‘zaki so‘z, ifoda
la‘l – qizil rangli tosh, qizil lab
lahja – sheva
lison – til
lobud – majburiy, bo‘lishi shart
lutf – muloyimlik, rahmdillik, marhamat

M

mabno – asos, o‘zak, poydevor
mavt – o‘lish, vafot etish
mavsum – sifatlangan, maqtalgan
magas – pashsha
maziyyat – ortiqlik, ziyodlik
mazmum – yomonlangan, nafratli, yomon
mazhab – yo‘l, ta‘limot, maslak
malak – farishta
malomat – ayblash, yomonlash
mamduh – maqtovli, maqtashga loyiq
mamnu – man etilgan, taqiqlangan
mamot – o‘lim, vafot
masmum – zaharlangan
masrur – xursand, shod
mas‘ud – baxtli, saodatli
matin – mustahkam, puxta
matonat – qat‘iyat, bardoshlik, chidam

- mafhum – fahmlangan, tushunilgan tushuncha
mashru – 1) qonuniy, ruxsat etilgan; 2) boshlanish
maʼrifat – bilim, bilish
maʼsiyat – gunoh, isyon
maqbul – yoqimli, goʻzal, maʼqullangan
maqol – soʻz, nutq
mahv – yoʻqolish, bitish, tugash
mahjub – 1) yopiq; 2) kamtar
mahd – beshik
mahkum – hukm qilingan
moloʻyaʼni – maʼnosiz, mazmunsiz
mor – ilon
moyayi zilli humodur – baxt-saodat asosi
muboh – ruxsat etilgan ish
muvaddat – doʻstlik, oʻrtoqlik
muvashshah – bezatilgan
mudohana – xushomadgoʻylik, laganbardorlik
mukallaf – 1) taklif etilgan; 2) burchdor
mulavvas – ifloslangan, palid, murdor
munis – doʻst, oʻrtoq
munislik – doʻstlik, oʻrtoqlik
munofiq – ikkiyuzlamachi, oraga nifoq soluvchi
murabbiy – tarbiyachi
murid – 1) talab etuvchi, istovchi; 2) ergashuvchi
murofia – tortish
muruvvat – 1) mardlik, jasurlik; 2) saxiylik
murshid – toʻgʻri yoʻlga soluvchi, yoʻl koʻrsatuvchi
musammo – nomlanuvchi, ataluvchi
musahhar – fath etilgan, boʻysundirilgan
musibat – qiyinchilik, ogʻirchilik
musoviy – teng, barobar
musovot – tenglik, barobarlik
musohib – hamsuhbat, doʻst, ulfat

musrif – isrofgar, isrof qiluvchi
mutaassir – ta'sirlangan
mutafakkir – uzoq o'ylovchi, keng fikrli
muxolasat – samimiylik, samimiyat
mushohada – ko'z bilan ko'rish, ko'zdan kechirish
mushtarak – umumiy, o'rtadagi
muqaddas – pok, toza, nuqsonsiz
muqobala – qarshi kelish, qarshi chiqish
muhib – sevuvchi, do'st tutuvchi
muhlik – xavfli
muhokama – hukm qilish, bir fikrga kelish
muhoraba – urush, jang
muhtaram – hurmatli, aziz
muhtasham – hashamatli, haybatli

N

nadomat – pushaymon qilish, afsuslanish
nazar – qarash, ko'rish
nazari ibrat – ibrat ko'zi
nazokat – noziklik, adab, tarbiya
nazofat – tozalik, poklik, ozodalik
nazohat – soflik, tozalik, nuqsonsiz
namimat – chaqimchilik
nammom – chaqimchi
nafsoniyat – o'z shaxsiyatiga berilish, o'z nafsiga
tortish
nahy – qaytarish, man qilish, taqiqlash
nifoq – kelishmovchilik, munofiqlik
niqor – gina, dushmanlik, kek
noyil – yetishmoq, erishmoq
nor – o't, olov

O

odob – yurish-turishdagi yaxshiliklar (birligi – adab)
 olat – asbob, qurol (ko‘pligi – olot)
 olom – alamlar (birligi – alam), dard, tashvish, qayg‘u
 orif – biluvchi, ma‘rifatli, dono
 osiy – gunohkor, gumroh, isyonkor
 osor – belgilar, nishonalar (birligi – asar)
 osuda – tinch, tashvishsiz
 otash – o‘t, olov
 ofiyat – sog‘liq, tinchlik
 oqibat – oxir, so‘ng, natija

R

rajo – umid, tilak
 Razzoq – rizq beruvchi, to‘ydiruvchi, xudo
 razolat – pastkashlik, tubanlik
 ranj – mashaqqat, mehnat
 raxovat – dangasa, tanparvar, ishyoqmas
 raqobat – qarama-qarshilik, musobaqa
 rahnamo – yo‘l ko‘rsatuvchi
 riyozat – qiynalish, mashaqqatlanish
 rioyat – e‘tiborga olish
 roje – qaytuvchi
 rom – bo‘ysunish; ruz – kun

S

sadoqat – do‘stlik
 sadr – 1) ulug‘ mansab; 2) boshliq
 sayyid – 1) boshliq, yetakchi 2) payg‘ambar avlodi
 saloh – qurol-yarog‘
 samara – 1) meva; 2) natija

saodat – baxt
sarvat – boylik
sarzanish – 1) koyish, jazo berish; 2) tanbeh
safolat – pastkashlik, xasislik
safohat – aqlsizlik, nodonlik, ablahlik
saxovat – saxiylik, qo‘li ochiqlik
sa‘y – harakat, tirishish, urinish
sahv – xato, yanglish
siloh – qurol, aslaha
siroyat – yuqish, ta‘sir qilmoq
sobir – sabrli, sabr qiluvchi
soil – so‘rovchi, tilovchi, qashshoq
surfa – yo‘tal, ko‘kyo‘tal
su‘izan – biron haqida yomon fikr qilmoq, haqorat, qasd
sunnat – qonun, odat

T

taaddi – zulm qilish, ezish
taayyish – shodlik, hayotdan rohatlanish
taarruz – qarshilik ko‘rsatish
taassub – fanatizm, shovinizm, dushmanlik, ko‘rolmaslik
tavozu – adablilik, o‘zini past tutish, kamtarlik
tavfiq – yordam, madad
tadovi – davolash
tajovuz – o‘tish, chegeradan o‘tish
tazvir – firib, aldash
takfir – kofir (ishonmovchi) deb hukm qilish
talx – achchiq
tama – ochko‘zlik, qizg‘anchiqlik
tamiz – sof, toza
taoli – yuksaklik, ko‘tarilish
taraddud – ikkilanish, shubha, qat‘iyatsizlik
tafrit – ishga sustlik bilan qarash

tashbih – o‘xsriatisri
 tahammul – sabr, qanoat
 tahdid – qorqitish, doq qilish
 tahlika – xavf, xatar
 tibb – tibbiyot, tabiblik ilmi
 tijorat – savdogarchilik

U

ubudiyat – bandalik, qullik
 uzr – 1) kechirim; 2) bahona, sabab
 ulamo – olimlar (birligi – olim)
 ulviyyat – baland martabalik, yuqorilik
 uluviyya – ulug‘lik, oliy darajali
 uluviyat – yuksaklik, ulug‘lik
 umron – obod, obodonchilik
 ummat – kishilar to‘dasi, bir payg‘ambarga tobe kishilar
 ummul xabois – yomonliklarning onasi
 umur – ishlar (birligi – amr)
 uqubat – azob, qiyinchilik
 uhda – 1) majburiyat; 2) javobgarlik

F

fano – tugalish, yo‘q bo‘lish, o‘lish
 farz – shart, majbur
 fart – ortqlik, cheksizlik
 fasod – buzilish, buzuqlik, ig‘vo
 fasohat – so‘zning ravshan, yoqimli bo‘lishi, chiroyli uslub
 fatvo – shariat qonunlariga doir beriladigan yo‘l-
 yo‘riq, ko‘rsatma
 fatonat – o‘tkir zehn, ziyraklik, tez fahmlik
 fath – 1) ochish; 2) zabt etish, qo‘lga kiritish
 faqir – kambag‘al, qashshoq

fido – qurbon qilmoq, bag‘ishlamoq
fisq – buzuqlik, axloqsizlik
fiqh – islom diniy qoidalariga doir huquq ilmi
fosid – buzuq ishlar bilan shug‘ullanuvchi, fasodchi
fohish – yomon ishlar qiluvchi, adabsiz

X

Xalqoq – yaratuvchi, xudo
xam – egilgan, bukilgan
xandon – kuluvchi, shod, xursand
xarj – chiqim, sarf
xasosat – tama qilish, pastkashlik
xasta – kasal, bemor
xilvat – xoli, kimsasiz tinch joy
xilof – teskari, zid, haqiqatga qarshi
xirad – aql, hush
xiradmand – aqlli, dono, bilimdon
xok – tuproq
xoksor – 1) tuban, past; 2) kamtar
Xoliq – yaratuvchi, xudo
xor – tikan
xudbin – takabbur, boshqalarni nazariga ilmovchi
xulafo – xalifalar (birligi – xalifa), yordamchi, o‘rinbosar
xun – qon
xurofot – uydurma, asossiz gaplar
xurram – shod, xursand
xusumat – janjal, dushmanlik, ziddiyat
xush – yaxshi, ma‘qul

Ch

charx – 1) aylanish; 2) ko‘k, osmon, dunyo
chashm – ko‘z, chashmi ibrat – ibrat ko‘zi

cholişmoq – ishlamoq, mehnat qilmoq
 choh – chuqur, quduq, zindon
 chugʻi – boyoʻgʻli, boyqush
 choʻx – koʻp

Sh

shab – tun, kecha
 shaji – botir, jasur; shijoatli
 shafi – vositachi, himoyachi
 shafolat – vosita boʻlish, vssitachilik
 shaqovat – baxtsizlik, yaramaslik, yomonlik
 shahodat – guvohlik
 shiddat – qattqlik ogʻirlik
 shijoat – botirlik, dovyuraklilik
 shikasta – siniq, koʻngli ozor topgan
 shorn – kechqurun, qorongʻulik
 shomil – yoyilgan, yoymoq, umumga tegishli

Ya

yaʻs – maʻyuslik, umidsizlik, qaygʻu

Q

qabohat – qabihlik, yomonlik
 qavl – gap, soʻz
 qalb – yurak, dil
 qanoat – sabrlilik, chidam
 qarobat – yaqinlik, qarindoshlik
 qiroat – oʻqish; qotil – oʻldiruvchi
 quvvat – kuch, quvvat
 qusur – kamchilik, nuqson

G‘

- g‘aniy – boy, badavlat
g‘arib – kimsasiz, musofir
g‘ubta – orzu, orzu qilmak, umid

H

- hab – 1) dona, don; 2) no‘xatdek yumaloq shakldagi dori (tabletka)
havlnoq – qo‘rqinchli, dahshatli
hadis – so‘z, gap
hayo – uyat, sharm, or, nomus, adab
halim – yumshoq tabiatlilik, muloyimlik
hamoqat – ahmoqlik
handasa – geometriya
harisona – ochko‘zlarcha, tama‘gir
hasab – soni, miqdori
hasad – ko‘rolmaslik, qizg‘anish
hasana – yaxshi, go‘zal, chiroyli, yaxshilik
hasosat – hushyorlik, ziyraklik
hasud – hasadchi, ko‘rolmaydigan
haqorat – tahqirlash, so‘kish
hiddat – tezlik, o‘tkirlik
hikmat – falsafa, donolik
hilm – yumshoqlik, muloyimlik, yuvoshlik
hisor – qo‘rg‘on, qal‘a
hifz – saqlash, qo‘riqlash
hubb – sevisht
hukamo – hakimlar, donishmandlar, tabiblar (birligi – hakim)
husud – hasadchi, hasad qiluvchi

MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV (1878 - 1931)



Munavarqori Abdurashidxonov 1878-yilda Toshkentning Shayhontohur dahasidagi Darxon mahallasida dindor ziyoli oilasida tavallud topgan. Otasi Abdurashidxon madrasada mudarris, onasi Xosiyatxon mahallaning otin oyisi bo'lgan.

Munavarqori ilk saboqni ota-onasidan, mahalla maktabidan olib savodini chiqardi. So'ngra Toshkentdagi Yunusxon madrasasida va Buxoro madrasasida ta'lim oldi. 1904-yildan boshlab faol ijtimoiy hayotga kirib bordi.

Munavarqori 1903-yildan jadid maktablari ochib, dars bergan. Shunday maktablar uchun tovush usulida yozgan «Adibi avval» («Birinchi adib», 1907) alifbe kitobi, «Adibi soniy» («Ikkinchi adib», 1907. Unda «Himmatli faqir» she'ri keltirilgan) o'qish kitoblari bir necha bor nashr qilingan. 1908-yil uning «Sabzazor» (to'plam), «Yer yuzi» (geografiyadan), «Tajvidal Qur'on» (Quronni o'qish usulini o'rgatgan) kitoblari ham bosilib, yangi usuldagi maktablarda darslik sifatida qo'llangan. 1906–1917-yillarda jadid gazetalarida muharrirlik qilgan, «Xurshid», «Najot», «Kengash» kabi gazeta va bir qancha jurnallarga asos solgan, jadidlar teatri targ'ibotchisi bo'lgan. Munavarqori millatimizning ma'rifiy kelgusi va mustaqillik yo'lini munavvar qilib ketgan zotdir. «Chor hu-

kumatini yo'qotish jadidlarning tilagida bor edi» deb yozgan edi 1920-yildagi maqolalaridan birida u.

«Sho'royi Islom» tashkilotining (1917 – 1918) ideologi va rahbari sifatida faoliyat ko'rsatdi. 1929-yilda millatchilikda nohaq ayblanib qamoqqa olindi va 1931-yilda otib tashlandi. Uning xoki Moskvadagi Vagankovo qabristonidadir.

ADIB US-SONIY

ILM

Ilm – bilmagan narsalarini bilganlardan o‘rganmoqdir.

Odam bolasi tug‘ilgan zamonda hech narsani bilmas. Hattoki so‘zlamog, yozmog, yaxshini yomonidan, oqni qoradan ayirmak kabi eng kerakli narsalardan mahrumlik holda dunyoga kelur. So‘ngra oz-oz o‘rganmog ila har narsani bilur.

Otalarimiz, onalarimiz, ulug‘larimiz va muallim afandilarimiz ushbu bilgan narsalarimizni o‘rgatmagan bo‘lsalar edi, hozirda biz ham hech narsani bilmas eduk. Shuning uchun odam bolalariga ziyoda lozim bo‘lgan narsa – bilmaganlarini bilganlardan so‘rab va o‘qub o‘rganmak, ya‘ni ilm degan aziz va foydali narsani qo‘lga olmak uchun harakat qilmoqdir.

Ilm – odamning zehni ochar, aqlini orttirar, bilmagan narsalarini bildirur, dunyoda baxtli va izzatli qilur. Oxiratda saodatli va sharofatli qilur.

Ilmdur dunyoda eng yaxshi hunar,

Ilmsizdan yaxshidur gung ila kar.

Har kishi ilm-la bo‘lsa oshno,

Izzat-u davlatda bo‘lg‘ay doimo,

Ilmsiz odam zalilu xor o‘lur,

Ilmsizlardan hamma bezor o‘lur.

AXLOQ DARSLARI

ODOB

Bir kishi Luqmoni hakimdan: «Odobni kimdan o'rgandingiz?» – deb so'ramish. Luqmoni hakim: «Odobni odobsizlardan o'rgandim», – deb javob bermishlar.

Ul kishi yana so'ramishki: «Odobni odobsizlardan qanday o'rgandingiz?»

Luqmoni hakim javob bermishlarki: «Doim kishilar-ning qilgan ishlariga va so'zlagan so'zlariga diqqat ila qarab yurdim. Kimdan yomon so'z eshitsam, ul so'zni hech bir so'ylamadim, kimdagi bir yomon ish ko'rsam, ul ishni hech bir qilmadim, shuning ila odobli bo'ldim».

Hissa: odobli bo'lurman degan kishi har narsaga izzat ko'zi ila boqub, izzat olur. Qaysi ish ko'ziga yaxshi ko'runsa, ul ishni qilmoqg'a harakat qilur. Va qay ish ko'ziga yomon ko'rinsa, ul ishdan o'zini tortur. Bunday qilgan kishi, albatta, odobli bo'lur.

ISKANDAR ZULQARNAYN

O'tgan zamonda Iskandar degan ulug' bir podshoh bor edi. Bir kun bir devonaga yo'liqdi.

Devonaning ba'zi harakatlari podshohga xush kelub, aytdiki: «Ey devona, mandan bir narsa so'ragil».

Devona aytdiki: «Ey podshohi olam, pashshalar manga har vaqt tashvish beradurlar. Yuz va qo'llarim-

ni choqub, xafa qiladurlar. Buyursangizki, pashshalar manga bunday ozor bermasalar».

Podshoh aytdi: «Ey devona, mandan shunday narsa soʻragilki, ul narsa manim hukmimda boʻlsun. Man pashshaga nechuk buyruq qilurman?»

Devona aytdi: «Ey podshoh, dunyodagi maxluqlarning eng kichkinasi va oʻjizrogʻi pashshadir. Shul pashshagaki hukmingiz yurmasa, emdi sizdan nima soʻrarman?»

Hissa:

*Dunyoda sening na hojating vor,
Soʻragil oni san Xudodan, ey yor.*

LOFCHI

Bir lofchi kishi bor edi. Lof va yolgʻon soʻzlarni koʻp soʻzlar edi. Bir kun bir majlisda dengizlarning ahvolidan va dengizda koʻrgan tomoshalaridan hikoya qildi.

Majlisdagi kishilardan biri soʻradiki: «Ey birodar, siz dengizda koʻp sayohat qilganga oʻxshaysiz, dengizlarning baliqlari qanday boʻlur ekan?»

Lofchi ul kishiga boqub: «Haligacha siz dengiz baliqlarini koʻrganingiz yoʻqmi? Dengiz baliqlari tuyaga oʻxshash ikki uzun shoxli boʻlurlar», – dedi.

Majlisda oʻlturganlar bildilarki, ul bechora na tuyani koʻrgan ekan va na dengiz baligʻini. Barchalari birdan kulishib yubordilar. Lofchi uyalib, majlisdan chiqib ketdi.

Hissa:

*Oʻgʻul, parhez qil san ham hamisha lofu yolgʻondan –
Ki yaxshidur sukut etmoq, aytub yolgʻon-u
yolgʻondan.*

IKKI YO‘LDOSH

Ikki kishi do‘st va yo‘ldosh bo‘lib, safarga chiqdilar. Yo‘lda bir ayiq chiqib, bularga yugurib hujum qildi. Bularning biri yosh va chaqqon edi. Shu sababli tezlik ila qochub, bir yerga bekindi. Ammo ikkinchisi o‘zining keksaligi va kuchsizligidan qocholmay qoldi. Nachora, o‘zini bir yerga tashlab, o‘likga o‘xshab qimirlamay yotdi. Ayiq kelub, buni iskab-iskab, o‘luk gumon qilib, zarar yetkurmey tashlab ketdi. Ayiq ketgandan so‘ngra yo‘ldosh bekingan yeridan chiqub keldi va kulib aytdiki: «Ey yo‘ldosh, ayiq qulog‘inga nima deb shivirladi?»

Yo‘ldosh javob berdi: «Ayi q qulog‘imga, bunday o‘jizlik vaqtida seni tashlab ketadurg‘on kishiga bundan so‘ng aslo yo‘ldosh bo‘lma, deb shivirladi».

Hissa: shunday kishilar ila do‘st va yo‘ldosh bo‘lmoq kerakki, shodligingga shod, xafaligingga xafa bo‘lsun. Oshga o‘rtoq, boshga to‘qmoq bo‘lmasin.

TO‘G‘RI JAVOB

Otasi o‘lub, bir kishi o‘ldi boy,

Ki qoldi anga mol-u mulk, saroy.

Oning oldiga bir faqir kelib,

Salom ayladi ko‘p tavoze qilib.

Dedi: «Man sanga tug‘ma qardoshman,

Bu mol-u manolingga yo‘ldoshman.

Otangdan chu qoldi sanga buncha mol,

Bo‘lib ber menga yarmini ushbu hol».

Ul odam dedi hayrat ila ango:

«Nechuk san qarindosh o‘lursan mango?»

Faqir aydi: «Ey mehribonim, eshit;

Quloq sol, bu arzi nihonim eshit,

San-u man hama olam insonlari,
 Emasmizmi bir odam o'g'lonlari?»
 Bu so'zni eshitgach, tabassum qilib,
 Bir oltun chiqardi, dedi: «Ol kelib»
 Ul aydi: «Birodar, bu qanday suxan,
 Manga shulmidir hissa merosdan?»
 Javobida ul mardi shirin kalom,
 Dedi: «Sokit o'l, bilmasun xos-u om.
 Eshitsa gar o'zga qarindoshlar,
 Uzog'u yaqin, yor-u yo'ldoshlar,
 Bo'lib olsalar, mol-u mulk tamom,
 Sango tegmagay bir tiyin, vassalom».

PAND

Yaxshi muomalani do'st va dushmanga barobar qilmoq lozimdur. Chunki yaxshi so'z do'stlarning do'stliklarini ortturing. Dushmanlaringni do'stlikka aylantiring.

*Bo'lur xulq-u xush ham suchuk til bila,
 Etaklab ulug' filni qil bila.
 Chiqar yaxshi so'z-la ilon inidan,
 Yomon so'z ila musulmon dinidan.*

JO'G'ROFIYA

Yerning ahvolini bildiradurg'on ilmni jo'g'rofiya deyilur. Yer bizning ko'zimizg'a tekisg'a o'xshab ko'rinsa ham, aslida tekis emas. Balki po'rtaxolg'a o'xshash yumaloqdir. Avvallarda «Yer ho'kizning shoxida turadir», degan so'zlarga har kim ishong'on bo'lsa ham, hozirg'i zamonda andog' so'zlarning aslzilig'i har kimga ma'lumdir. Yer hech narsaning ustida turmas. Balki havoning o'rtasi muallaq turadur.

Po'rtaxolning yuzi o'zining po'sti ila qoplong'onig'a o'xshash yer yuzining ham to'rtidan uch bo'lagi sho'r suvlar ila qoplanmish, qolg'on bir bo'lagi tosh, qum va tufrog'lar ila qoplanmishdur. Suv ila qoplong'on o'rinlarini dengiz, ko'l va daryo deyilur. Tosh, qum va tufrog'lar ila qoplanmish o'rinlarini qurug'liq deyilur. Dengizlar besh bo'lak bo'lib, Bahri muhiti kabir, Bahri muhiti hind, Bahri muhiti atlas, Bahri muhiti munjami-di shimoliy, Bahri muhiti janubiy deb atalurlar. Ushbu dengizlar qurug'likning atrofini o'rab olmish ulug'dengizlardur. Bulardan boshqa qurug'likning orasig'a yorib kirmish nihoyatda ko'p ko'l va dengizlar bordur. Mashhurroqlari: Oq dengiz, Qora dengiz, Shimol dengizi, Kaspiy dengiz, Manosh dengizi, Bahrang dengizi, Boltiq dengizi, Atalar dengizi, Marmara dengizi, Azov dengizi, Bahri ahmar, Yaponiya dengizi va Chin dengizlaridur. Qurug'liq ham besh qitaga bo'linib, Evropa, Osiyo, Amriqo, Afriqo, Avstraliya deb atalur.

HAJJOJ ILA DARVESH

O'tgan zamonda Hajjoj ismli bir zolim podshoh bor edi. Ko'p ulamo va saidlarning boshlarini kesmish va qonlarini to'kmish edi. Aning jabr va zulmi shul darajaga yetmishdur, tarix kitoblarining har birida aning ismini Hajjoji zolim deb yod qilmishlar. Mana ushbu Hajjoj bir kun yo'lda bir darveshga yo'liqdi.

Oldiga chaqirib: «Ey darvesh, manim haqimga bir yaxshi duo qil!» – dedi.

Darvesh qo'lini duoga ko'tarib: «Yo Rab! Bu zolimni jonini tezroq olg'aysan», – deb duo qildi.

Hajjoj achchig'lanib: «Na uchun bunday yomon duo qilursan?» – dedi.

Darvesh: «Agar san tezroq oʻlsang, gunohing koʻpaymas. Va barcha fuqaro sening zulmingdan qutulur. Shuning uchun manim bu duom ham sanga va ham barcha kishilargʻa foydalidir», – dedi.

Darveshning toʻgʻri javobi Hajjojga xush kelub, koʻp inʻomlar berdi. Ham ul kundan boshlab zulmdan qoʻl yigʻdi.

TARBIYALI BOLA

Tarbiyali bola ulugʻlarni izzat va hurmat qilur. Oʻzi barobarigʻa yaxshi muomala qilur.

Va oʻzidan kichiklarga shafqat va marhamat qilur. Har kimning qadrini bilur. Oʻzidan rozi qilmoqgʻa harakat qilur. Qoʻlidan kelganicha boshqa insonlarga yordam berur. Insonlikgʻa yarashgʻan ishlardan oʻzini tortmas. Yarashmagʻan ishlarning (qancha foydalik boʻlsa ham), yaqiniga bormas. Oʻzi bilmaydurgʻan soʻzlarga va qoʻlidan kelmaydurgʻon ishlarga aslo aralashmas. Har ishda toʻgʻrilikdan ayrilmas. Doimo yaxshini yaxshi, yomonni yomon der. Har soʻzni vaqtigʻa va joyigʻa qarab soʻzlar. Har ishda bir foydani koʻzlar. Oʻzlarigʻa yoki boshqa insonlarga foydasi tegmaydurgʻon ishlarga qadam qoʻymas. Hech kimning ishigʻa, kuchigʻa zarar yetkurmas. Tarbiyasiz, yomon bolalarga qoʻshilmas. Ota va onasining, muallim va xalfalarning soʻzlaridan chiqmas. Har ishda insofni qoʻldan bermas. Birovdan bir yaxshilik koʻrsa, esidan chiqarmas. Qoʻlidan kelmagan ishni ustigʻa olmas. Ustigʻa olgan xizmatini qilmay qoldirmas. «Millat» degan soʻzni jonidan ortiq suyar.

SHAFQAT VA MARHAMAT

Odam bolalarig'a lozim bo'lgan yaxshi ishlarning biri muhtojlarga shafqat va marhamat qilmoqdur.

Shafqat va marhamat esa birov bir narsani so'rag'on vaqtida bor bo'lsa, ayamasdan bermak, agarda yo'q bo'lsa, shirin so'z ila uzr etmoq va qo'ldan kelganicha boshqalarga yordamda bo'lmoqdur.

Janobi Haq taolo hamma maxluqlarni bir-birig'a muhtoj va bir-birig'a sabab qilub yaratmishdur.

Podsho gadog'a, gado podshohg'a, boy faqirg'a, kofir mo'ming'a, mo'min kofirg'a hosil, hamma bir-birig'a muhtojdir.

Bu muhtojliq yolg'iz insonlar orasida bo'lmay, insonlar ila dunyodag'i jonliq va jonsizlarning barchasini orasida hamma vaqt ko'rilmakdadur. Insonlar minmoq, yuklarini ortmoq, yerlarig'a ekin sochmoq, sut va go'shtlarini yemoq va ichmoq uchun ot, tuya, eshak, qo'y, sigir, ho'kiz, baliq, tovuq kabi har xil hayvonlarga muhtoj bo'lurlar. Hayvonlar esa rizqlarini o'tkarmoq va bolalarini tarbiya qilmoquchun ko'p vaqtlarda insonlar tarafidan ekilgan o't, pichan va g'alalarg'a va soling'an imoratlarga muhtoj bo'lurlar. Shul sababli shafqat va marhamat to'g'risida insonlik, hayvonlik, kofirlik, mo'minlik, yaqinlik, uzog'lik, boylik va faqirlik kabi farqlarni e'tibor qilmay, barchani barobar ko'rmoq lozimdur.

ALI ILA VALI

Ali ismlik faqir bir bola bor edi. Bir kuni och qoldi. Non izlab koʻchagʻa chiqdi. Qoʻshnilardan birining Vali ismlik bir oʻgʻli bor edi. Vali qoʻligʻa bir parcha non ushlab, eshigining oldida yeb turgan edi. Bechora Ali esa ochlikdan oʻlum darajasigʻa yetkan edi. Valining qoʻlidagʻi nonni koʻrgʻani zamon oldigʻa borib, boʻynin egib, «Oʻrtoqjon, ozgina noningdan bersang-chi», – dedi. Vali esa tosh koʻngillik, shafqatsiz bola edi. Shu sababli Alining holiga hech bir rahm qilmay: «Bor ket, sanga beradurgan nonim yoʻq», – dedi. Oradan koʻp vaqt oʻtmadi. Bir kun Valining bir echkisi yoʻqoldi. Vali echkisini axtarmoq uchun dalagʻa chiqdi. Koʻp yurdi, oxirida tashna boʻldi. Har tarafdin suv izladi, hech bir yerdan suv topolmadi. Suvsizlikdan yiqilmoq darajasigʻa yetkan holda uzoqdan koʻzi Aliga tushdi. Ali bir daraxtning soyasida qoʻylarini oʻtlatib, oldigʻa bir koʻzada suv qoʻyib oʻtirmish edi. Vali shodlik ila Alining oldigʻa borib: «Birodar, suv bermasang, tashnaliqdan oʻlurman», – dedi.

Ali faqir boʻlsa ham oliyjanob bir bola edi. Valining holiga shafqat va marhamat qilib, koʻzani uzatdi. Vali toʻygunicha suv ichib, tashnalik balosidan qutuldi. Va oʻzining ulda qilgʻan marhamatsizligʻigʻa Alidan afvu soʻrab, minnatdorlik izhor etdi.

ISROF, BUXL VA SAXOVAT

Isrof o'ransiz va zaruratsiz yerlarga molni sarf etmakdir. Buxl eng zaruriy yerlardan ham olni qizg'anmoq va ayamoqdur. Saxovat esa har ikkisinin o'rtasi bo'lib, molni zarur va foydalik o'runlarga sarf qilub, zarursiz, foydasiz o'runlardan saqlamoqdur.

Isrof ila buxl din yuzasidan harom va aql yuzasidan eng yomon va mardud sanalg'an ishlardandur. Saxovat esa fazilatlarining eng yaxshisidir.

Isrof qilg'uvchini musrif deyilur. Buxl qilg'uvchini baxil va xasis deyilur. Saxovat qilg'uvchini saxiy va jo'mard deyilur.

Musrif kishi har qancha davlatlik bo'lsa ham, oxir bir kun faqirlik va xo'rlik balosig'a yo'liqadi. Buxl kishi har qancha boy bo'lsa ham, molining huzur-halovati, tiriklig'ining lazzati va shavkatidan quruq va mahrum qolur. Saxiy kishining kundan-kun moli ko'payib, izzat va obro'yi ortar. O'z barobarlari orasida so'zi o'tkur va e'tiborlik bo'lur.

MAKTAB

Bolalar tug‘ulub, olti-yetti kunlik bo‘lg‘anlarida onalari beshikka solurlar. Kecha va kunduz tinmasdan harakat qilub, ko‘krak sutlari ila tarbiya qilurlar. Qachonki bolalar olti-yetti yoshga yetsalar, maktabg‘a berurlar.

Maktabda muallim va xalfalar ko‘krak kuchlari ila tarbiya qilurlar. Bunga qaraganda, maktab bolalarning ikkinchi beshiklaridur.

Avvalg‘i beshikda bolalarg‘a onalari sut emizib, tanlarini o‘stururlar. Ikkinchi beshikda muallimlar ilm va odob o‘rgatub, aql va fikrlarini o‘stururlar. Bolalar uchun tanning salomatlig‘i lozimdur. Ammo aql va fikrning salomatlig‘i undin ortig‘roq lozimdur. Chunki aql va fikrsiz tandan na o‘zi uchun va na boshqa kishilar uchun hech bir foyda yo‘qdur.

Shul sababli bolalarga avvalgi beshiqdan ko‘ra, ikkinchi beshik bo‘lgan – maktab yaxshiroq va foydaliroqdur.

Avvalg‘i beshikda sut va taom berub boqqan ota va ona qanday do‘st va aziz bo‘lsalar, ikkinchi beshikda ilm va odob o‘rgatub, tarbiya qilg‘an muallim va xalfalar ondin ortug‘roq do‘st va azizdurlar.

*Erur maktab maorifning makoni,
Zamonidur buning yoshlik zamoni.
Kishi qilgay kishini ushbu maktab,
Bitirgay har ishini ushbu maktab.
Bu maktabda o‘qug‘on har bir inson,*

*Bilub ilm-u odob bo'lg'ay musulmon.
Necha ilm ol, odob dunyodakim bor,
Chiqubdur barchasi maktabdan, ey yor.*

ISKANDAR ILA ARASTU

O'tkan zamonda Iskandar Rumiyl degan bir podshoh bor edi. Aning Arastu otlig' bir olim va dono ustodi bor edi. Iskandar ustodini o'z yonig'a bosh vazir qilib, barcha mamlakat ishlarini shunga topshurmish edi. Bir ish qilsa, shung'a maslahat ila qilur edi. Eshikdan kelsa, o'rnidan turib, joy berur edi. O'zining otasidan ortuq izzat va hurmat qilurdi.

Bir kuni vazirlardan biri Iskandardan so'radiki: «Na uchun Arastuni otangizdan ortuq izzat qilursiz?»

Iskandar aytdi: «Otam go'yoki mani osmondan yerga tushurdi. Ammo, ustodim Arastu mani yerdan osmong'a ko'tardi, ya'ni otam mani dunyog'a kelmog'img'a sabab bo'ldi. Ustodim ilm va odob o'rgatub, martaba va izzatimning ortmog'iga sabab bo'ldi. Shuning uchun ustodimni otamdan ortuq izzat qilurman». Ustodni otadan ortiq izzat qilmoq kerak.

O'QUMOQ, YOZMOQ

O'qumoq, yozmoq ilmi qiyin bir ish emasdur. Balki, oz vaqt maktabda g'ayrat qilmoq ila o'rganiladurg'on bir hunardur.

Lokin, bundan hosil bo'ladurg'an foydalar nihoyatda ko'pdur. Tilsiz, quloqsiz bir odam ila sog' va salomat bir odam orasida qancha farq bor bo'lsa, o'qumoq, yozmoqni bilmag'an kishilar ila buni bilg'an

kishilar orasida shuncha farq bordur. Balki, ularning oralaridagʻi farq alarnikidan ortigʻ roqdur. Chunki tilsiz kishi har xil ishoratlar ila tilli kishilarning qiladurgʻon ishlarini qila olur. Quloqsiz kishi ham birovning soʻzini shunday ishoratlar ila bila olur. Ammo oʻqumoq, yozmoq ilmini bilgʻan odamlarning qiladurgʻon ishlarini buni bilmagʻan odamlar hech bir yoʻl ila qilolmaslar. Balki, oʻqumoq, yozmoq ilmini biladurgʻon bir kishigʻa muhtoj boʻlurlar. Bundan muallim bilurki, oʻqumoq, yozmoq ilmini bilmagʻan odamlardan tilsiz, quloqsiz kishilar yaxshidur.

AHMAD ILA ONASI

Ahmad olti yoshlik bir bola edi. Har vaqt onasining oldida oʻtursa, onasi eski hikoyalardan soʻylab, Ahmadni ovutib oʻtirardi.

Bir kuni Ahmadgʻa onasi aytdi: «Oʻgʻlum, Alloh taolo eng avval otamiz Odam alayhissalomni tufrogʻdan yaratdi. Soʻngra onamiz hazrati Havoni yaratdi. Ikkovlarini jannatgʻa qoʻydi. Bir emishni koʻrsatib: «Buni yemangiz», – dedi.

Bir kuni shayton bularni aldab, ul yemishdan yedir-di. Shuning uchun Alloh taolo bularni koyib, jannatdan chiqardi. Ikkovlari yer yuzigʻa tushib, er va xotun boʻldilar. Biz barchamiz shularning bolalarimiz».

Ahmad bu soʻzni eshitgach: «Onajon, siz hazrati Odam ila Havoni koʻrganmisiz?» – dedi.

Onasi: «Yoʻq, oʻgʻlim, kitoblardan oʻqub bildim», – dedi. Ahmad qoʻliga bir kitob olub, har qancha varaqlab koʻrsa ham, koʻziga qora chiziqlardan boshqa hech narsa koʻrinmadi.

Onasi Ahmadning bu holini koʻrib: «Oʻgʻlim! San maktabda oʻqumaguncha kitobdagi narsalarni koʻrol-

maysan», – deb Ahmadni maktabg'a berdi. Ahmad biroz maktabda o'qug'andan so'ngra, onasidan eshitgan hikoyalarini kitoblardan o'qib, o'zi biladurg'on bo'ldi.

OTA-ONA

Dunyoda bolalarg'a eng do'st va mehribon kishilar o'zlarining ota va onalaridurlar.

Har ona o'z bolasini avval to'qqiz oy qornida ko'tarib yuradi. So'ngra qancha azob va mehnatlar ila tug'ar. Bola tug'ulgan zamonda «inga» deb yig'lamoqdan boshqa bir narsani bilmas. Ona bechora shu bolani goh ko'tarub, goh yotqizub, goh turg'uzub, goh o'tquzub tarbiya qilar. Yig'lasa, ovutar. Och qolsa, emizib to'yg'uzar. Alhosil, bolaning xursandlig'i va salomatlig'i nima ila bo'lsa, har birini qilur. Kerak bo'lganda, molini va jonini bolasidan ayamas. Ota esa kecha va kunduz ishlab topg'an narsasini bolalarining osh, non va kiyimlarig'a sarf qilur. Buning ustig'a «O'zumdan so'ngra bolalarimg'a qolsun, bolalarim kishig'a muhtoj bo'lmasin», deb bir narsa orttirib qo'ymoq harakatida bo'lur.

Ota-onaning kecha va kunduz Xudodan tilagan narsasi bolalarining salomatlig'i va uzun umr ko'rmog'i, dunyo va oxiratda baxtli bo'lmog'idur.

Bolalarg'a bunday do'stlik va yaxshilikni ota-onadan boshqa hech kim qilolmaydur. Shul sababli bolalarg'a o'z ota va onalarini chin ko'ngil ila do'st

tutmoq, buyurgʻan ishlarini qilmoq, qaytargan ishlari-
dan qaytmoq lozimdur.

*Kishining bor ersa oto va onosi,
Gʻanimatdur anga alarning rizosi.
Xudoning qoshida qabuli yaqindur,
Oto va ononing bolaga duosi.
Olarining kim ogʻritsa koʻngillarini,
Qiyomatda boʻlgay jahannam jazosi.*

BOLA QURBONI

Bir xotun oʻzining toʻrt yoshlik qizini yetaklab bogʻchagʻa chiqdi. Ul vaqt bahor fasli edi. Bogʻcha yonigʻa koʻkargan yashil oʻlanlar va novda uchida ochilishgʻa yaqinlashgʻan gul gʻunchalari ila ziyatlan-
mish edi. Yashil oʻlanlar orasida har tarafgʻa choʻzilib ketgʻan uzun-uzun yoʻllar bogʻchani husnini ort-
turmish va oʻrtadan oʻtadurgʻon ulugʻ suv bogʻchani ikkigʻa ayirmish edi. Bu bogʻchagʻa kirgʻanda yosh qizning koʻngli ochilub, har tarafgʻa yugurmoqgʻa boshladi. Goho oʻlanlar ustigʻa yotub yumalanur edi. Goho koʻzigʻa yaxshi koʻringʻan gullarni uzib, koʻksigʻa taqub, onasigʻa koʻrsatardi. Onasi suv boʻyida oʻtirib, qizining yoqimli harakatlarini tomosha qilardi. Lekin bu xursandlik uzoqqa bormadi. Suv boʻyida yangigʻina ochilgʻon bir gulni koʻrib, uzaman, deganda qizning oyogʻi toyib suvgʻa yiqildi. Onasi bu holni koʻrib: «Dod, bolam! San oʻlguncha man oʻlay!» – deb qizining orqasidan oʻzini suvgʻa otdi. Bu tovushni bogʻbon eshitib, yugurib keldi. Bularni bu holda koʻrib, kiyimlarini yechib, oʻzini suvgʻa tashladi. Borib, avval onasini qutqarmoqchi boʻlgandi, onasi: «Mani qoʻy, avval bolamni

qutqar», – deb bog‘bong‘a yalindi. Bog‘bon ham qabul qilib, avval bolani qutqarib, suv chetig‘a chiqardi. Bog‘bon qaytub borg‘uncha bechora ona xiyla yerg‘a oqub bormish, o‘z jonini bolasig‘a qurbon qilmish edi.

BIRODARG‘A MUHABBAT

Ibrohim o‘z qarindosh va birodarlarig‘a muhabbatlik bir bola edi. Bir kun qo‘shnisining uyig‘a chiqqanda qo‘shnisi bir xizmat buyurdi. Ibrohim avval xizmatni yaxshilab qilganligi uchun qo‘shnisi olma berdi. Olmag‘a qiziqib, yemoqchi bo‘lganida uyda kasal bo‘lib yotgan singlisi esiga tushdi. Olma yolg‘iz o‘zidan o‘tmadi. Singlisining oldig‘a kirub: «Ukam, qo‘shnimiz bergan bu olmani sanga kelturdim! Ye!» – dedi. Singlisi suyunub, olmani oldi. Yarmini o‘zi yeb, yarmini yana akasig‘a berdi. Bu yo‘l ila bir olmani ikkovlari yeb xursand bo‘lishdilar.

Hissa: Birodarlar bir-birlarig‘a shunday muhabbatlik bo‘lmog‘i lozimdur.

KO‘R ILA DO‘XTIR

Yaxshig‘ina boy bir ko‘r kishi har vaqt bozorg‘a chiqib, har xil narsalar olurdi. Lekin ko‘zi ko‘rmag‘anlig‘i uchun yaxshi-yomonni ayira olmas edi. Yaxshi deb o‘ylab olg‘an narsalarining ko‘pi yomon narsalar edi. Bir kuni ko‘zining pardasini oldurmoq uchun bir do‘xtirni uyig‘a chaqirdi. Do‘xtir kelib, ko‘zini pardasini oldi. Bir necha kundan so‘ngra ko‘zi ochilub, uyidag‘i narsalarni ko‘rmoqqa boshladi. Bozordan olg‘on narsalarining har biri ko‘zig‘a yomon ko‘rindi. Borub: «San manim uyimdagi narsalarimni olub,

oʻrnigʻa yomon narsalar qoʻyibsana», – deb doʻxtirning etagidan tutdi. Doʻxtir: «Yoʻq, birodar! Avval san koʻreding. Bozordan olgan narsalaringni barchasi yomon narsalar edi. San oni bilmas eding. Emdi koʻrib, alarning yomonligʻini bilding», – deb javob berdi.

Hissa: Nodon kishi shul koʻrgʻa oʻxshaydir. Yaxshi deb oʻylagʻan narsalarining koʻpi yomon narsalar boʻlur. Ilm doʻxtirgʻa oʻxshaydir. Oʻqigʻan kishilarning koʻzlarini ochar. Soʻngra yomon ishlarning yomonligʻini bilib, ondan oʻzlarini torturlar.

YOLGʻONCHILIK

Har kim boʻlgʻon ishni boʻlmadi desa, boʻlmagʻon ishni boʻldi desa, ul kishi yolgʻonchi deyilur. Yolgʻonchilik gunohlarning ulugʻi, hadiyalarning buzugʻidir. Yolgʻonchilarning paydo boʻladigʻon ziyonlari nihoyatda koʻpdur. Yolgʻonchini Haq taolo doʻst tutmas. Xalq orasida soʻzining eʻtibori qolmas. Hech kimning soʻzigʻa ishonmas. Hammaning koʻzigʻa yomon koʻrinur. Chunki, yolgʻon soʻzning, albatta, asli chiqmay qolmas. Bu kun yo erta yolgʻonligʻi bilinub, soʻzlagʻuvchining uyalmogʻigʻa, sharmanda boʻlmo-gʻigʻa sabab boʻlur. Ul soʻzni chinlikka chiqarmak uchun yana necha yolgʻonlarni soʻzlamogʻ lozim kelur. Bu yolgʻonlar ham bir kun maʻlum boʻlur. Oxirida ul soʻzlagʻuvchining ismini odamlar yolgʻonchi derlar. Rost soʻzlasa ham, yolgʻongʻa hisob qilurlar.

YOLG'ONCHI BOLA

Bir maktabda Habib ismlik bir yolg'onchi bola bor edi. Habib doimo yolg'on so'zlar va har kimni aldar edi.

Muallim afandi Habibg'a: «Yolg'on so'zlama», deb ko'p nasihatlar qildi. Jazolar berdi, aslo bo'lmadi, chunki Habib yoshlikdan yolg'ong'a odat qilg'on edi. Yoshlikdan odat bo'lg'on ishni tashlamoq qiyin bo'lur. Bir vaqt Habib necha kung'acha maktabg'a kelmadi. Har kun ertalab: «Maktabg'a boraman», deb uyidan chiqar edi. U yerda-bu yerda o'ynab, yana uyig'a: «Maktabdan keldim», deb borur edi. Ota-onasini: «Bu kun buni o'qiduk, buni yozduk», deb yolg'on so'zlar ila aldar edi.

Bir kun Habib maktabg'a keldi. Muallim afandi taftish qilg'onda, Habibning bir hafta butun uzrsiz maktabdan qolg'onlig'i ma'lum bo'ldi. Shul sababli Habib maktabdan quvlandi. Bul xabarni ota-onasi eshitib, alar ham bu yolg'onchi Habibni uydan quvladilar. Habib bechora yolg'onchilik sababidan ham maktabdan va ham uydan quvlandi.

YOLG'ONCHILIK ZARARI

Bir cho'pon sahroda qo'ylarini o'tlatub yurur edi. Ko'zig'a yaqin yerdan bir qishloq ko'rindi. Cho'pon qishloqilarni aldamoq uchun yolg'ondan: «Bo'ri keldi, bo'ri keldi!» – deb qichqurdi. Buni eshitib, qishloqilar qo'llarig'a kaltak, to'qmoq ko'tarib yugurishdilar. Kelib qarasalarki, bo'ridan hech bir asar yo'q. Qo'ylar bahuzur o'tlab yuribdilar. Cho'pon esa iljayub, kulib turibdur. Qishloqliklar cho'ponning yolg'ondan qichqirg'onini bilib, xafa bo'lib, o'z joylarig'a qaytib ketishdilar. Ittifoqo ertasig'a birdan ikki bo'ri kelib, qo'ylarg'a

yugurdilar, choʻpon qoʻrqib, bir daraxt ustigʻa chiqdi. Bor ovozi ila: «Dod, boʻri keldi», deb qichqira boshladi. Lekin qishloqilar: «Bu kun ham yolgʻondan qichqirub, bizni aldar», deb yordamgʻa kelmadilar. Boʻrilar bir necha qoʻylarni boʻgʻib oʻldirdilar. Choʻpon bechora oʻz jonini zoʻrgʻa qutqarib qoldi.

«Yolgʻonchi» deb atalgʻon kishining chin soʻzigʻa ham hech kim ishonmas.

TOʻGʻRILIK

Toʻgʻri soʻzlik bolalarni har kim yaxshi koʻrar. Kundan-kungʻa darajasi va obroʻsi ortar. Har kim oldida soʻzi maqbul va oʻzi eʼtiborlik boʻlur. Ulugʻ-ulugʻ xizmat va oʻrinlarga loyiq koʻrurlar. Bora-bora qoʻligʻa zoʻr-zoʻr ishlar topshirilur. Yolgʻonchi bolalar esa bu neʼmat va bu davlatlarning barchasidan quruq qolurlar. Toʻgʻri bolalardan janob Haq taolo ham rozi boʻlur. Shul sababli har bir soʻzda toʻgʻrilik ila harakat qilmoq lozimdur. Soʻzda toʻgʻrilik esa yolgʻon soʻz soʻzlamasliqdur.

ORIF ILA SODIQ

Bir kun Orif ila Sodiq ikkisi oʻynashub, maktabning devorigʻa osilgʻon soatni sindirdilar.

Muallim afandi Orifni chaqirib: «Soatni kim sindirdi?» – deb soʻradi. Orif toʻgʻri soʻzlik bir bola edi. Shuning uchun «Sodiq ila ikkimiz oʻynashub sindirdik, gunohimizni kechirsangiz edi, afandim!» – deb toʻgʻri javob berdi.

Muallim afandi Sodiqni chaqirib: «Soatni nima uchun sindirdingiz?» – deb soʻragʻanida, Sodiq: «Taqsir! Man yoʻq edim. Orifingiz sindirgandir», – deb tondi.

So'ngra boshqa bolalarning guvohliklari ila muallim bildiki, Orifning so'zi chin ekan, soat sindirganlarning biri Sodiq ekan. Muallim Orifg'a qarab: «O'g'lim Orif, to'g'ri so'zlaganing uchun saning gunohingni kechirdim, bundan keyin ehtiyot bo'!» – dedi.

So'ngra Sodiqg'a boqub:

«Yolg'onchi Sodiq! San ham to'g'ri javob bersang edi, gunohingni kechurar edim. Endi yolg'on so'zlaganing uchun bir kun maktabda taomsiz qolursan. Ham soatning yarim bahosini to'laysan», – dedi.

Orif to'g'ri so'zladi, qutildi. Sodiq yolg'on so'zladi, tutildi.

MOLNING QADRINI SAXIY BILUR

Bir vaqt Andijon shahrida qattig' zilzila bo'lub, hamma imoratlar yiqildi. Ko'p kishilar tom va devorlarning ostida qolub, halok va majruh bo'ldilar. Ko'p faqir-u bechoralar uysiz, joysiz, och va yalang'och qoldilar. Bularning foydalarig'a har tarafdan ionalar yig'ildi. Har shahardan ul bechoralarg'a aqcha, taom va kiyimlar yuborildi. Har yerda necha-necha kishilar iona yig'ib yubormoqg'a mutasaddi bo'lmish edilar. Shul mutasaddilarning ba'zilari Toshkanda iona so'ramoq uchun bir boyning uyig'a bordilar. Boyni jahl va g'azablik bir holda ko'rdilar. So'ngra g'azabining sababini bildilarki, xizmatkori uchi yoqilmag'an bir gugurti yerga tashlagani uchun ondin koyib turgan ekan. Mutasaddilar bu holni ko'rib, bir-birlarig'a boqub: «Bir gugurt uchun muncha g'azablangan, iona so'rab nima qilurmiz?» – dedilar. Lekin yana shuncha yerg'a kelib, hech narsa demasdan ketmoqni munosib ko'rmay, nima uchun kelganlarini boyg'a bildirdular. Boy esa tezlik ila ichkari kirib, besh yuz so'm aqcha

chiqarub, mutasaddilarning qoʻllarigʻa berdi. Mutasaddilar hayron boʻlishdilar.

Boy janoblari bulargʻa boqub: «Nimagʻa hayron boʻlursiz? Agarda man bir gugurtning bekor ketmogʻigʻa rozi boʻladurgʻan darajada musrif boʻlsaydim, hozirda bunday xayr ishlargʻa beriladurgʻon aqchalarni qanday jam qilurdim? Saxiy boʻlurman, degan kishi molning qadrini bilur. Yerigʻa qarab, puligʻa savdogarlik qilur. Yerigʻa qarab, minglarcha soʻmning yuzigʻa boqmas», – dedi.

OʻRUNLI SAXOVAT

Bir boy oʻgʻlini toʻy qilmoqchi boʻldi. Bir necha yor-u doʻstlarini chaqirub, maslahat soʻradi. Doʻstlari uch-toʻrt kun shahar xalqigʻa osh bermoqni, sozanda va hofizlar kelturib, bazm va ziyofat qilmoqni maslahat koʻrdilar. Boy esa mol qadrini bilguvchi esli va insofli bir zot edi. Shul sababli alarning bergan maslahatlarini va koʻrsatgan yoʻllarini muvofiq topmadi va alargʻa boqub, ushbu soʻzlarni soʻzladi: «Aziz birodarlarim, toʻy degan bir saxovatdur. Saxovat esa faqir, muhtoj, och va yalangʻochlarning haqlaridur. Osh bergʻanda shulargʻa bermoq lozimdur. Holbuki, oramizdagʻi urf-odatlargʻa qaragʻanda, man oshni siz hurmatlilargʻa oʻxshash, yangi toʻnli zotlargʻa bersam kerak. Agar urf-u odatdan chiqib, faqir va muhtojlarni chaqirsam, ehtimolki, har yerdan oshgʻa chaqirilib oʻrgʻangʻan baʻzi yangi toʻnlilarimizni koʻngillari qolur. Va agar faqirlarni qoʻyib, boylarni chaqirsam, oʻzimgʻa va ham alargʻa ziyon yetkurgan boʻlaman. Chunki oʻzimning qancha molim oʻrunsiz sarf boʻlur. Alar esa oshgʻa borurmiz, deb oʻz ishlaridan qolurlar.

Xususan, muallim va mudarrislarni chaqirib, maktab va madrasalar ishig‘a qancha shogirdlarni muntazir va sargardonliklarig‘a sabab bo‘lmoqni zo‘r gunoh deb o‘ilayman, shul sababli xalqg‘a osh bermoq uchun sarf qiladurg‘an aqchalarimni maktab va madrasalarg‘a, faqir va muhtojlarga‘a ulashub, o‘g‘limni sunnatg‘a muvofiq xatna qildirsam deyman, shoyad siz hurmatlilar ham mani aybg‘a buyurmay, bu fikrimg‘a qo‘shilib, yordam bersangiz».

BIZNI(NG) JAHOLAT – JAHLI MURAKKAB

(Maqoladan parcha)

Har millatning maktab va madrasasi o'ldig'i kabi, bizni ham maktab-madrasalarimiz garchi benizom va beusul o'lsa ham, yo'q demak darajada oz emas. Har millat avlodini tarbiyalash va ta'limi ulumda ko'rsatgan himmat va g'ayrati kabi bizlarda ham o'z ma'sum avlodlarini jaholat va g'aflat zulmatida qolmoqig'a hech bir rizolari o'lmay, qo'llaridan kelgancha ta'lim va tarbiyati avlodda qusurlik ko'rsatmakchi zotlar mavjudirlar.

Va lekin dunyog'a nima uchun kelgonini bilmay, ilm va maorifg'a aslo rag'bat qilmay, jonidin shirin bolalarini ko'cha-bako'cha kezdirib, bechora ma'sumning aziz umrini jaholat otashina yondirg'uvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur.

Ba'zi azizlarimiz bordurki, o'g'lini qo'lidin tutib maktabga olib borur. Muallimdan tolib qilurg'a: «Taq-sir, shu o'g'limni go'shti sizniki ustixononi bizniki, bir iloj qilib, tezlik ila naqd va nasiya yozmoqni o'rgatib berursiz», der. «Eshagiga yarasha tushovi» degan o'zbek maqolicha, muallimlar ham aksarlari qonuni ta'lim-tarbiyadin butun-butun bexabar kishilar o'lub, balki o'quv va yozuvni ham lozimincha bilmasliklari va-jhidan bechora ma'sumalarni iste'dodi zotiyasig'a naz-

zora ikki yil zarifida jami lavozumoti diniyani bildirmoq mumkin o'lg'on holda, to'rt-besh yilg'acha hijja usuli birla dunyo va oxiratga foydasi bo'lmag'on Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz va Bedil kabi mushkul manzuma kitoblarg'a umri azizini barbod etarlar.

Ey vatandoshlar! Diqqat nazari ila boqing! Bir bolani maktabg'a bermakdan maqsudi vojibot diniyamiz o'lg'on ilmi qiroat, masoili e'tiqodiya, farz, vojib, sunnat, mustahab, harom, makruh, namoz va ro'za, haj va zakotlarni ham zaruroti dunyaviyamiz o'lg'on ilmi hisob, jug'rofiya, tavorix, xususan, «Tarixi Islom» kabi foydalik ilmlarni bildurmoq o'lg'on holda johil domlarning «ta'limi faloniy, qoshi qaro, qaro ko'zi, qaro yuzi, oh, so'zi shirin», deb bolalarni fasod axloqig'a birinchi sabab o'ladurg'on manzuma kitoblar o'lmish.

Bu xususda otada ayb yo'q, chunki bu bechorani e'tiqodida bolani o'qutmoq yolg'iz naqd va nasiya yozdurmoqdin iboratdur. Muallimda ham ayb yo'q, chunki bu zikr qiling'on ulumi zaruriyalarni bechora muallimning o'zi bilmas, balki ba'zilarini ismini ham eshitgan emas. Bechora na qilsun? Nochor, befoyda bo'lsa ham maktablarda bolalarga o'qitgudek bulardan boshqa bir kitob topilmag'on zamonlarda o'zi o'qib, bilgan kitoblari shu kitoblar o'ldig'i chun eski o'runlarda eski tushlarin ko'rmakdadurlar. Mani so'zimdan Fuzuliy, Navoiy, Xo'ja Hofiz, Bedillar kabi ulug' zotlarni tahqir qildi, deb gumon qilinmasun. Chunki mani g'arazim bu kitoblarni zotan befoyda demak emas, balki yosh bolalarg'a bu kitoblarning ta'limi befoyda, demakdir.

Misola bir bolaga Fuzuliy o'rniga ilmi qiroat, Navoiy o'rniga masoili e'tiqodiya, Xo'ja Hofiz joyiga masoili amaliyot, Bedil badalig'a ilmi hisob o'qitilsa, din va

dunyosi uchun qancha foydalar hosil qilib, musulmon oʻlur. Bilʼaks, bu kitoblarning oʻzi oʻqitulgʻon holda bu foydalardin mahrum qolib, balki fasod axloqqa muhtalo oʻlmogʻi ham ehtimoldir. Chunki bu kitoblarni tasnif qilgʻon zotlar Olloh taoliygʻa qurbat paydo qilgʻon kishilar oʻlgʻonlari uchun aytgan soʻzlarining zohiri shariatga muxolif oʻlsa ham, haqiqati muvofiqdir. Chumonchi mavlono Fuzuliy derki, fard:

*Sanamlar sajdasi dur bizda toat tangri-chun, zohid,
Kishi koʻrsang sen, oʻz diningda taklifi namoz ayla.*

Yoki

*Xoʻblar mexrobi abroʻsina mayl etmaz faqih,
Oʻlsa kofirdur, musulmonlar, ango qilmang namoz.*

Mavlono Hofiz derki:

*May noʻshki, umri jovidoniy in ast,
Kayfiyati roʻzgori foniy in ast.
Hangomi gul-u, lola-yu yoron sarmast,
Xushbosh, dameki, zindagoniy in ast.*

Bu kabi soʻzlarning zohiriy muxolifi kitob, sunnat boʻlsa ham, haqiqati bir boshqadir. Ammo yosh bolalar, shubha yoʻqdurki, buni haqiqatda bilmaslar. Balki oʻqitgan muallimlari ham bilmaslar. Nochor zohiri ila amal qilib, fasod axloqgʻa muhtalo boʻlmoq xavfi bordur. Baʼzi juhalo dermishki, bu tartib hazrat Imomi Aʼzamning tartiblari, buni buzaman degan kishining oʻzi buzulur. Ajabo, bu kabi jaholat ham boʻlurmi? Bu jahli murakkab emasmu? Chunki bu johillar hazrat

Imomi A'zamning umrlarida bu kitoblardan hech bir asar o'lmag'onini bilmaslar. Bilmaganlarini ham bilmaslar. Qachon ul janobning zamonlarida Fuzuliy yo Bedil, yo Xo'ja Hofiz, yo Navoiy bor edi? Qachon ul janob bu kitoblardan bolalarga ta'lim berdilar. Ul janob kabi zotning haqlarig'a bu kabi bo'lg'on iftiro, tuhmat qilg'on johilni inshoolloh o'zi bilur.

Ba'zi nodonlar dermishki, shu kitoblarni o'qimguncha bolalarning savodi chiqmas. Bu ham e'tiqodi fosid va da'voyi bedalildur. Chunki bu e'tiqod durust bo'lsa edi, Turkiston viloyatidin boshqa viloyatlarda hech kimning savodi o'lmas edi. Vaholanki, boshqa viloyatlarda xat bilmaydurg'on kishi yuzdan o'n bo'lsa, Turkiston viloyatida yuzdan to'qsondir. Mundin ham ma'lum o'lurki, savod chiqmaq bu kitoblarni o'qumoqqa muvaqquf emas, balki bu kitoblar g'oyat qiyinlikidin bolalarni besavod qolmog'ig'a ham sabab o'lur. Chunki bu kitoblar o'qilodurg'on maktablarda ellik boladin o'n bola to'rt-besh yilda bazo'r ushbu kitoblarning o'zinigina xatini tanub chiqur. Boshqa kitoblarni yana durust bilmas.

Ammo bu kitoblar o'qilmaydurg'on jadid maktablarida ikki yil ichida ellik bolani qirq to'qqizi balki hammasi alassaviya necha xil ilmlardan imtihon berib chiqar. Boz bu kitoblarni ham bilur. Xayr, durustroq ham bilmasun? Lekin, bilmag'oni birla bu bolaning na dunyosig'a va na oxiratig'a hech bir zarari yo'q. Chunki bu kitoblarning o'zini dunyo va oxiratg'a hech bir foydasi yo'q. Balki zararining ehtimoli bolada zikr qilindi. Xayr, kelaylik sadadi kalomg'aki, o'g'lini maktabga bermakdin maqsadi naqd va nasiya yozdurmoq o'lg'on johil otaning o'g'lig'a qilg'on muallim bechoraning tarbiyati, chekkan mashaqqati-

ni va ma'sum bechorag'a maktabda bergan kulfatini yozib bitirmak mumkin emasdir. Ko'rgusi va bilgusi kelgan kishi bizning Toshkand maktablarining biriga kirib, ikki soat istiqomat qilsun. Shuncha demak mumkindirki, muallim afandi qo'lida zo'r bir tayoq, qaysi bolaning boshi harakatdin qolsa, ushbu tayoq shu bolaning boshida o'lur. Ammo o'qug'on-o'qumag'oni ila hech kimning ishi yo'q. Boshini qimirlatib o'ltirsa kifoya qilur. Hattoki, o'tgan yillarda bu tariqa zolim muallimlarning tayoqi ostida vafot qilmoq ham voqe o'ldi.

Bu tariqa zolim va badxulq, johil muallimlarning tarbiyasida o'sgan bolalardin nima umid qilmoq kerak? Fasodi axloqdin boshqa bir ish o'rganmas. Johil otalarni umid etduklari naqd va nasiya yozmoq ham tanho o'ndan bir, yigirmadan bir bolaga hosil o'lub, boshqalari esa «maktabda o'qumoq, igna ila choh qazimoqdan ham qiyin (mushkul) ekan», deya-deya qochar-ketar. Bunga sabab muallimning badxulqligi, maktabning benizomligi o'lur. Agar bizlarning maktablarimiz boshqa millatlar maktablari kabi bir nizomg'a qo'yilib, yaxshi muallimlik vazifasini lozimincha ado qilurlik kishilardin muallimlar tayin qilinsa edi, ma'sum avlodlarimizning ruhini hayotig'a, dunyo va oxiratining saodatig'a birinchi sabab o'ladurg'on ilm va maorifdin bu darajada mahrum o'lmakig'a sabab bo'lmas eduk.

Ey qardoshlar, voy millatdoshlar!!! Ko'zimiz g'aflat uyqusidin ochib, atrofimizg'a nazar solmakimiz lozimidir. Har millat o'z saodat va istiqbolini muhofazatig'a birinchi vosita ilm o'lmakig'a qanoat hosil qilib ilm va maorifg'a ortiq darajada ko'shish qilgan bu zamonda bizlar bu g'aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbo-

limiz nihoyatda xavfli o'lub, hamma olamga masxara va kulgu o'lmog'imizda hech shubha yo'qdir. Balki, bu jaholat zulmatida saodati uxraviyadin ham mahrum qolmoq xavflidir. Bu jaholat natijasidurki, o'zimiz yerlik musulmonlardan o'ldig'imiz holda musofir rus va yahudiylar eshigida mardikor va xizmatchi o'lduk. Bu jaholat xohishidurki, millat foydasi uchun jonin qurbon qilmoqqa loyiq arslon kabi yigitlarimiz butun millatni yodlaridin chiqorib, iste'dod va g'ayratlarini choyxona va pivaxonalarg'a sarf etmaktadurlar.

«Taraqqiy» gazetasi, 1906-yil, 14-iyun

ABDULLA QODIRIY (1894–1938)



Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida tugʻilgan. XX asr yangi oʻzbek adabiyotining ulkan namoyandasi, oʻzbek romanchiligining asoschisi. 20-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Musulmon maktabida (1904–06), rus-tuzem maktabida (1908–12), Abulqosim shayx madrasasida (1916–17) taʼlim olgan; Moskvadagi adabiyot kursida (1925–26) oʻqigan. Eski shahar oziqa qoʻmitasining sarkotibi (1918), «Oziq ishlari» gazetasining muharriri (1919), Kasabalar shoʻrosining sarkotibi (1920), «Mush-tum» jurnali tashkilotchilaridan va tahrir hayʼati aʼzosi (1923–26).

«Toʻy», «Ahvolimiz», «Millatimga», «Fikr aylagil» kabi sheʼrlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasi yozuvchining dastlabki asarlaridir (1914–15).

«Uloqda» hikoyasi (1916), «Kalvak Maxzumning xotira daftaridan», «Toshpoʻlat tajang nima deydir?» (1920) kabi satirik hikoyalar muallifi.

«Oʻtgan kunlar» (1924–26), «Mehrobdan chayon» (1929) romanlari, «Obid ketmon» (1934) qissasi yozuvchining ulkan mahoratini oʻzida mujassam etgan.

Abdulla Shunosiyning «Fizika» (1928), N.V.Gogolning «Uylanish» (1935), A.P.Chexovning «Olchazor» (1936) asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Qodiriy 1926-yilda «Mushtum»da bosilgan «Yigʻin-

di gaplar» maqolasi tufayli qisqa muddat qamalgan. 1937-yilning 31-dekabrida esa «xalq dushmani» sifatida ikkinchi bor qamoqqa olinib, 1938-yil 4-oktabrda Toshkent shahrida otib tashlangan.

Uning asarlari 1956-yildan boshlab oqlangan. Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti laureati (1991), «Mustaqillik» ordeni bilai mukofotlangan (1994).

ULOQDA

(hikoya)

I

Kecha dadamdan soʻrab qoʻyganim uchun bugun akam ham «kerak emas, borma» degan jekirishini qilmadi. Choyni naridan-beri ichib, otxonaga yugurdim.

Dadam bilan oyim:

– Oyogʻing olti, qoʻling yetti boʻlib qoldi-yov! – deb kulishib qoldilar.

Qashlogʻichni oldim-da, qora qashqqamni yalangʻochlab u yoq-bu yogʻini qashlab chiqdim. Jonivor tipir-tipir qiladi, bosh chayqaydi, yer tepinadi, dum silkitadi... Shuning bilan mening koʻnglimga: «Xudo xohlasa kelasi yilga bir uloqlar chopayki, hammani meni: «Turgʻun chavandoz», deb atasin degan orzular tushadi.

Ulugʻ hayitdagi hayitlikka oldirgan moʻgʻul egarcha bilan gʻalatcha qilib toychamni egarladim. Togʻamga yalinib-yalpogʻlanib oldirgan oʻrus yuganni artib-surtib soldim-da, oʻzim chetroqdan turib kam-koʻstini kuzatdim:

Quyushqoni ham oʻmida, egar ham yaxshi qoʻngan, qorinbogʻi ham jips, yugan ham toʻralamikidek! Lekin umuldirigʻining yoʻqligi biroz koʻnglimni gʻash qildi. Anchagina oʻylab turganimdan keyin, akamning yugan uchun asrab qoʻygan qayishi esimga tushib, sekingina yertoʻladan haligi qayishni olib chiqib, umuldiriq yasadim.

Endi toycham juda ham gijinglab, xuddi toʻralarnikidek boʻlib ketdi. U yoq-bu yogʻini supurgandan keyin ustunga qantarib qoʻydim. Endi qoldi: oq jujuncha kamzulimni, oʻrischa shimni, amirkon etikni, baxmal toʻppini kiyish... Ana shundan keyin otga minsak chin toʻracha boʻlamiz-da!

Oyimning bir qiziq odati bor: har qachon yangiroq kiyim kiyimoqchi bo'lsam, ko'zini ola-kula qilib: «Qaqshag'ir, kir qilasan, to'y-po'yga borganda kiyarsan!» – deb qarq'ay boshlaydi. Ozigina «shayton yig'isi» qilmaguningcha ish o'nnglanmaydi. Bu gal ham o'shandog' yig'idan qilib olganimdan keyin, kiyimlarimni kiyib, shohi qiyiqchamni belimga bog'lab oldim. Oyimga bildirmasdan sekingina uyga kirib, dadamning kumush chopqon qamchisini ichimga tiqib, tashqariga chiqdim.

Xizmatchi go'sht keltirib turgan ekan. Otxonadagi qora qashqani ko'chaga chiqarib turishga buyurib, go'shtni oyimga kirgizib berdim-da, tashqariga qarab chopdim.

Oyim orqamdan:

– Kiyimlaringni kir qilma, toyingni qattiq choptirma, uloqchilar orasiga kirib, biror hodisaga yo'liqma, o'rtoqlaring bilan bir chetda turib tomosha qil! – deb javrab qoldi.

Xizmatchidan otni olib mindim. To'nimning etaklarini yig'ishtirib, qashqachamning choviga bir-ikki qamchi bergan edim, jonivor shataloq otib ketdi. Xizmatchining: «Ha, barakalla! Chavandoz!» degan tovushini eshitib, qattiqroq qamchilab edim, jonivor qashqacham ko'tarib ketayozdi.

II

Chuqur ariqdan toyimni sug'orib chiqayotganimda bir to'da uloqchi-chavandozlar uchrab qoldilar. Ularning ba'zilari akamning o'rtoqlari edilar, men bilan so'rashdilar. Ulardan biri akamning qayerdaligini so'ragan edi, men ertalab uloqqa ketganligini aytdim.

– Bizning Mahkamboy uloqqa juda ham ishqiboz-da! – dedi haligi yigit.

– Yoʻl boʻlsin, boyvachcha? – deb soʻradi mendan yana biri.

Men uyalinqiradim:

– Uloqqa! – dedim.

– Barakalla, chavandoz! Barakalla, Turgʻun chavandoz! – deyishdi ular. Ayniqsa meni «chavandoz» deb atashlari juda ham kayfimni keltirib, ichimdan: «Otangga rahmat», – deb qoʻydim.

Biz bir durkum otlilik boramiz. Jonivor toycham boshqa otlardan qolishmaydi va goho ularning otlaridan oʻtib ham ketadi. Toycham oʻta qolsa: Otingiz juda ham yoʻrgʻa ekan-da, boyvachcha», – deb menga piching otishadilar.

Har kim har narsadan bahs qiladi, orada menga ham soʻz qotib qoʻyadilar. Men uyalaman. Soʻz urinib yana Mahkam akam ustida toʻxtaldi:

– Shu choqqacha koʻp uloqchi koʻrdim, lekin Mahkamdek uloqqa serzavqini koʻrmadim! – dedi bittasi.

– Mahkam boyvachchanning ota-bobosi uloqchi boʻlib kelgan-da! – dedi Sobir tegirmonchining oʻgʻli.

– Axir, oʻn ikki yashar ukasini koʻrmaysizmi, shu yoshidan uloq chopmoqchi!

Bu soʻzdan mening aʼzoyi badanim jimirlashib ketdi va oz qoldiki kulib yuborsam.

– Dadam Mahkamning bobosining uloq chopshini gapiraversa kishi hayron qoladi, – dedi yana bir moʻylovi shopdek yigit, – yuz, ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolgʻiz uloqni ajratib chiqar ekan-da!

– U vaqtning odamini uloqning piri desang-chi! – dedi Sobir tegirmonchining oʻgʻli.

– Oting yaxshi va bilagingda kuch serob bo‘lsa, sen ham uloqning piri bo‘lasan! – dedi yana biri.

Men bobomning maqtovini eshitib, kekkayib bormoqdaman... Shu paytda orqamizdan ot shatalog‘i eshilib, qayrilib qaragan edik, oldiga bir ola echkini o‘ngargan, ko‘kragi ochiq, yaktakchan, saman otliq bir yigitni ko‘rdik. U bizga yetib to‘xtadi va hamma bilan ot ustida turib so‘rashdi.

– Bu hafta yordamlashasiz-da, karvon! – dedi kulimsirab To‘g‘on aka.

– Ha, bo‘lmasam-chi, sizdek og‘aynilarga ko‘maklashmasam bo‘ladimi! – dedi haligi yigit va to‘zumsizlandi: – Qani, ildamroq yuringlar!

Yigit bilan birgalashib ketdik. Biroz borgach, bizning otimizning oyog‘i bilan chavandoz yigitning sabri tugadi shekilli, otiga birdan shartillatib qamchi berdi va qushdek uchib ketdi. Biz, faqat uning: «Men tezroq boray», – degan so‘zini eshitib qoldik.

Endi so‘z haligi chavandozning oti to‘g‘risida boshlandi.

– Valadning oti juda ham chopqir-da, – dedi To‘g‘on aka, – uloqchi bo‘lganingga yarasha shundaqangi oting bo‘lsa!

– Xuddi bodirafrafdek uchadi! – dedi mo‘ylovi shopdek yigit.

Shu vaqt nima uchundir hamma birdan sharaqlab kulib yubordi. Kulgi sababiga tushunmasam-da, men ham ularga qo‘shilib kulishdim.

– Bodirafrafmi, bodisarsar? – deb so‘radi undan al-lakim.

III

Biz, akamga «Do‘mburovot» guzarida uhradik. Akamlar samovarchiga palov damlab qo‘yish uchun o‘zaro pul yig‘ib berishgandan keyin, biz yana yo‘lga tushdik.

Dalaning ko‘chasi qishdan boshqa vaqtda suv ko‘rmagani uchun ikki gaz keladigan bilq-bilq guppon tuproq, yigirma-o‘ttiz uloqchi birdaniga yo‘l bosib, qaysi otini choptirib, qaysi lo‘killatib boradi.

Ko‘chani to‘zon qoplagan, kishi kishini tanimaslik holga kelgan. Men bo‘lsam uyga qaytib borganimda: «Kiyimlaringni pes qilibsani!» – deb oyimning qarq‘ishi-dan qo‘rqib boraman.

Talaygina yo‘l bosgandan keyin uloq chopiladigan joyga yetdik. O‘zi, to‘rt tarafi ko‘z ilg‘amaytirg‘on darajada katta va sayhon bir yer ekan. Bu joyga juda ko‘p xalq yig‘ilgan, bundagi uloqchi otliqlar bilan tomoshachi yayovlarning had-hisobi yo‘q.

Katta sadaqayrag‘ochning tagida ikkita bordondek samovarga o‘tin qalab qaynatadilar. Undan nariroqda bir-ikki kishi uch-to‘rt qop bodringni bir-birisiga tirab qo‘yib: «Mirza qiron bodiring! Kasir-kusir bodiring!» deb maqtashadilar.

Akamlar sadaning ostiga – samovarchining palosiga otdan qo‘ndilar. Kun qizig‘ida turish qiyin bo‘lgani uchun, men ham toycham bilan sadaqayrag‘ochning bir bag‘riga borib turdim. Tevarakdagi kishilar bir menga va bir toychamga qaraydilar. Men uyalib toychamning yolini tarayman. Tevaragimdagi kishilar orasida vag‘ir-vug‘ur gap, to‘zumsizlanib uloqning boshlanishini kutadilar. Birisi: «Bugun uloq qizimaydi», – desa, ikkinchisi: «Bekor aytibsani, bugun uloq juda ham qiziydi, chunki Salim bilan Murod chavandozlar

kelar emish», – deydi. Yana biri: «Ha, ha! Agar Salim kelsa, uloq juda ham qizir ekan!» – desa, allakim: «Salimning oti qozoqi ot, qamchi ko'tarmaydi, hayt desa bas!» – deydi. Tag'in birov: «Ular uch kishi edi, ikki yildan beri biri ko'rinmay qoldi, ana o'shanisiga chavandoz bolasi bas kelolmas edi!» – desa, yana allakim: «O'lma, o'lma! Men ham shuni ko'pdan beri ko'rmayman, girdig'umdan kelgan, yerdan bichib olgandek yigit-a?» «Balli, balli! Otangga rahmat, xuddi o'sha yigit, qancha so'rog'lasam hech kimdan daragini bilolmadim!»

Shu yigitning ustida anchagina janjal bo'lib oldi, biri: «O'lib ketgan», – desa, ikkinchisi: «Tirik!» – deb qichqiradi. Ularga yana birisi qarshi turib: «Ot bosgan, doktorxonada o'lgan!» – deydi, so'firoq bir odam: «Birovga yomon nafas qilmanglar!» – degan edi, allaqaysi kishi: «O'lsa o'lgandir, bunga nima janjal!» – deb qo'ydi, tag'in birov: «Bekor ham o'ltiribmiz-da!» – deb kuldi. Yana: «Sirasi-sirasi!» Tag'in shovqin-suron, yana: «Ha, ha!» Tag'in: «Yo'q, yo'q»...

Bir kishining: «Ana uloq keldi!» deb yuborishi bilan hamma tip-tinch bo'lib, uloqqa qarab qoldi. Yana bir ozdan keyin: «Ulog'i yosh ekan! Yaxshi chavandozga uchurvoq ham bo'lmaydi!» «Shunisi tuzuk, shunisi!» – degan janjal boshlagan ham edi, maydonga ikki chavandozning ot o'ynatib kirishi hammaning tovushini o'chirib qo'ydi va sekin-sekin: «Salim chavandoz!» «Murod chavandoz!» degan shivirlashishlar eshitilib qoldi.

– Qorasi Salimmi, cho'tiri?

– Salimning bilagi kuchlikka o'xshaydi! Chavandozlarning birisi ko'k chovkar va ikkinchisi ola otga mingan bahaybat chapani yigitlar edilar. Bular kelgandan keyin xalq chidamsizlanib qoldi:

– Ana endi chin uloq ko‘rasan! – deyishadilar.

– Bukun qiyomat ulog‘i bo‘lar ekan! – deb boshlarini chayqatib qo‘yadilar.

– Murodning otini ko‘r, xuddi qanoti borga o‘xshaydi.

– Ko‘k chovkarni aytasanmi, to‘ruqnimi?

– Har ikkalasiga ot yetmaydi, ikkovi ham yaxshi zot!

– Qulog‘i chimirilgan ot chopqir bo‘iadi!

– Quloqda gap yo‘q, gap zotda!

– Yo‘q, yo‘q! Serkishnovda, o‘zim sinab ko‘rdim!

– Qora ot chopqir bo‘ladi, deganlar, qorasi yaxshi, qorasi!

– Dadam rahmatlik ot olganda tuyog‘iga diqqat qillar edi, gap tuyoqda.

Bahslashadilar, har kim o‘z yonidagi bilan talashadi. Men ham shu to‘g‘rida o‘ylab, ularning aytgan nishonlarini qora qashqamdan qidirib topsam suyunib, topmasam kuyunib turaman.

Mahallamizdagi o‘rtoqlarimdan Nurxon, Haydar soqov, Shokir mishiqilar ham otlarini lo‘killatib kelib qoldilar. Biz to‘rtovimiz otlarimizni qator qo‘yib, u yoq-bu yoqdan gaplashib turdik. Nurxon dadasidan ola yo‘rg‘ani so‘raganda qilgan bahonasini aytib kuladi. Haydar soqov saman otining yo‘lda Shokir mishiqining baytaliga qarab kishnaganini aytib, Shokirni masxara qiladi. Kulishamiz. Shokir bo‘lsa burnini torta-torta: «Uyalib ketdim, bundan so‘g‘un biya minmayman», – deb qizarib-bo‘zardi.

Otimning umuldirig‘iga ularning havaslari kelib, bahosini so‘rashdilar, men: «O‘n besh tanga», – deb, kumush qamchini ham ko‘rsinlar uchun o‘ynagansimon egarning qoshiga «taq-taq» urib qo‘yaman. Ular: «Qani, qani, kumushmi?» – deb qamchinni qo‘limdan olib ko‘radilar. Men sekingina boshimni qimirlatib, o‘zim-

da allanima sezinaman. Ularning otlariga, o'zimnikiga, kiyimlariga, kiyimimga qarab, o'zimni ulardan allaqancha yuqorida ko'raman. Haydar soqov tutila-tutilla... «Kelinglar, bir choptiraylik», – dedi. Nurxon ko'nmasa ham tortib olib ketishdi. Ulaming orqasidan Shokir ham baytalini yugurtirdi. Chidab turib bo'lmas ekan, ular orqasidan toychamga bir qamchi berib yuborgan edim, jonivor ikki yamlab bir yutub, o'n odimda ularni yo'lda qoldirib ketdi. Anchagina uzoqlashganimdan so'ng orqamdagilarga qaragan edim, hammaning ko'zida men ekanman. Yana qattiqroq haydadim. Qirning bir chekkasiga borib otimni to'xtatdim, talay vaqtdan keyin ular otlarini lo'killatishib yoninga yetdilar. Bu yerda otlarimizning chopqirligi to'g'risida so'zlashdik. Nurxon, otining chopmasligiga akasining issiq holda suv berganini sabab qilib ko'rsatdi. Haydar soqov bo'lsa Eson ko'knorining o'g'lini so'ka-so'ka:

– Bozorga un uchun borayotganimda bexos tom boshidan guvala tashlab yubordi. Shundan beri qamchi bilan yuz ming ursang ham jonivor qulog'ini chimirib, hurkib tura beradi! – dedi.

Mening qashqacham to'g'risida, Haydar aytadi: «Sening, – deydi, – otingga hech ot bolasi yetmaydi!» – deydi.

Nurxon aytadi: «Otdan sening baxting bor ekan, lekin, – deydi, – yem-hashakni o'zing ber, xizmatkorga ishonsang otingni buzib qo'yadi, o'rtoq, men senga bir aytib qo'ydim», – deydi.

Shu yerda uzoqqina so'zlashib turgandan keyin yana otni keyinga qarab qo'ydik. Tag'in ulardan o'zib ketdim. Xalqqa yaqinlashgandan keyin «meni ham tanib qo'ysinlar» deb qashqachamni ust-ustiga qamchilashim bormi, shamol-da, shamol... endi xalq bir

oʻzimga va bir qora qashqamga tikila boshladi. Men boʻlsam, «meni endi taniysizlar!» deb toyimning yolini qamchi sopi bilan tarab tura berdim.

IV

Tomoshachilar orasida yana ola-gʻovur qoʻpti: «Ana, uloqning soligʻini yigʻayotibdilar!», «Uloq hozir boshlanadi!», «Murod chavandoz ham turdi!», «Salim qalpogʻini kiydi!», «Roʻzi qassob uloqni boʻgʻizlamochi, pichogʻini qayrayapti!», «Boyvachchalar ham qoʻzgʻalishdilar!», «Salim choponini yechmoqchiga oʻxshaydi!», «Hay barkalla, shovvozlar!»

Oʻrtoqlarim bilan men ham uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamiz. Chavandozlarning qaysisi toʻnini yechmoqda, baʼzisi otining ayilini tortmoqda va qaysi bировlar uloqning soligʻini bermoqda edilar. Akam ham shohi sallasi bilan beqasam toʻnini menga berib, oʻzi oʻrtaga ot oʻynatib ketdi.

Uloqchilar birin-sirin oʻrtaga gʻuj boʻla boshlagan boʻlsalar ham, hanuz uloq oʻrtaga kirmagan edi. Hamma tomoshachilar sabrsizlanib: «Shu tobgacha tuya boʻgʻizlasa ham boʻlar edi, ulogʻi yaxlab qoldimi?» – deyishadilar.

Oradan talay vaqt oʻtgandan keyin, boʻgʻizlangan ulogʻini oldiga oʻngarib Orif sarkor va uning orqasidan boyagi mashhur chavandozlar qalpoqni chakka-ga qiya qoʻyib, egarga qiyshiq oʻltirib oʻrtaga kirdilar. Tomoshachilar uloqni koʻrganlari on: «Xoh, jonivor, bormisan! – deyishdilar.

Oradan allakim: «Uloqning qoni yaxshi yuvildimi?» – deb soʻragan edi, Orif sarkor:

– Xotirjam! – dedi va uloqni shalq etib yerga tashladi, soʻngra xalqqa yaqinroq kelib: «Ogʻaynilar! Bo-

la-chaqalarni chetga chiqaringlar, ot oyog'ida qolgudek bo'lmasin, o'zlaring ham ehtiyotroq joyda turinglar, hayvon bilan bo'lgan ish qiyin!» – deb aytdi.

Orif sarkor xalqdan fотиha olib, otini yugurtirib to'daga ketdi. Tomoshachilar to'dadagi o'z yaqinlariga: «Bukun g'ayratlaringni ko'ramiz-da!» – deb baqirishdilar.

Uloq boshlandi...

Birisi oladi, ikkinchisi tortadi. Ikkinchisining yoniga uchinchisi va to'rtinchisi qo'shilib, birdan sakkiz tomonga tortqilashadilar, oraga chetdagi uloqchilar ham siqilishib kirib, yana uloqni buydalashadilar. Juda qiziq... har kim uloqni o'z taqimiga bosish harakatida, lekin uloqning dumidan, oyog'idan, yolidan tortuvchilar juda ham ko'p. To'dadan olib chiqish juda qiyin. Ba'zan uloqni to'dadan olib chiquvchi ham ko'rinib qoladi, biroq uning ketidan uloqchilar chug'urchuqdek yopirilishib o'n-o'n besh qadamda tutib oladilar. Yana tortish boshlanadi.

Bu yoqdagi tomoshachilar: «Taqimga bos, taqimga!», «Otning boshini qo'y, choviga qamchini shig'ab ber!», «Bo'sh kelma, mahkam tut!», «Yuganini bo'shat, qamchingni tishlab ol, yoningga alahsima!», «Olding, olding!», «Berma, chapga burul, chapga!», «Tut, qo'yma!», «Voy to'y magur, berib yubording-a, o'z ko'nglingda sen ham uloqchisan-da!», «Oting harom qotsin, otmi, eshakmi – bu harom o'lguring?»... deb har xil tovushda baqirishadilar. Uloq yerga tushib ketib qolsa, tomoshabinlardan ba'zisi yugurib borib yerdan uloqni azod ko'tarib oladi, ukasimi, oshnasimi – ishqilib birorta yaqin kishisiga tutqizmoqchi bo'ladi. Lekin boshqa chavandozlar uloqni undan olmoqchi bo'lib ustiga duv yig'iladilar, u bermaslikka tirishadi,

boshqalar oʻrtaga sanjob qilib siqadilar. Bechora anchadan keyin oqsoqlanib yoki qoʻlini silab oʻrtadan arang chiqib ketadi.

Otasi bolasini, akasi ukasini tanimaydi, chang-toʻzon, terlangan, pishilgan, har kim uloqni taqimiga bosish qaygʻusida. Bosh yorilib, koʻz chiqqan bilan, otdan yiqilib qoʻli singan bilan parvoyi-falak... Ishqilib, uloqni taqimga bosilsa boʻldi... Taqimga bosish oʻzi juda ham nashʼalik-da!

Lekin taqimga bosish har kimga ham muyassar boʻlavermaydi, taqimga koʻproq bosuvchilar boyagi chavandozlar; azoblanib, oʻlayozib boʻlsa ham uloqni taqimga bosgach, otga qamchi berib ellik-oltmish odim nariga qochib boradilar-da, yana orqadagilar tarafidan oʻralib olinadilar. Yana tortish.

Uloq boshlanganidan biror soat vaqt oʻtgan edi. Birdan uloqchilar suv quygandek tinchib, tortish oʻrnida toʻplanishib qoldilar. Biz, otliq-yayov tomoshabinlar ham hammamiz oʻrtaga yugurishdik. Men keyinroq borganim uchun otliq-yayov xalq oʻrtani sirib olgan edi. Men chekkada qoldim. Har qancha urinsam ham oʻrtaga kirishning epi boʻlmaganidan keyin odamlarning ogʻziga qarab turdim. Lekin uloqchilar orasidagi hodisa hammaga ham nomaʼlum edi. Har kimning yuzida taajjub va bir-birisidan: «Nima gap?» – deb soʻrashar edi.

Bir necha daqiqadan keyin: «Qimirlatmang, qimirlatmang!» – degan tovush eshutilib, xalq yana taajjubga tushdi.

– Nari boʻlinglar, hovv! – deb oʻrtadan birov baqirdi. Xalq bir chetlik boʻlib, yoʻl ochdi.

– Nima gap, nima gap?

– Hech narsa emas... Esonboyni ot bosipti!

– Qo‘rqinchli emasmi?

– Yo‘q, sag‘al.

Kishilar bir-biriga qarab: «Falokat-falokat», – deyishdilar. Nari tur-beri tur qilib, besh-olti kishi otga bosiriq bo‘lganni o‘rtadan olib chiqdilar. Kishilarning ko‘magi ostida keltirib, sadaning ostiga yotqizdilar.

Darrov bir kishi aravaga yuborildi, bittasi o‘ziga kelarmikan, deb o‘lgudek bo‘lib yotgan Esonboyning yuziga suv sepib ko‘rgan edi, qimir etmadi.

– Besh-olti otning tagida qoldi-da, bechora!

– O‘nta otning tagida qolsa ham hech gap emas-ku, biroq qaltisroq joyidan bosganga o‘xshaydi...

– Umri boqi bo‘lsa hech gap emas.

«Bechora bulturgi hayitda menga yarim so‘m hayitlik bergan edi. Ilohi yaxshi bo‘lsin», deb ko‘nglimdan o‘tkazdim.

Arava keldi. Esonboy akani aravaga yotqizdilar. Akam uch-to‘rtta o‘rtoqlari bilan arava yonida Esonboyning kuzatib shaharga jo‘nab ketdi.

– Sho‘r paxta qilsin, kepak qizdirib bossin, – deb xalq chuvurlashib qoldi.

Ular jo‘nagandan keyin uloq yana boshlanib ketdi. Men uloq tugaguncha tomosha qilib turdim. Lekin yaxshiki endi hech kimni ot bosmadi.

* * *

Kecha meni ot qoqqan ekan, o‘rnimga kirishim bilan tirrakdek qotib uxlabman. Ertalab oyim: «Tur, tur tezroq, dadang kelsa naq o‘ldiradi!» – deb ustimdan ko‘rpamni tortib tishladi. Men uyquli ko‘zim bilan: «Dadam bozor ketmadimi?» – deb so‘ragan edim, oyim:

– Esonboyning janozasida! – deb javob berdi.

Mening uyqum o‘chdi.

ABDULHAMID CHO'LPON (1897–1938)



Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon (Yunusov) 1897-yilda Andijon shahrida tug'ilgan. Dastlab madrasada (1908–12), so'ngra rustuzem maktabida (1912–14) ta'lim olgan. She'riy asarlari «O'zbek yosh shoirlari», «Uyg'onish» (1922), «Buloqlar» (1923), «Tong sirlari» (1926) va «Soz» (1935) to'plamlarida, shuningdek, turli gazeta va jurnallarda e'lon qilingan. 20-yillarda yozgan «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz» singari hikoyalari o'zbek adabiyotidagi lirik nasrning dastlabki mumtoz namunalaridir. «Kecha va kunduz» (1936) romani hamda «Yorqinoy», «Xalil farang», «O'ldiruvchi» (1921), «Sevgi va saltnat», «Cho'pon sevgisi» (1922) kabi pyesalari ham bor (bu asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan). Uning tarjimasidagi U.Shekspirning «Hamlet» tragediyasi o'zbek tarjima san'atining shoh namunasi hisoblanadi.

U 1938-yil 14-iyul kuni hibsga olinib, ko'p o'tmay, Toshkent shahri atrofida otib tashlangan. Vafotidan so'ng Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991) va «Mustaqillik» ordeni (1999) berilgan.

QOR QO'YNIDA LOLA

(hikoya)

I

Bir, ikki, uch, to'rt... besh; besh... olti! Yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n....

Kichkina, qizil ipdan bezalgan to'p (kaptov) aljib qochib ketib, yerto'la og'ilning devoriga yondoshib o'skan yosh qantak o'rikka borib tegdi-da, sakrab hovuzg'a «sho'p» etib tushib ham ketdi...

Qizlar barchasi birdan:

– Voy, o'laqolay, hovuzg'a tushib ketdi! – deb qichqirishib yubordilar. To'pni tutish uchun quvalab borayotg'on Sharofatxon ham hovuz yonida qotib qoldi...

To'p suvga sho'ng'ib ketib hovuzning o'rtasidan chiqdi va qizlarning havasli, o'ynoqi ko'zlari oldida gerdayib, sekingina suza boshladi.

Barcha qizlar suv yuzida erkanib suzib yurgan to'pga biroz qarashib turdilar-da, bu orada bir-birlariga boqishib yumshoqqina kulishib ham oldilar.

Toji qassobning kichik qizi Turg'unbush yugurib borib og'ilning tomig'a chiqdi-da, bir chekkaga bosib qo'yilg'on tut o'tinidan bitta uzun butoqni sindirib olib, hovuz bo'yiga keldi va haligi butoq bilan suvni o'z tomonig'a torta boshladi; qizlar uning tegrasiga duv yig'ilib, to'pning suvdan chiqishini kuta boshladilar.

Suv yasama oqish bilan qizlar tomong'a oqa boshlag'ondan so'ng, yarim belidan suvga ko'milgan to'p dam botib, dam chiqib sekingina qirg'oqqa keldi. Qizlar qiy-chuv bilan ushlab ham oldilar. Suv bilan shalabbo bo'lg'on to'pni Sharofatxon oldi-da, «Hu, qochmay

oʻlgin, tutulding-ku!» deb yerga urdi. Uning bu ishiga Abdulla jallobning qizi Toʻtixonning achchigʻi keldi, darrov borib yerdan toʻpni oldi va:

– Hoy, bunda nima yoziq? Buning joni boʻlmasa... oʻzingiz tushirib, bu boyaqishni tagʻin qargʻaysizmi? – deb toʻpni suvda chayqab olgʻondan soʻng, labini tishlab, bor kuchi bilan siqmoqqa boshladi.

Sharofatxon qizlarga qarab:

– Baribir, qancha siqib quritmoqchi boʻlsak-da, hoʻl toʻp chiqmaydur, endi boshqa kimning toʻpi bor?

– Voy, oʻla qolay, hech qaysinglarniki yoʻqmi? Salтанat, seniki bor edi-yu?

– Meniki bor edi-yu, tunov kun Gulnor oʻlgur, yoʻqotib kelibdir...

– Boʻlmasa, oʻyin tugabdir-da?

– Yoʻq, boshqa oʻyin qilamiz!

– Hu, oʻlaqolsun, toʻp oʻyidan ham yaxshisi bormi?

– Hay, Sharofatxon, siz oʻzingiz kira qolingiz, oʻrus-toʻpingizni olib chiqasiz!

– Oʻrustoʻpim yorilib edi-ku...

– Voy, essizgina, qachon?

– Qachonlari-yu...

Shu vaqtda bogʻning kichkina eshikchasidan hovruqqancha yugurib bir kichkina qiz kela boshladi. Turgʻunbush birdan:

– Ha, ana mening singlim chiqib qoldi, uyga toʻpga yuboraman! – dedi.

Barcha qizlar:

– Ha, ha, Fazilatni yuboramiz! – dedilar.

Kichkina qiz – Fazilat yugurib kelib opasining boʻynigʻa osildi:

– Bir chekkaga chiqing, opa, sizga qiziq gapim bor.

Barcha qizlar birdan:

- Qizig'i o'lsin, qizig'i, aytaber barchamizg'a!
- Yo'q, opamning o'ziga aytaman.
- Bo'lmasa, opang bizga aytib beradir...

Egachi-singil hovuz bo'yig'a ketdilar... Eshmat qorovulning mahmadana, qiziq gaplarni bilaturg'on qizi Tillaxon turib:

- Qiziq gapi nima bo'lar edi, aytmasa ham bilaman.
- Ayt-chi, bilsang?
- Nima bo'lar edi, Turg'unbushga kuyov kelgandir! Barchalari kulishdilar. Turg'unbush qaytib keldi-da:
 - O'la qolsun, Tilla, menga kuyov emas, Sharofatxononga sovchi kelibdir! – dedi.

Qizlar bir-birlariga qarashib oldilar. Sharofatxon qip-qizil qizarib, turg'on yerida qotib qolg'on edi.

II

Sharofatxonning otasi Samandar aka ilgariidan ot chiqarg'on bir savdogar edi. Shuncha og'irchilik yillar-da, qiymat, kasod vaqtlarida ishini taraqlatib kelib, oxiri o'zg'on yili erta bahorda sing'on. Bor-yo'g'ini qarziga sotib berganidan so'ng, juda so'fi bo'lib eshonlarnikida chuvalashib qolg'on edi.

Erta bilan saharlab eshonnikiga ketar, zikr bo'lsa-bo'lmasa eshonning ishini qilib, kechqurun shomlatib uyiga kelar edi. Uyga kelgandan so'ng ham bir qoshiq quyuq-suyug'i bo'lsa totinib, malla joynamozning ustiga chiqib o'lturib, qahrabo tasbehni necha davr aylantirib «vazifa»larini o'qur, so'ngra to yarim kecha-sahargacha ho'ngur-ho'ngur yig'lar edi...

Bir kun eshonnikida katta va qizg'in bir zikr bo'ldi. Zikrga boshqa shaharlardan ham o'tli-nafas bilan o'qiyturg'on hofizlar keldilar. Xonaqohning ichi zich

toʻldi. Erta bilan bomdoddan soʻng boshlangʻon «zikr» xuftongʻa yaqin zoʻrgʻa tugadi. Bir necha kishi oʻzidan ketib u yer-bu yerda yumalanib qoldilar yongʻon soʻfilardan bir-ikkitasi «jazava»ning ortigʻligʻidan borib oʻzlarini hovuzgʻa tashladilar. Qisqasi, bu kun qiyomat boʻldi.

Ertasi kuni erta bilan xonaqohning mehrobi oldida hazrat eshon oʻlturganlar, ikki yonlarida uchtadan olti hofiz, bir oʻn besh chamasi muridlar...

Eshon qutlugʻ boshlarini quyi solib «sukut»ga ketkanlar.

Tashqarida toʻpolon, shovqin, biri qoʻy yetaklagan, biri non koʻtargan, biri kiyim sarpo...

Samandar aka xonaqohdan chiqdi, haligi nazrlarning barchasini koʻrdi, koʻzdan oʻtkazdi.

– Ha balli, barakalla, Sulton Orifning jamollarini koʻring! – deb javrab, hazrat eshonning quchogʻ-quchogʻ duolarini xonaqohdan chiqarib berib turgʻon soʻfi kulib, oʻynab Samandar akaga qaradi-da:

– Ha, boy aka, nazrdan darak bormi? – dedi, Samandar aka darvozadan chiqar ekan:

– Boʻlib qolar, soʻfi! – dedi.

Samandar aka uyga kelguncha koʻnglidagi tuygʻular bilan tortishib keldi. Oʻzining piri va ustoziga tuzuk-kina, kattagina, iloji boʻlsa boshqa muridlar bera olmagʻon bir narsa bermakchi edi. Biroq, uyda arzigudek bir narsa yoʻq. Arziyurgʻon narsalari boʻlsa, barchasi qarzgʻa ketkan... Koʻp oʻyladi, biroq hech bir narsaga koʻngli qaror topmadi.

– Agar ilgari vaqtim boʻlsa, ola qashqani tutar edim...

Koʻngli ogʻridi, bir zamongʻi boyliqlari, davlatlari esiga tushdi: ola qashqasi, toʻruq yoʻrgʻasi, boʻyi tevadek Maskov zovud oti... uch faytoʻn, yer-suvi...

Uncha-munchani berishni o'ziga ep bilmadi. Boshqa nazrlarni bosib ketgundek bir narsa berishga o'ylar edi.

Birdan Yo'ldosh boyvachcha esiga tushib ketdi.

Yo'ldosh boyvachcha o'n botmon guruch, bitta yaxshi uloqchi ot, bosh-oyoq kiyim berdi...

Shunday xayollar bilan havlisiga yetib, ichkari uyga kirmakchi bo'lg'on edi, xotini to'xtatdi:

– Ichkarida xotinlar bor, siz tashqari uyga kirib turing, qo'noqlarga osh-suv qilg'on edim, men sizga osh olib chiqay!

Samandar aka kichkina tovoqdag'i oshni yolg'iz ultirib yemakka tutindi. Oshni yarimlatg'on ham edi, oldiga xotini chiqib qarshisiga o'ltirdi:

– Yaxshi ham kelib qoldingiz, otasi, qizingizga sovchilar kelib, men nima deyishni bilmay turib edim!

– Kim ekan ular, qayerdan ekan?

– Anovi Aziza otin bilan Rustam akaning xotini... o'zingizning eshoningiznikidan sovchi bo'lib kelishibdirilar... Endi eshonning o'zlari ham «qarib quyilmag'on, achib suyilmag'on»lar, deya ikkita xotinlari ustiga tag'in bu...

Bu so'zni eshitishi bilanoq Samandar akaning ko'zlari chaqchayib ketdi:

– To'g'rimi, eshonnikidanmi, to'g'rimi? Eshon nega o'zimga mazmun qilmadilar ekan?

– Endi katta odam, men sovchilarga hali qizim yosh, endi 17 ga chiqdi, dedim. Shunday deb javob bera qolaymi?

Bu vaqt kimdir, tashqaridan bir xotin tovushi eshitildi:

– Qumribush, qo'noqlar turishdilar! – Qumribush o'rnidan turdi, eriga bir nima degandek qaradi.

Samandarboy bir yosh qizini, bir eshonni, boya-gi nazr-niyoz masalasini, eng so'ng kimsan hazrat eshonning kuyovliklarini o'ylab turdi-da:

– «Bitta qizimiz boʻlsa, hazrat eshonimizgʻa tutdik, sadagʻalari ketsun!» degil! – dedi.

Qumribush kutilmagan bu gapdan oqardi, koʻkardi, suvratdek qotib devorga suyalib qoldi...

III

Sharofatxon Samandar akaning bitta-yu bitta qizi edi. Bu qiz shu tegraning koʻrklilikda, chevarlikda, shoʻxlik va oʻynoqilikda bitta-yu bittasi edi. Mahalla-koʻyning oʻspurunlaridan ikkita-uchtasi bir yerga yigʻilsalar, topgʻon-tutgʻonlari shul Sharofatxon masalasi boʻlur. «Bu qiz qaysi Xudo yarlaqagʻonniki boʻlur ekan? Kimning uyini obod qilar ekan?» deb bosh ogʻritarlari edi.

Sharofatxonning eshonga berilish xabari chiqqondan soʻng, butun mahalla-koʻy yana bir necha kun shuning dovrigʻini qilishdilar.

Koʻchada qator-qator aravalar chopishib, bir-birlaridan oʻzishadirlar.

Oʻn-oʻn besh aravaga toʻlgʻon xotirlarning tartibsiz «yor-yor»lari dunyoni buzib, koʻkni koʻtarib borar edi.

Sandiq, koʻrpa, gilam, tugun va boshqa narsalar yuklagan va yuklar ustiga yana bitta-ikkita kampir oʻtqizgan aravakashlar ilgarigilardek bir-birlari bilan basma-baslashib chopishar edilar.

Shu guldirdir-sholdir, shovqin-suron, qiy-chuv bilan ketayotqon koʻch eng soʻng eshonning eshigiga yaqinlashdi. Koʻchaning oʻrtasigʻa gurullatib yoqilgʻon, alangasi osmongʻa chiqqon oʻtning tebrasiga toʻplangʻon bir toʻp erkaklar tovushlarining boricha «yor-yor»ni choʻzgʻon; ularning berigi biqinida boshiga paranji yopingʻon, chopon tashlagʻon, roʻmol tutgʻon xotinlar, kelinlar, qizchalar... oʻz oldilarigʻa katta toʻp boʻlib, ular ham «yor-yor»ni qoʻyib yuborgʻon edilar.

*Taxta-taxta ko'pukur taxting bo'lsin, yor-yor,
Payg'ambarning qizidek baxting bo'lsin, yor-yor!
Uzun-uzun arg'amchi halunchakka yor-yor,
Chakan ko'ylak yarashar kelinchakka yor-yor.*

O'tning tegrasiga to'plang'on er-xotin barchasi birdan: «Kelin keldi, kelin keldi!» deb yuborishdilar. Bir necha yigit quchoq-quchoq g'o'zapoya olib chiqib, o'tning o'rtasig'a tashladilar, o't yana kuchaydi, yana alanga berdi.

Har kim pitirlab qimirlab qoldi. Bolalar qiz kelayotg'on tomong'a qarab chopishib ketdilar.

Shovqin, to'polon orasida aravalar yetdilar. Xalq orasida:

– Ana kelin, ana qiz tushgan arava! – degan gaplar boshlandi.

Aravakash kelinli aravani «namoyishkorona» bir suratda o'tning o'rtasidan otni qamchilag'oncha olib o'tib, eshikka yaqin bir yerda to'xtadi.

– Kuyov pochcha, kuyov pochcha! Taqsirim qanilar? Qoch, qoch, – degan tovushlar ko'tarildi.

Bir vaqt oppoq soqolli, qari, bo'shshg'on bir chol (kuyov to'ra) ustiga zarbof to'n kiyib, katta o'rama belboq bog'lag'oni holda birmuncha oqsoqol muridlari o'rtasida sekingina sudralib aravaga yaqinlashdi. Yana xalq o'rtasida:

– Ko'taring-a, kuyov pochcha, ko'taring-a!

– O'zingizni tetik tuting, taqsir!

– Ha, taqsir, ko'taring!

Chol titrak qo'llarini aravaga uzatib, qizni ko'tardi va bir-ikki odum bosg'ondan so'ng yerga qo'ydi.

Yana xalq chuvirlashib ketdi:

– Barakalla, taqsir, barakalla!

– Boʻsh kelmadilar taqsirim!

– Hali bellari baquvvat ekan taqsirimning!

Bu shovqin, qiy-chuv, toʻpolon yarim kechaga borib toʻxtadi. Haligi tomosha oʻrni boʻlgʻon koʻchada kishilar arib, qop-qorongʻi, jimjit bir goʻristonga aylandi.

IV

Bu vaqt eshonning eshigidan ikki yosh yigit chiqdilar.

– Hoʻx-hoʻ, koʻcha juda qorongʻi-ku!

– Shuni aytgil-a, osmonda dorigʻa ham bitta yulduz topilmaydur!

– Yuraber. Bu kecha xuddi eshonbobongning koʻnglidek boʻlibdir.

– Toʻgʻri-ya, men qizgʻa achinaman, boyaqish kelib-kelib kimniki boʻldi-ya!..

– Nimasini aytasan, otasining uyi kuysun, odam emas ekan!

– Soqolini oppoq tutadek hilib, nevarasidek bir qizni aravadan olishini qara, kishi chidamas ekan. Shuni bir narsaga oʻxshatgʻum keldi-yu, oʻxshata olmadim-da!

Shu choq bir burchakda koʻcha poylab yotgʻon Mamat qorovul yigʻlagʻonday qilib hushtagini chalib oldi-da:

– Nimasini aytasiz, yigitlar, dunyo oʻzi shunday teskari dunyo ekan... Lolaning ustiga qor yogʻdi!..– dedi.

Yigitlar javob bermadilar va qorongʻiliq quchogʻigʻa kirib yoʻq boʻldilar...

MUNDARIJA

Mahmudxo'ja Behbudiy.....	3
Yoshlarga bag'ishlangan maqolalar.....	5
Yoshlarga murojaat.....	5
Muhtaram yoshlarga murojaat.....	7
Asarlaridan namunalar	10
Abdurauf Fitrat.....	26
Najot yo'li	27
Abdulla Avloniy.....	38
Turkiy Guliston yoxud axloq.....	39
Munavvarqori Abdurashidxonov	138
Adib us-soniy.....	140
Bizni (ng) jaholat – jahli murakkab	162
Abdulla Qodiriy	168
Uloqda (<i>hikoya</i>)	170
Abdulhamid Cho'lpon.....	182
Qor qo'ynida lola (<i>hikoya</i>).....	183

Adabiy-badiiy nashr

ODOB-AXLOQ KITOBI

**M.Behbudiy, A.Avloniy, A.Fitrat,
M.Abdurashidxonov, A.Cho'lpon, A.Qodiriy**

Muharrir
Feruza QUVONOVA

Musahhih
Madina MAHMUDOVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Kompyuterda sahifalovchi
Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir
Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2015-yil 6-martda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 6,0. Shartli bosma tobog'i 10 08.

Garnitura «Bookman Old Style»

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 62 / 71.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» MChJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278–36–89;

Marketing bo'limi – 128–78–43. faks – 273–00–14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

«Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uygʻonish gʻoyasiga bagʻishlab, oʻlkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni gʻaflat botqogʻidan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yoʻlda ular oʻzlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar».

Sh.M.Mirziyoyev,
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti



www.book.uz

ISBN 978-9943-27-487-7



9 789943 274877